Ijtimoiy dialekt esa mahalliy sheva, dialekt va lahjalardan farq qilgan holda, muayyan guruhdagi shaxslarning umumxalq tilidagi so'zlarga o'z manfaatlaridan kelib chiqib, o'zgacha ma'no kasb etishlari yoki muayyan soha – kasb-hunar leksikasi, terminologiyasidan faqat shu soha kishilarining o'zlarigina foydalanishlari asosida vujudga keladi. Ular biror sheva yoki dialekt xususiyatiga teng emas. Ijtimoiy dialektida shevaga oid so'zlar ham ba'zan qatnashishi mumkin. Boshqacha aytganda, ijtimoiy dialektida o'ziga xos fonetik va grammatik xususiyatlar bo'lmaydi, lekin ayrim leksik xususiyatlari bo'lishi mumkin.

O'zbek dialektologiyasi ijtimoiy dialektni o'rganmaydi, ijtimoiy qatlamlar "til"i sotsiologiyistikaning boshqa bo'limlari obyektidir.

Prof. E. D. Polivanov "O'zbek dialektologiyasi va o'zbek adabiy tili" nomli asarida (1933) o'tgan asrning birinchi choragidayoq o'zbek tili o'zining ko'p shevaliligi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turishi haqida ma'lumot bergan edi. Keyingi tadqiqotlar buni tasdiqlagan. Uning tub sabablari bir necha omillarga borib taqaladi. Professor V. V. Reshetov o'zbek tili dialektal kartasining rang-barangligini uning etnogenezisidan qidirish lozimligini uqtiradi.

Tariximizga oid adabiyotlar qadimda turkiy urug' va qabilalar miqdori ancha ko'p bo'lganligi to'g'risida xabar beradi. Ular ichida o'zbek tili va uning shevalari shakllanishida qarluq, chigil, uyg'ur, qipchoq urug'lari, qangli, qatag'on urug' va qabilalari birlashmalarining tarixiy taraqqiyoti katta rol o'ynagan.

O'zbek tilining dialektal o'ziga xosligida qadimgi urug' va qabilalarning turli territoriyada alohida-alohida mustaqil yashashlari muhim ahamiyat kasb etgan. Ijtimoiy hayot tarzi, territorial mustaqilligi, kasb-kori, etnografik xususiyatlari ularning tilida aks etmay qolmas edi va bu holat tilda umumiylikni saqlab qolgan holda, boshqa territoriyada yashovchi o'zbeklar tilidan ko'pgina xususiyatlari bilan farqlanishiga olib kelgan, bu esa shevaning o'ziga xosligini keltirib chiqargan.

<sup>3</sup> K.Chambers, Piter Trudgill. Dialectology, Cambridge university press, 2004, p.-45-46.

Sheva va dialekt xususiyatlarining tobora qat'iylashishiga aholi punktlarining bir-biridan uzoq joylashishi muhim rol o'ynagan. Shu tariqa bir til ichida turli shevalarning shakllanishiga olib kelgan.

Tarixchi olim K. Shoniyozovning ko'rsatishicha, qarluqlar va ularga qon-qardosh bo'lgan chigil, xalaj qabilalari I-le daryosi havzasida, Sirdaryoning janubiy oqimlari, Isfijobda va Farg'ona vohasiga tarqalgan keng territoriyada yashaganlar. Turgesh qabilalari ittifoqi Yettisuvni egallagan. 766-yilda bu territoriyalar qarluqlar tomonidan ishg'ol qilingan. IX-X asrlarda o'g'uzlar Sirdaryoning quyi va o'rta havzalarini hamda Orol bo'ylarini ishg'ol qilgan. Qipchoq qabilalari esa, asosan, Oltoy o'lkasida, Irtish bo'ylarida yashaganlar va keyinchalik ular Sibir, Gurjiston, Volga, Dunay daryolari bo'ylari hamda Markaziy Osiyoga tarqalganlar.

O'zbek tilida sheva va dialektlarning kuchli farqlanib qolganligiga o'zbek tili boshqa tillardan ajralib mustaqil taraqqiy eta boshlagan davrdan boshlab unga qardosh turkiy tillarning va forsiy tilning kuchli ta'siri ham sabab bo'lgan. Jumladan, Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalariga qoraqalpoq va qozoq tillarining, Toshhovuz o'zbek shevalariga (Xorazm shevalariga) turkman tilining, shimoliy o'zbek shevalariga qozoq tilining, Qirg'izistondagi o'zbek shevalariga qirg'iz tilining, Samarqand, Buxoro, Namangan, Sariosiyo va Tojikistondagi o'zbek shevalariga tojik tilining ta'siri kuchlidir. Shu tufayli ham bu shevalar boshqa shevalardan farqlanib qolmoqda va o'ziga xoslikni vujudga keltirmoqda.

Yuqorida qayd qilganimizdek, o'zbek tili yirik uchta lahjani qamrab olgan, lekin har bir lahja orasiga ba'zan qat'iy chegara qo'yib bo'lmaydi, ya'ni aksariyat shevalar ayni bir til qonuniyatlariga amal qilishi mumkin, masalan, singarmonizm har uchala (Markaziy shahar shevalarini hisobga olmaganda) lahjada uchraydi, shuningdek, unlilarning birlamchi cho'ziqliklari qarluq va o'g'uz lahjalarida ham qayd qilinadi.

O'zbek dialektologiyasi tilshunoslik fanlaridan biri sifatida, avvalo, "Hozirgi o'zbek tili" fani nazariy asoslariga tayanadi. Shuningdek, "O'zbek tili tarixi" fanining "Qadimgi turkiy til", "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi", "O'zbek adabiy tili tarixi" bo'limlari uchun ham nazariy, ham amaliy asos vazifasini bajaradi. O'zbek dialektologiyasi fani, ayniqsa, "O'zbek tili tarixi" fani bilan uzviy bog'langan. Shevalar va yozuv yodgorliklari til tarixi uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Buning boisi shundaki, o'zbek tili uzoq yillarni boshidan kechirdi, buning natijasi o'laroq o'zbek tiliga asos bo'lgan shevalar hozirgi O'zbekiston, shuningdek, Markaziy Osiyo, Afg'oniston mamlakatlariga yoyilib ketdi. Shevalarning bu hududlarda tarqalishi, so'zsiz, o'zbek tili tarixini o'rganishda o'ziga xoslikni keltirib chiqaradi. Ta'kidlash lozimki, bizgacha yetib kelgan o'zbek tili manbalari o'z davrining adabiy tilida yozilgan bo'lsa-da, ayni zamonda, o'sha davrning shevalariga xos xususiyatlarni ham aks ettirgan. Shuning uchun ham, turli hududlarda yaratilgan yozma yodgorliklarda dialektal o'ziga xosliklar namayon bo'ladi, chunki asar mualliflari yoki uni ko'chiruvchilar muayyan shevaning vakillari bo'lganligi tufayli ham, ular shevasi xususiyati yoki bu tarzda asarlarda aks etmay qolmas edi. Bu holat til tarixi asarlarining o'ziga xosligini ta'minlagan.

Hozirgi sheva faktlari esa til tarixini tushunish uchun ham xizmat qiladi, chunki, avval aytilganidek, tilimiz tarixiga oid so'zlar, fonetik va grammatik unsurlar tamoman yo'qolib

ketmaydi, balki u yoki bu darajada shevalarimizdan birida o'z ma'nosida yoki qismlar ma'nosi o'zgarar shaklda saqlanib qoladi, bu esa til tarixidagi ayrim tushunchalarni oydinlashtirishga xizmat qilishi mumkin, masalan, "Devonu lug'atit turk" asaridagi anach so'zi (qizlarni erkalash shakli), shimoliy o'zbek shevalarida, atiz (ekin maydoni) so'zi Xorazmda, *авдъдъ / evdidi* (terdi) so'zi *авдэдъ / evdedi* tarzida Shimoliy o'zbek shevalarida, *кълэлэдъ / kizledi* (yashirdi) so'zi *гълэлэдъ / gizledi* tarzida Xorazmda va Shimoliy o'zbek shevalarida hozir ham qo'llanadi. *Кашыр / keshyr* so'zi "Devon"da *турр* ma'nosini anglatgan bo'lsa, Xorazm shevalarida *гашыр / geshir* variantida *sabzini* bildiradi. Demak, u qisman ma'no o'zgarishiga uchragan.

O'zbek dialektologiyasi geografiya fani bilan uzviy aloqador, ya'ni har bir sheva haqida ma'lumot to'planganda, shu sheva vakillari joylashgan territoriyaning ko'lami, aholisining miqdori, shu territoriya iqlimi va boshqa ma'lumotlar ham e'tiborga olinadi, ya'ni geografik muhiti ham yoritiladi. Shuningdek, o'zbek dialektologiyasi o'zbek xalqi tarixi, adabiyoti, folklori, etnografiyasi, san'ati kabi fanlarning ma'lumotlariga tayanadi va ayni o'rinda, ular uchun ham boy material beradi.

O'zbek dialektologiyasi o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga molik bo'lgan fandır. Bu fan bo'yicha olingan nazariy bilimlar, yuqorida ta'kidlanganidek, keyingi kurslarda o'tiladigan fanlarga nazariy asos bo'lib xizmat qilsa, ayni zamonada, til va adabiyot o'qituvchilarini o'zbek dialektologiyasi bilimlari bilan qurollantirib, o'z pedagogik faoliyatida dialektal xatolar ustida ishlashga ham tayyorlaydi, ya'ni o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqida uchraydigan dialektal xatolarning manbalarini aniqlash va to'g'ri yo'l tutishiga yordam beradi.

O'zbek shevalari tasviriy, qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, lingvistik geografiya metodlarida o'rganib kelinmoqda.

Muayyan shevaning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini tuzilgan savolnoma asosida tavsif qilib chiqish asosida o'rganish tasviriy metoddir. Bunda o'zbek adabiy tili xususiyatlari asos qilib olinadi.

Shevaga xos xususiyatlar yondosh shevalarga, qarindosh tillarga qiyoslab o'rganilishi qiyosiy metoddir. Shu paytgacha o'zbek shevalarini o'rganishda, asosan, tasviriy va qiyosiy metoddan foydalanilgan hamda boy material to'plangan.

O'zbek shevalarini o'rganishda XIX asrning oxirlarida paydo bo'lgan qiyosiy-tarixiy metoddan ham foydalanilgan. Bu metodga ko'ra, o'zbek shevalari materiallari boshqa turkiy tillar, "Devonu lug'atit turk", "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiy asarlari tili va boshqa til tarixi manbalari tiliga qiyoslab o'rganib borilgan, lekin bu metod asosiy metod hisoblanmaydi, balki tahlil talab o'rindardagina va ayrim til tarixiga oid maqola va asarlarda uchrab turadi.

Shuningdek, shevalar lingvistik geografiya metodi bilan ham o'rganiladi.

#### Mavzuga oid savollar

- 1.O'zbek dialektologiyasining maqsadi nimalardan iborat?
- 2.O'zbek dialektologiyasining vazifasi nimalardan iborat?
- 3.O'zbek dialektologiyasi fani qaysi fanlar bilan o'zaro bog'langan?

4. O'zbek shevashunsligining nazariy va amaliy ahamiyati?
5. Tasviriy dialektologiya nima? 6. Tarixiy dialektologiya nima?
7. Sheva deb nimaga ataladi? 8. Sheva deb nimaga ataladi?
9. Lahja deb nimaga aytiladi?
10. O'zbek shevalarining murakkab tarkibi qaysi omillar bilan bog'langan?
11. O'zbek shevalari qaysi metodlar bilan o'rganiladi?

#### GLOSSARIY

O'zbek dialektologiyasi [Uzbek dialectology] – o'zbek shevalarini ilmiy ravishda o'rganadigan fan.

Sheva [pronunciation, accent, dialect] – o'zbek tilining kichik territoriyadagi muomala vositasi.

Dialekt [dialect] – o'zaro bir-biriga yaqin shevalar tizimi.

Lahja [dialect] – shakllanishi jihatidan umumiy tarixga ega bo'lgan dialektlar jami.

Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi [Karluk-chigil-uygur dialect] – o'zbek tilining shu nomlar bilan ataladigan urug'-qabila ittifoqi negizida shakllangan sheva va dialektlar to'dasi.

Qipchoq lahjasi [Kipchak dialect] – o'zbek tilining qipchoq urug' va qabilalari negizida shakllangan sheva va dialektlar to'dasi.

O'g'uz lahjasi [Uguz dialect] – o'zbek tilining o'g'uz urug' va qabilalari negizida shakllangan sheva va dialektlar to'dasi.

Tavsifiy (sinxron) metod [descriptive method] – shevaning hozirgi holatini yozib olish metodi.

Qiyosiy-tarixiy metod [comparative historical method] – tillarni ham tarixiy taraqqiyot, ham boshqa yondash tillarga qiyoslab o'rganish metodi, bu metoddan shevalarni o'rganishda ham foydalaniladi.

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: NAVRO'Z, 2016.
2. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
3. To'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2004.
4. Enazarov T., Karimjonova V. A., Ernazarova M. S., Mahmadiyev Sh. S., Rixsiyeva K. G'.
5. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.

Internet saytlari

1. [www.turk.dili.google.com.tr](http://www.turk.dili.google.com.tr)

2. [http://www.ut.uz/eng/today/europe\\_recognizes\\_her\\_discovery\\_mgr](http://www.ut.uz/eng/today/europe_recognizes_her_discovery_mgr)

3. <http://www.schneid9.de/sprache/linguistik/ling11.pdf>

4. <http://www.uni-leipzig.de/~fsger/materialien/Texte/Lexikologie.pdf>

5. [www.altinmiras.com](http://www.altinmiras.com)

## TEST SAVOLLARI

1. O'zbek dialektologiyasining predmetini aniqlang:

- A. O'zbek shevalarini o'rganadi. D. O'zbek tilidagi sheva, dialekt va lahjalarni o'rganadi.  
B. O'zbek dialektlarini o'rganadi. C. O'zbek adabiy tiliga asos bo'lgan shevalarni o'rganadi.

2. Sheva deb:

- A. O'zbek tilining kichik territoriyasiga oid qismiga aytiladi.  
B. O'zbek tilining o'ziga xos leksik xususiyatlariga oid bir qismiga aytiladi.  
C. O'zbek tilining o'ziga xos fonetik va grammatik xususiyatiga ega bo'lgan qismiga aytiladi.  
D. O'zbek tilining leksik fonetik va grammatik xususiyatlariga ega bo'lgan kichik qismiga aytiladi.

3. O'zbek adabiy tiliga berilgan to'liq ta'rifni aniqlang:

- A. O'zbek adabiy tili asrlar davomida bir qolipga tushgan, silliqlashgan tildir.  
B. O'zbek adabiy tili milliy tilning yuqori bosqichi bo'lib, so'z san'atkorlari tomonidan sayqal berilgan, bir qolipga solingan tildir.  
C. O'zbek adabiy tili leksik jihatdan nisbatan barqaror, me'yorlashgan tildir.  
D. O'zbek adabiy tili leksik jihatdan nisbatan barqaror, fonetik va grammatik jihatdan bir qolipga solingan, so'z ustalari tomonidan silliqlangan tildir.

4. Dialekt deb:

- A. Bir-biriga teng bo'lgan shevalar yig'indisiga aytiladi.  
B. Bir-biriga yaqin bo'lgan shevalarni bildiradi.  
C. Leksik, fonetik va morfologik xususiyatlari yaqin bo'lgan shevalarni birlashtiradi.  
D. Leksik, fonetik va morfologik jihatdan yaqin bo'lgan hamda o'zbek tilining nisbatan kattaroq territoriyasiga oid qismiga aytiladi.

5. Lahjaning ta'rifini aniqlang.

- A. Bir-biriga yaqin bo'lgan shevalar jamidir.  
B. Bir-biriga yaqin bo'lgan dialektlar jamidir.  
C. Etnik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan dialektlarni birlashtiradi.  
D. Lahja - bu aslida til, sheva ma'nolarini anglatadi.

6. O'zbek lahjalari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

- A. O'g'uz, qipchoq, Jizzax. B. O'g'uz, qirg'iz, Qoraqalpoq.  
C. O'g'uz, qipchoq, qarluq. D. O'g'uz, nayman, qarluq.

7. O'zbek shevalarining rang-barangligini quyidagi omillardan qaysi biri ta'minlagan?

- A. O'zbeklarning etnik xususiyatlari, o'zbek tiliga turkiy va turkiy bo'lmagan tillarning ta'siri.  
B. O'zbeklarning turmush tarzi, o'zbek tiliga turkiy va turkiy bo'lmagan tillarning ta'siri.  
C. O'zbeklarning etnik xususiyatlari va o'zbek tiliga tojik tilining ta'siri.  
D. O'zbek tiliga turkiy va turkiy bo'lmagan tillarning ta'siri.

8. Quyidagilardan qaysi biri lahja emas?

- A. Qarluq.  
B. O'g'uz.  
C. Qozoq-nayman. D. Qarluq-chigil-uyg'ur.

9. O'zbek tili tarkibidagi lahjani aniqlang.

- A. O'rta o'zbek. B. Janubiy Xorazm. C. Qarluq. D. Jaloyir.

10. O'zbek tili tarkibidagi lahjani aniqlang.

- A. Samarqand. B. Qipchoq. C. Xorazm. D. Buxoro.

## O'ZBEK SHEVALARINING O'RGANILISH TARIXI VA METODLARI

Reja:

1. O'zbek shevalarini o'rganilish tarixi
2. O'zbek shevalarini tasniflashda yetakchi prinsiplar.
3. O'zbek shevalarining o'rganishning o'ziga xosligi.
4. O'zbek shevalarining o'rganishning davriyligi.

Turkiy shevalarni o'rganish tarixi Mahmud Koshg'ariy nomi bilan chambarchas bog'liq. U turkiy tillarning dastlabki tasnifini yaratgan. Bu turkiy tillar sohasidagi yagona tasnif edi. Mahmud Koshg'ariygacha turkiy tillar tasnifi bilan maxsus shug'ullangan olimni uchratmaymiz. Shuning bilan birga u o'z davrining ulug' shevashunos olimi sifatida Chindan boshlab butun Movarounnahr, Xorazm, Buxoro, Farg'ona kabi keng zaminda yashagan urug'-qabilalarning tillarini sinchiklab o'rgangan. Mahmud Koshg'ariyning bu ishi turkiy tillar, jumladan, shevashunoslik tarixida yagona bo'lib, uni yakka holda tekshirish usuli bilan qilingan ish deb aytishimiz mumkin. Demak, yakka holda shevalarni o'rganish tarixi Mahmud Koshg'ariy nomi bilan chambarchas bog'lanadi. Ba'zan savol-javob usulidan foydalanish ham qimmatli materiallar yig'ishga yordam beradi.

Mahmud Koshg'ariy shevalarni o'rganish va "Devonu lug'atit turk" asarini yaratish uchun 15 yilcha vaqt sarflagan.

M.Koshg'ariydan so'ng o'zbek xalq shevalarining maxsus holda tekshirilganligi aniq emas. Bu usul bilan material yig'ish XIX asrning II yarmi va XX asrning boshlarida birmuncha rejali yo'lga qo'yilgandi. Shevalarni shu tariqa organish o'tgan asrning 20-30-yillarida, ayniqsa, keng miqyosga ega bo'ldi. Bu sohada G'oz Olim Yunusov, Ulug' Tursunov, E.D.Polivanov, Sobirjon Ibrohimov, V.V.Reshetov, A. Fitrat, Shonazar Shoabduraxmonovlaning bir necha tadqiqotlari bor. Shevalarni yakka holda o'rganishda respublikamiz olimlari "savol-javob" usulini ham tatbiq etib kelmoqdalar. Shunday qilib, o'zbek xalq shevalarini o'rganishda qo'llanadigan usullarning eng muhimlari 3 xil ekan, degan xulosaga kelish mumkin. 1. Yakka holda o'rganish. 2. Tajriba o'tkazish usuli bilan o'rganish. 3. Savol-javob usuli bilan o'rganish. An'anaviy shevalar o'zlarining joylashgan o'rinlariga qarab, bir-birlaridan tarixiy, hozirgi holati nuqta nazaridan ancha farq qiladi. Biz ah'ahaviy shevalarni o'rganmoqchi bo'lsak, birinchi navbatda ularning asosiy xususiyatlarini tashuvchi shevalar ustida ish olib boramiz.

O'zbek shevalari hozirga qadar o'zbek adabiy tiliga qiyosan o'rganib kelindi va bunda tavsifiy va qiyosiy metoddan foydalanilgan. Bu metodda shevalaming fonetik, leksik va morfologik xususiyatlari keng miqyosda o'rganildi hamda boy material to'plandi. O'zbek shevalarini o'rganishda XIX asming oxirlarida paydo bo'lgan qiyosiy - tarixiy metoddan ham foydalanilgan. Bu metodga ko'ra o'zbek shevalari materiallari «Devonu lug'atit turk», «Qutadg'u bilig», Alisher Navoiy asarlari tili va boshqa til tarixi manbalari tiliga qiyoslab o'rganib borilgan, lekin bu metod

asosiy metod hisoblangan emas, balki tahlil talab o`rinlardagina va ayrim til tarixiga oid maqola va asarlarda uchray turadi. Shuningdek, o`zbek dialektlari fonematik tizimini sistem metod orqali o`rganish ham tajriba qilindi. Jumladan, o`zbek tilidagi til birliklarini invariant – variant munosabatida o`rganish jarayonida o`zbek shevalari fonologik tizimi ham sistem jihatdan tahlil qilingan ishlar yuzaga kelmoqda (qarang: Nabieva D. A. O`zbek tilida lisoniy birliklarning invariant – variant munosabati. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati, T. 1998).

O`zbek shevalarini tasniflashda quyidagi yetakchi tamoyillar ishlatiladi: 1) hududiy tamoyil; 2) etnik tamoyil; 3) etnogenetik tamoyil; 4) lisoniy tamoyil; 5) lisoniy-hududiy (lingvoareal) tamoyil. O`zbek shevalari asosan XX asrning 20-30 yillardan boshlab, ilmiy asosda o`rganila boshlandi va uning dastlabki tasniflari paydo bo`la boshladi. XX asr boshlarigacha bo`lgan davrda V.Nalivkin, M.Nalivkina, A.Starчевskiy, A.Vishnegorskiy, Z.Alekseev, N.Ostroumov, T.Giyosbekoylar jonli til faktlari asosida o`zbek tili lug`ati, qisman fonetik va morfologik xususiyatlarini yoritgan ishlarni amalga oshirganlar. Ularni sof dialektologik ishlar deb ham, adabiy til faktlari deb ham qarash qiyin, lekin inqilobdan keyingi yillarda o`zbek adabiy tiliga asos bo`ladigan sheva va dialektlarni aniqlash, milliy tilning imkoniyatlarini belgilash bilan o`zbek shevalari keng miqyosda o`rganila boshlandi. Shu jarayonda o`zbek shevalari tasnif qilindi. O`zbek shevalarini tasnif qilishda bir necha tamoyillardan foydalaniladi. Ular quyidagilar:

- o`zbek (turkiy) tiliga xos bo`lgan unli va undosh tovushlarning mavjudligi yoki amalda bo`lishi;

- ma`lum fonetik qonuniyatlarga amal qilishi, jumladan singarmonizm va umlaut.

- tarixiy qatlama oid leksik birliklarning miqdori, o`zlashgan qatlam so`zlarining ishtiroki.

- o`zbek shevalariga qarindosh va qarindosh bo`lmagan til va shevalarning ta`siri.

- shevaning asosiy xususiyatini belgilovchi xarakterga ega bo`lgan tovush yoki fonemaning tarqalish darajasi.

- so`zning fonetik tuzilishi va boshqalar.

O`zbek shevalarini tasnif qilishda bir qator olimlar qatnashgan. O`zbek shevalarini professor I. I. Zarubin tasnif qilishga harakat qilgan va uning Xiva, Farg`ona, Toshkent va Samarqand-Buxoro kabi to`rt guruhga bo`linishini ta`kidlaydi, lekin ularga xos bo`lgan asosiy tamoyillarni bayon qilmaydi va hatto «j»lovchi va shimoliy o`zbek shevalari uning e`tiboridan chetda qoladi.

O`zbek shevalari quyidagi olimlar tomonidan tasnif qilingan: I. I. Zarubin (hududiy tamoyil asosida tasnif etgan), Y. D. Polivanov (lisoniy-hududiy (lingvoareal) tamoyil), G`ozi Olim Yunusov (etnogenetik tamoyil), K. K. Yudaxin (etnik tamoyil), A. K. Borovkov (etnogenetik tamoyil), V. V. Reshetov (hududiy, etnik, etnogenetik, lisoniy, lisoniy-hududiy (lingvoareal) tamoyillar) asosida ish ko`rganlar. Bugungi kungacha o`zbek xalq shevalari tasnifida yuqoridagi beshta tamoyilning tasnifi bo`lgani kabi ulardan hududiy tamoyil yetakchilik qilgani sezilib turadi. Shuning uchun bizningcha, shevalarimiz ikki xil nuqtayi nazardan tasnif qilish maqsadga muvofiqdir: 1) shevalarimizning mamlakatimiz va qo`shni davlatlar hududlarida joylashishi jihatdan tasnifi, ya`ni o`zbek shevalarining umumiy tasnifi;

2) ma`lum bir voha yoki viloyat (tuman) shevalarining tasnifi, ya`ni o`zbek shevalarining xususiy tasnifi.



O'zbek tili tabaqalanish (shevalarning ajralishi) yo'li bilan emas, balki uyg'unlashish (shevalarning qo'shilishi) yo'li bilan tashkil topgan. Hozirgi o'zbek tili uch guruh shevalarning (qipchoq, o'g'uz, qorluq) qo'shilishidan tashkil topgan. Shuning uchun o'zbek tilining dialekt va shevalari Markaziy Osiyodagi boshqa turkiy tillarga nisbatan xilma-xil guruhlariga bo'lingan. O'zbek tilining tarkibida boshqa turkiy tillarga nisbatan sheva ko'p.

O'zbek shevalari va ularning o'ziga xos ayrim xususiyatlari, fonetik, morfologik xususiyatlarga ko'ra bir-birlari bilan yaqinlashadigan va ayni vaqtda bir-birlaridan farq qiladigan dialektal guruhlariga haqida tasavvurga ega bo'lish uchun ularning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi tasnifini bilishimiz kerak. Shevalarimiz XX asr boshlaridan to 90-yillargacha I. I. Zarubin, K.K. Yudaxin, A. K. Borovkov, Y. D. Polivanov singari rus turkolog olimlari va G'ozli Olim, F. Abdullayev, V. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, B. Jo'rayev, S. Ibrohimov, M. Mirzayev, A. Ishayev, Q. Muhamedjanov, K. Nazarov, Y. G'ulomov, A. Shermatov, A. Aliyev, D. Abdurahmonov, N. Rajabov, B. To'ychiboyev, K. Usmonov, A. Jo'rayev singari o'zbek tilshunoslari tomonidan ham u yoki bu darajada tasnif qilingan. Albatta, ularning bu sohadagi ishlarining ahamiyati bugungi kunda ham benihoya kattadir.

Bugungi kungacha o'zbek xalq shevalari ikki xil nuqtayi nazardan tasnif qilinganligi e'tirofga sazovor:

1) o'zbek shevalarining xususiy tasnifi, ya'ni ma'lum bir voha yoki viloyat (tuman) shevalarining tasnifi; 2) o'zbek shevalarining umumiy tasnifi, ya'ni shevalarimizning mamlakatimiz va qo'shni davlatlar hududlarida joylashishi jihatdan tasnifi.

Ma'lum bir voha yoki viloyat shevalarini tasnif qilish XX asrning 50-90-yillarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda uchraydi. Masalan, F. Abdullayev, A. Shermatov, B. Jo'rayev, A. Aliyev, S. Rahimov o'zbek shevalarini guruhlab o'rganishgan. F. Abdullayev Xorazm viloyati shevalarini qipchoq va o'g'uz lahjalariga bo'lib o'rgangan. A. Shermatov, B. Jo'rayev Qashqadaryo viloyati o'zbek shevalarini: 1) Yuqori Qashqadaryo shevalari; 2) Quyi Qashqadaryo shevalari nomlari bilan guruhlariga ajratib o'rganishgan. A. Aliyev Namangan viloyati shevalarini guruhlab, ilmiy hamda amaliy asoslarda tadqiq etgan.

Bu sohaga oid ba'zi bir ilmiy manbalarda oraliq shevalar haqida fikr yuritilgan. O'zbek tilining oraliq shevalarini Qashqadaryo shevalari misolida T. Qudratov tadqiq etgan. S. Rahimov esa Surxondaryo viloyatidagi o'zbek shevalarini ikkita guruhga bo'lib o'rgangan:

1. J-lovchi shevalar (qipchoq lahjasiga xos shevalar).

2. Y-lovchi shevalar (qorluq lahjasiga xos shevalar). Ularda V. V. Reshetov tomonidan talqin etilgan qipchoq va qorluq lahjalariga oid xususiyatlar uchraydi.

B. To'ychiboyev va B. Hasanovlar qipchoq lahjasini sharqiy, g'arbiy va Farg'ona guruh qipchoq shevalari deb uchga bo'lishgan.

O'zbek shevalarining o'rganilishi va tasnif qilinishida jahon ahamiyatiga molik bo'lgan professor E. D. Polivanov, mashhur professorlar K. K. Yudaxin, G'ozli Olim, A. K. Borovkov, V. V.

Reshetov kabi olimlarning buyuk xizmatlari bor. Bu olimlar rahbarligida mahalliy o'zbek olimlari yetishib chiqdi. O'zbek shevalari akademik Sh. Shoabdurahmonov, professorlar M. Mirzaev, F. Abdullaev, S. Ibrohimov, X. G'ulomov, Y. G'ulomov, A. Aliev, A. Shermatov, A. Jo'raev, O. Madrahimov, T. Yo'ldoshev, N. Rajabov, X. Doniyorov, T. Nafasov, Q. Muhammadjonov, Y. Ibrohimov va boshqa olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan. Bu professorlar bilan birga 50 ga yaqin fan nomzodlari, dotsentlar o'zbek shevalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini

olib borganlar va olib bormoqdalar. Bu olimlarning samarali va fidokorona mehnatlari va ilmiy ishlari tufayli o'zbek dialektologiyasi fan sifatida shakllandi va deyarli barcha lahja va shevalar sinxronik tarzda o'rganib chiqildi, lug'atlari tuzildi. O'zbek shevalari hamon tadqiqot obyekti bo'lishi mumkin, ya'ni endilikda o'zbek shevalarining barcha masalalari bo'yicha nazariy muammolar: o'zbek shevalari fonologiyasi, turkiy dialektologiya, etimologiya, turkiy tillar bilan qiyosiy jihatlardan o'rganilishi kerak. Bu kabi masalalarning o'rganilishi o'zbek tilshunosligini yanada boyitishga xizmat qiladi.

#### Savollar:

1. O'zbek shevalari qachondan boshlab o'rganila boshlandi?
2. O'zbek shevalari tasnifida qaysi prinsiplar yetatchi hisoblanadi?
3. I.I.Zaburin qaysi tamoyil asosida o'zbek shevalarini tasniflagan?
4. K.K.Yudaxin tasnifi to'g'risida ma'lumot bering
5. A.K.Borovkov tasnifi to'g'risida ma'lumot bering

#### TEST

##### №1

O'zbek xalq shevalari asosan qaysi usul asosida o'rganilishi maqsadga muvofiq emas?

Tarixiy usulda.

Sinxron usulda.

Qiyosiy usulda.

Qiyosiy-tarixiy usulda.

##### №2

O'zbek xalq shevalarini o'rganishda qaysi rus olimlari ishtirok etishmagan?

B.A.Serebrennikov, Ye.M.Pospilov, A.A.Shaxmatov, K.K.Kononov.

A.A.Shaxmatov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, Ye.D.Polivanov.

Ye.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov.

Ye.M.Pospilov, S.Qoraev, A.Rustamov, F.Abdurahmonov.

### № 3

Fozi Olim shevalarni qanday lahjalarga bo'lmagan?

G'arbiy, Sharqiy va Shimoliy lahjalar.

O'zbek-qipchoq lahjasi.

Turk-barlos lahjasi.

Xiva-Urganch lahjasi.

### №4

A.K.Borovkov o'zbek shevalarini necha guruhga bo'lmagan?

To'rtta guruhga bo'lmagan.

O-lovchi shevalar.

Y-lovchi shevalar.

A-lovchi shevalar.

### №5

O'zbek shevalarini tasniflashda yetakchi prinsiplarga nimalar kirmaydi?

Etnik, etnogenetik, hududiy prinsiplar.

Hududiy, etnogenetik, lisoniy, lisoniy hududiy yoki lingvoareal prinsiplar.

Hududiy, etnik, lisoniy, lisoniy hududiy yoki lingvoareal prinsiplar.

Hududiy, etnik, etnogenetik, lisoniy, lisoniy hududiy yoki lingvoareal prinsiplar.

GLOSSARIY

1.Xususi tasnif – ya’ni ma’lum bir voqa yoki viloyat (tuman) shevalarining tasnifi;

2.Umumiy tasnifi-- ya’ni shevalarimizning mamlakatimiz va qo’shni davlatlar hududlarida joylashishi jihatdan tasnifi.

3.J lovchi shevalar-qipchoq lahjasiga oid shevalar

4.Y lovchi shevalar-o`g`uz lahjasiga kiruvchi shevalar

Etnik tamoyil

Etnogenetik tamoyil

Lisoniy tamoyil

Lisoniy-hududiy (lingvoareal) tamoyil

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Rajabov N. O`zbek shevashunosligi. – Toshkent: O`qituvchi, 1996.
2. Reshetov V. V., Shoabdurahmonov Sh. O`zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O`qituvchi, 1978.
3. To`ychiboyev B., Hasanov B. O`zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
4. Ashirboyev S.O`zbek dialektologiyasi. – T.:“Navro`z”, 2016.
5. Ashirboyev S. O`zbek dialektologiyasi. – Toshkent: TDP, 2011, 2013.
6. Enazarov T., Karimjonova V. va boshqalar. O`zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.

Internet saytlari

1.[www.turk.dili.google.com.tr](http://www.turk.dili.google.com.tr)

2.[http://www.ut.uz/eng/today/europe\\_recognizes\\_her\\_discovery.mgr](http://www.ut.uz/eng/today/europe_recognizes_her_discovery.mgr)

3. <http://www.schneid9.de/sprache/linguistik/ling11.pdf>

4.<http://www.uni-leipzig.de/~fsger/materialien/Texte/Lexikologie.pdf>

5. [www.altinmiras.com](http://www.altinmiras.com)

6. [www.thinsan.com](http://www.thinsan.com)

Reja:

1. Transkripsiya haqida umumiy ma'lumot.
2. Unli tovushlarda qo'llaniladigan transkripsion belgilar.
3. Undosh tovushlarda qo'llaniladigan transkripsion belgilar.
4. Yangi o'zbek transkripsiyasi.
5. Diakritik belgilar

Tayanch tushunchalar:

Velyarizatsiya, diakritik belgi, dialektolog, indifferent, palatalizatsiya, transkripsiya, transliteratsiya, transkripsion belgi, fonetik transkripsiya, fonematik transkripsiya

#### INGLIZCHA-RUSCHA-O'ZBEKCHA LUG'ATLAR

Transkripsiya - Transcription—Транскрипция

Unli - Vowels - Гласные

Undosh - Consonant - Согласные

Uyg'unlik - harmony - гармония

Fonetik transkripsiya - A phonetic transcription — Фонетическая транскрипция

Fonetik o'zgarishlar - Phonetic change — Фонетические изменения

Defis, chiziqcha - hyphen - дефис

Diakretik belgi - diacritic - диакритический знак

Transkripsiya lotincha qayta yozaman degan ma'noni bildiradi. Shevalardagi konkret nutq tovushlarini, ya'ni fonemaning variatsiyalari, variantlarini yozuvda ifodalash uchun qo'llaniladigan harflar, ishoralar sistemasiga transkripsiya deyiladi. Bu ta'rif ayni o'rinda fonetik transkripsiyaning anglatadi, chunki konkret nutq tovushini yozib olishda fonetik transkripsiya foydalaniladi.

Transkripsiya qo'llanish doirasiga ko'ra uch xil bo'ladi:

1. Xalqaro transkripsiya. Bu transkripsiya lotin alifbosiga asoslanadi.

2. Rus-krill alifbosi asosidagi transkripsiya

3. Milliy transkripsiya. Bu har bir milliy tilning amalda bo'lgan yozuvi tizimiga asoslanadi. O'zbek shevalarini yozib olishda qo'llaniladigan transkripsion tizim professor V.V.Reshetov tomonidan ishlab chiqilgan va u rus alifbosi asosidagi o'zbek grafikasiga asoslanadi, lekin o'zbek dialektologlari garchand V. V. Reshetov transkripsiyasiga asoslansalar-da, shevalarni yozib olishda har

doim ham unga to'la rioya qilmaydilar, chunki shevalardagi tovushlarni belgilashda har bir tadqiqotchi ma'lum darajada erkinlikka erishishlariga ruxsat etiladi.

Transkripsiya xorijiy tillarni organishda va til tarixini o'rganishda ham qo'llaniladi. Bunda yodgorliklarda u yoki bu tovushning (fonemaning) talaffuz (artikulyatsion-akustik) me'yorini belgilash zaruriyatidan kelib chiqadi. Transkripsiya dialekt va shevalarda uchraydigan tovushlarning turli ko'rinishlarini yozuvda ifodalash uchun qo'llanadigan ma'lum belgilar sistemasidir. Til tovushlarini aniq ifodalash uchun xizmat qiladigan yozuv transkripsiya (lotincha transcritio—qayta yozish) deb ataladi.

Transkripsiya uchun u yoki bu xalq iste'molidagi (lotin, rus, o'zbek alfaviti kabi) an'anaviy alfavitdan o'rni bilan ma'lum bir o'zgarishlar kiritish orqali foydalaniladi. Shuning uchun ham transkripsiyada belgilar soni o'ziga asos bo'lgan alfavitdagi harflar sonidan ko'p bo'ladi.

Transkripsiya tamoyillari o'ziga xos xususiyatlari bilan orfografiya va uning tamoyillaridan (fonetik, morfologik, tarixiy-ananaviy kabi) farq qiladi. Transkripsiyaning asosiy tamoyiliga ko'ra so'zlar qanday eshitilsa, shunday yozib olinadi. Orfografiyada, odatda, bir tovush bir harf bilan ifodalansa ham, ba'zan bir tovush ikki harf (belgi) bilan yoki, aksincha, ikki tovush bir harf bilan berilishi mumkin. Transkripsiyada esa, hamma vaqt bir tovush bir harf (belgi) bilan beriladi.

Transkripsiyani transliteratsiyadan farqlash zarur.

Biror tilning yozma yodgorliklarini yoki ma'lum bir matnning nashr etishda shu yodgorliklarning yozuv sistemasini boshqa til yoki yodgorlik bosilayotgan xalqning mavjud yozuv sistemasini orqali ifodalash transliteratsiya deb ataladi. Demak, transliteratsiya —biror yozuv harflarini boshqa bir yozuv harflari bilan almashtirib ifodalash usulidir. Transliteratsiya bir tildagi bir yozuv tizimida yozilgan matnlarni ikkinchi yozuv tizimiga o'g'irishga tushuniladi. Masalan, arab yozuidagi matnlarni kirilga, kirildan lotin yozuvi asosidagi yangi yozuvga ko'chirish transliteratsiyadir.

Transkripsiyaning fonetik va fonematik turlari ham bor. Fonematik transkripsiya tildagi fonemalarning talaffuz normalarini belgilaydi hamda yuqorida ta'kidlanganidek, bunday transkripsiya xorijiy tillarni va til tarixini o'rganishda qo'llaniladi. Fonetik transkripsiya esa nutqdagi fonemaning variatsiyasi bo'lgan konkret nutq tovushlarini va ba'zi ishoralarni belgilashda qo'llaniladi. Bu transkripsiyadan shevalarni o'rganishda foydalaniladi.

Mohiyat jihatidan eng aniq transkripsiya fonetik transkripsiyadir. Bu transkripsiya umumiy va xususiy fonetika, shu qatori eksperimental fonetika yutuqlariga asoslanadi. Tillardagi nutq tovushlarini fonetik transkripsiya uchun tanlangan alfavit orqali ifoda qilib bo'lmasa, boshqa tillar alfavitidan harflar olinadi yoki harflar yoniga, ustiga, ostiga, ichiga diakritik belgilar orttiriladi. Fonetik transkripsiyaning vazifasi tilda mavjud bo'lgan hamma tovushlarni yozuvda aks ettirishdir.

Translyatsiya tushunchasi ham bor. U bir yozuvdagi matnning ikkinchi yozuvga kompyuter dasturi vositasida o'tkazilishini bildiradi.

Albatta, har bir tilda joriy yozuvda bo'lgan harflar transkripsiya tizimini amalga oshirish uchun yetarli bo'lmaydi. Shu jumladan, joriy o'zbek alifbosidagi harflar ham o'zbek shevalarini yozib olishda

uning turli fonetik jarayonlarini ko'rsatish uchun kifoya bo'lmaydi. Shu tufayli ham mavjud harflarga qo'shimcha belgilar qo'yiladi, ba'zan esa boshqa yozuv tizimidan harf qabul qilinadi va h. Demak, sheva materiallarini yozib olish chog'ida har bir dialektolog ijodiy yondoshish imkoniyatiga ega bo'ladi. Hozigacha olib borilgan dialektologik tadqiqotlarda shevalar quyidagi, ya'ni rus grafikasi asosidagi transkripsiya amalga oshirilgan.

Unli tovushlar barcha tillarda ham ko'p qirrali bo'lib, u o'zbek shevalarida ayniqsa fiziologik jihatdan rang-barangdir. Unlilarni ifodalashda o'zbek dialektologiyasida quyidagi belgilardan foydalaniladi:

a(a) - umumturkiy, orqa qator, quyi-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi. Singarmonizmni saqlagan o'zbek shevalarida qo'llanadi. "dj" lovchi shevalarda: *ana, ata, bala*.

ə(ə) - aksariyat turkiy tillarda qo'llanadi va old qator, quyi-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi: *akə, ənə. üəshə*. Bu unli barcha o'zbek shevalarida qo'llanadi.

ɔ(ɔ) - orqa qator, quyi-keng, qisman lablangan unlini ifoda qiladi. Shahar va shahar tipidagi shevalarda keng qo'llanadi: *ɔ, ɔsh, ɔkl*.

e(e) - old qator, o'rta-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi, barcha o'zbek shevalarida qo'llanadi: *el, bel, yel, kel*.

u(u) - old qator, yuqori-tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi, cho'ziqroq talaffuz qilinadi. Barcha o'zbek shevalarida mavjud: *ush, tul* (Buxoro). *bul* (Farg'ona)

ɤ(ɤ) - orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi, cho'ziqroq talaffuz qilinadi: *qɤz, qɤrɤq*. Bu unli singarmonizmli o'zbek shevalarida talaffuzda bor.

ɔ̄(ɔ̄) - indifferent, shahar shevalarida tarixan *u* va *ɤ* unllilarining birlashishi (konvergentsiyasi) natijasida hosil bo'lgan tovushni ifoda qiladi, singarmonizmli shevalarda *u* unlisining nisbatan qisqa talaffuz qilinadigan tovushni bildiradi, old qator, yuqori-tor, lablanmagan. Shahar shevalarida: *bɔ̄rdɔ̄, kɔ̄rgɔ̄n*; singarmonizmli shevalarda: *keldɔ̄, yettɔ̄ bɔ̄r*.

(b) - *ɤ* unlisining qisqa talaffuz qilinadigan varianti, orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi, faqat singarmonizmli shevalarda qo'llanadi: *keldɔ̄*.

ɤ(ɤ) - orqa qator, yuqori-tor, lablangan unlini ifoda qiladi, barcha o'zbek shevalarida qo'llanadi: *by, yl, yn*.

ɤ(ɤ) - old qator, yuqori-tor, lablangan unlini ifoda qiladi, singarmonizmli shevalarda va singarmonizmni yo'qotgan Buxoro, Navoiy, Samarqand shahar shevalarida qo'llanadi: *kyl, bygyn, tyn*.

o(o) - orqa qator, o'rta-keng, lablangan unlini ifoda qiladi. Barcha o'zbek shevalarida talaffuzda bor: *ot* (adabiy orf. o't), *qol* (adabiy orf. qo'l), *oq* (adabiy orf. o'q), *toq* (adabiy orf. to'q).

е(ə) - old qator, o'rtta-keng, lablangan unlini ifoda qiladi: *bəl* (moq), *kəl*, *hənər* (hunar), *beldə* (adabiy orf.bo'ldi). Singarmonizimli o'zbek shevalarida va Buxoro, Navoiy, Samarqand shahar shevalarida qo'llanadi.

е(ε) - tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, Xorazm, Iqon, Qarnoq, Namangan shevalarida uchraydi. U ə va e unllariga ancha yaqin turadigan unlini ifoda qiladi, old qator, o'rtta-keng, lablanmagan: *ke(l)* - Iqon. *ge(l)*- Xorazm. Bu ma'lumot ko'rsatilgan shevalarda o'z kuchini yo'qotmoqda, faqat Namangan shevalarida saqlanib qolmoqda: *neme(nima)*. *qeneqe(qanaqa)*, *Helməχən ettəman kemedə* (Halimaxon erta bilan kelmadi).

Undosh tovushlarni ifodalashda fanda rus grafikasi asosidagi undoshlarni ifodalovchi harflardan foydalanilgan. Ular, deyarli, o'zgarishsiz transkripsiya uchun qabul qilingan. Shunga qaramasdan, ayrim undoshlarni farqlash va o'ziga xosligini belgilashda transkripsion belgilar qo'llaniladi. Ular quyidagilarda ko'rinadi:

й – lotin alifbosidagi y undoshi o'rnida qo'llanadi: *syūynch*, *kūyynchək*

дж (dj) – qorishiq portlovchi tovushni ifodalaydi.

н - sonor, burun tovushini bildiradi, adabiy orfografiyasi - ng.

в - lab-tish tovushini ifoda qiladi.

w - lab-lab tovushini ifodalaydi *cyw*, *qywmaq* kabi so'zlarda qo'llanadi.

ф - lab-tish tovushi uchun qo'llanadi va asosan o'zlashgan so'zlarda uchraydi.

f - lab-lab tovushini ifoda qiladi, aksariyat o'rinlarda turkiy taqlidiy so'zlarda qo'llanadi.

Undoshlar transkripsiyasidagi bu belgilar juda ham qat'iy emas.

Bundan buyon dialektologik tadqiqot bilan shug'ullanuvchilar lotin alifbosi asosidagi quyidagi transkripsiya tizimidan foydalanishi mumkin:

a – orqa qator, quyi-keng, lablanmagan unli.

ə – old qator, quyi-keng, lablanmagan. .

ɔ – orqa qator, quyi-keng, qisman lablangan.

e – old qator, o'rtta-keng, lablangan.

i – old qator, yuqori-tor, lablanmagan.

ī – orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan.

i va ī unllari o'zbek shevalarida qisqa tovushni ifodalash uchun (*til*, *qil*), shahar shevalarida indifferent tovush uchun qo'llanadi.



u – orqa qator, yuqori-tor, lablangan.

u – old qator, yuqori-tor, lablangan.

o – orqa qator, oʻrta-keng, lablangan.

u – old qator, oʻrta-keng, lablangan.

e – old qator, oʻrta-keng, lablanmagan.

Choʻziq unlilar uchun ikki nuqtani qoʻllash mumkin.

Undoshlarni transkripsiya qilishda quyidagi harflardan foydalanish maqsadga muvofiq: *b, d, u* (amaldagi *ch* oʻrnida), *g, z* (amaldagi *gʻ* oʻrnida), *h, j* (amaldagi *y* oʻrnida), *k, l, m, n, z* (amaldagi *ng* oʻrnida), *p, q, r, s, sh* (amaldagi *sh* oʻrnida), *t, v, x, h* (amaldagi *j* oʻrnida).

Diakritik belgilar.

: (ikki nuqta) - tovushning choʻziqligini bildiradi.

´ (akut) - belgining oʻng tomoniga qoʻyilsa, palatalizatsiyani, chap tomoniga qoʻyilsa velyarizatsiyani bildiradi.

> va < - bir tovushning ikkinchisiga oʻtishini koʻrsatadi.

|| - ikki tovush yoki soʻzning parallel qoʻllanishiga ishora qiladi.

( ) - qavs ichidagi harf baʼzan nutqda talaffuz qilinmasligini bildiradi.

[ ] - katta qavs matndagi boʻgʻin, soʻz, transkripsiya qilingan soʻzlarni ajratib koʻrsatishga xizmat qiladi yoki respondentdan yozib olingan matndagi noaniqliklarning dialektolog tomonidan tiklanganligini bildiradi, masalan: [Түлкы] "нѳмѳгѳ ромѳнѳн ѳлдѳнѳз" ...

Matn transkripsiyasidan namunalar

1. Qarluq-chigil-uygʻur lahjasi shevalaridan namuna.

*Anʼanadagi transkripsiya:* ...Пѳшшѳнѳ бу гѳгѳ ел-йуртѳ дѳжѳ қѳйнѳп қойѳпѳтѳ.Пѳшшѳдѳн бѳзѳр бопѳт хѳлѳйѳѳ. Бѳр кѳммѳгʻѳл шѳйѳр бѳрѳкѳн. У пѳшшѳнѳ ѳлдѳгѳ бѳрѳпѳтѳ. Пѳшшѳ ундѳн, ѳ ѳдѳй, нѳгѳ келдѳн, дѳп сѳрѳпѳтѳ. Кѳммѳгʻѳл шѳйѳр ѳдѳмлѳ тѳртѳвѳткѳн қѳйѳнчѳлѳйлѳ:нѳ, тѳммѳ-тѳм олу:(в)нѳ котѳрѳп мѳзѳргѳ ѳбрѳш ѳзѳблѳрѳнѳ шѳгʻѳр қѳп пѳшшѳгѳ оқѳверѳпѳтѳ-дѳ, сѳнгѳ мунѳ нѳме пѳйдѳсѳ вѳ, дѳпѳтѳ.

*Yangi oʻzbek transkripsiyasida:* ...Pѳльѳднѳ бу гѳпѳ ел-јуртѳ ѳд қѳјнѳр қѳјпѳтѳ. Pѳльѳддѳн бѳзѳр бопѳт хѳлѳјѳ. Bir кѳммѳгʻдѳ лѳјјѳр бѳрѳкѳн. U рѳльѳднѳ ѳлдѳгѳ бѳрѳпѳтѳ. Pѳльѳд undѳн, ѳ ѳдѳј, нѳгѳд келдѳ, дѳп сѳрѳпѳтѳ. Кѳммѳгʻдѳ лѳјјѳр ѳдѳмѳд тѳртѳвѳткѳн қѳјјнѳлѳјд:нѳ тѳммѳ-тѳм олу(в)нѳ котѳрѳп мѳзѳргѳ ѳбѳрѳл дѳзѳбѳдрнѳ ѳјрѳр қѳр рѳльѳгѳд оқѳверѳпѳтѳ-дѳ, сѳнгѳд мунѳ нѳме рѳјдѳсѳ вѳ, дѳпѳтѳ.

2. Qipchoq lahjasi shevalaridan namuna.

*An'anadagi transkripsiyada:* ...Qz ulg'ayp °on alt djasqda djetypъ. Djetypъ °orman tьдэн кэттэкэн qorq'an qurp qзд нькэлэп апт. Qz шундайам чьрэйль бопт-qu, °онң чач эрдэн пайда бог'андай. Бьр кунъ qз анһарг'а башн джувпт. °Онң бьр дана чач °үзүльп аг'п кетьпъ...

*Yangi o'zbek transkripsiyasida:* ...Qiz ulgajir °on һалға һетipti. Figit °orman iuidn қдттқдп qorran qurir qizdi nıklдр apti. Qiz лундајам иргдји bopti-qu, °oniz иаиi zдрдп рajда borandaj. Bir kni qiz anһarra баълиni һu(v)ipti. °Oniz бьр дана иаиi °zlip arip ketipti...

### 3. O'g'uz lahjasi shevalaridan namuna.

*An'anadagi transkripsiyada:* ...Бьр варэкэн, бьр йорэкэн, qadi:m заманда бьр па:шша бог'ан экэн. Шу па:шшан э:шъкьнь элдъндэ бьр да:рах ва: экэн. Бу да:рахн бьр йа:рпаг' а:лтннан, бьр йа:рпаг' ку:муштэн экэн. Гү:ллэдэ бьр гү:н һэр гү:нь бьр йа:рпақ йоq °olад эмъш. Соң па:шша са:рай а:дамнарн са:qчлq этмэкэ qойпт.

*Yangi o'zbek transkripsiyasida:* ...Bir varqдп, bir joqqдп, qadi:m zamanda bir pa:льа boran dқп. Ёu pa:льанi d:ьikini d:ldindд bir da:rax va: dқп. Bu da:рахni bir ja:рpaг' a:ltinnan, bir ja:рpaг' k:мьтдп dқп. G:ldдд bir g:n dr g:ni bir ja:рpaқ йоq °oladi dмиль. Soz pa:льа sa:raj a:damnarini sa:qiiliq d:tmдқд qoјipti.

Mavzuga oid savollar :

1. Transkripsiya deb nimaga ataladi?

2. Transliteratsiya deb nimaga ataladi?

3. Old qator unilarni ifodalashda qaysi belgilar qo'llanadi?

4. Orqa qator unilarni ifodalashda qaysi belgilardan foydalaniladi?

5. Undoshlarni farqlashda qaysi harflar olinadi?

6. Diakritik belgilar deb nimaga aytiladi?

### GLOSSARIY

Velyarizatsiya - undoshlarning qattiqlashishi.

Diakritik belgi -harflarga qo'shimcha ravishda qo'yiladigan belgilar, ishoralar.

Dialektolog - shevashunos, shevani o'rganuvchi olim.

Indifferent - oraliq tovush.

Palatalizatsiya - undoshlarning yumshoqlashishi.

Transkripsiya - yozuvning maxsus turi.

Transliteratsiya - matnни bir yozuv tizimidan ikkinchisiga ko'chirish, masalan, kirildan lotinga.

Transkripsion belgi - har bir nutq tovushi uchun qo'llaniladigan harf.

Fonetik transkripsiya - konkret nutq tovushlarini ifodalaydigan ishoralar tizimi.

Fonematik transkripsiya - tildagi fonemalar talaffuzini belgilab beruvchi yozuv tizimi.

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: NAVRO'Z, 2016.
2. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996 .
3. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: TDP, 2011, 2013.
4. To'ychiyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2004. – B. 112.1.
5. Enazarov T., Karimjonova V. A., Ernazarova M.S., Mahmadiyev Sh. S., Rixsiyeva K.G'. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.
6. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent. Fan, 1997.
7. Fayzullayev B., To'ychiyev A., Haydarov Sh., Xidirov O. O'zbek shevashunosligidan o'quv amaliyoti. (o'quv-uslubiy qo'llanma) Jizzax. 2010.

4) Internet saytlari

1.[www.turk.dili.google.com.tr](http://www.turk.dili.google.com.tr)

2.[http://www.ut.uz/eng/today/europe\\_recognizes\\_her\\_discovery.mgr](http://www.ut.uz/eng/today/europe_recognizes_her_discovery.mgr)

3. <http://www.schneid9.de/sprache/linguistik/ling11.pdf>

4.<http://www.uni-leipzig.de/~fsgcr/materialien/Texte/Lexikologie.pdf>

6.[www.altinmiras.com](http://www.altinmiras.com)

7.[www.thinsan.com](http://www.thinsan.com)

Test savollari

1. Transkripsiyaga berilgan to'g'ri ta'rifni aniqlang.

A) Bir tildagi bir yozuv tizimida yozilgan matnlarni ikkinchi yozuv tizimiga ag'darish;

B) tildagi fonemalarning talaffuz normalarini belgilaydi

C) Jonli so'zlashuv tilidagi (shevalardagi) konkret nutq tovushlarini (fonemaning variyatsiyalari, variantlari) yozuvda ifodalash uchun qo'llaniladigan harflar, belgilar sistemasi

D) Bir yozuvdagi matni ikkinchi yozuvga kompyuter vositasida o'kazilishi

2. Transkripsiya qo'llanilish doirasiga ko'ra...

A)Ikki xil bo'ladi:xalqaro, milliy; B)Ikki xil bo'ladi:fonetik va fonematik

C)uch xil bo'ladi:transkripsiya,translitiratsiya,translyatsiya

D)Ikki xil:rus alifbosi asosida, lotin alifbosi asosida

3.O'zbek shevalarini yozib olishda qo'llanadigan transkripsion tizim kim tomonidan ishlab chiqilgan?

A)Prof.Polivanov. B)Prof.Reshetov. C)Shoabdurahmonov. D)K.Yudaxin

4.Ə(ə) transkripsion belgini to'g'ri tasniflang.

A)Old qator, o'rta keng,lablanmagan;B)Orqa qator,o'rta keng,lablangan

C)Old qator,yuqori tor, lablangan; D)Old qator,o'rta keng,lablangan

5.Matndagi bo'g'in,so'z,transkripsiya qilingan so'zlarni ajratib ko'rsatishga xizmat qiladigan diakretik belgi qaysi?

A)'(akut) belgisi; B) ( ) - kichik qavs; C) [ ] - katta qavs; D) > va < diakretik belgisi

6.Velyarizatsiya nima?

A)oralik tovush; B)undoshlarning qattiqlashishi; C)unlilarning qattiqlashishi

D)undoshlar uyg'unligi

7.Ə(ə) qaysi shevalarda uchraydi?

A)Shahar shevalarida; B)Xorazm,Iqon, Qaranoq,Namangan shevalarida uchraydi

C)Barcha o'zbek shevalarida qo'llanadi; D)Singarmonizmli shevalarda

8)Indifferent tovushni ko'rsating. A)О. B) и. C) Ъ. D)а.

9.Ҳ(ҳ)undoshini tasniflang.

A)sonor,burun tovushini bildiradi,adabiy orfografiyasi –ng.

B)til orqa,jarangli, portlvchi; C)Faqat qipchoq shevalarida uchraydi.

D)nazal tovushi

10. Tildagi fonemalar talaffuzini belgilab beruvchi yozuv tizimi nima deyiladi?

A)Fonematik transkripsiya. B)Fonetik transkripsiya. C)Transkripsiya

D)Orfoepik transkripsiya

11. ...- lab-lab tovushini ifodalaydi aksariyat o'rinlarda turkiy taqlidiy so'zlarda qo'llanadi. A) w; B) ф; C) f; D) в.

12 *o*(*o*) - old qator, o'rt-a-keng, lablangan unlini ifoda qiladi: *b<sub>o</sub>l* (moq), *k<sub>o</sub>l*, *h<sub>o</sub>n<sub>o</sub>r* (hunar), *b<sub>o</sub>ld<sub>o</sub>* qaysi shevalarda qo'llanadi?

A) Singarmonizmni yo'qotgan shevalarda. B) Singarmonizmli o'zbek shevalarida va Buxoro, Navoiy, Samarqand shahar shevalarida. C) Barcha o'zbek shevalarida mavjud. D) Shimoliy o'zbek shevalarida (Turkiston, Chimkent, Sayram).

13. Singarmonizmli shevalarda nechta unli mavjud?

A) 12 tagacha; B) 6 ta; C) 9-11 ta; D) 18 tagacha.

14. Ё, е, ә, ɔ, o, y ushbu unililar qaysi shevada mavjud.?

A) Toshkent shevalarida; B) Samarqand shevasida

C) Shimoliy o'zbek shevalarida (Turkiston, Chimkent, Sayram)

D) Qipchoq va o'g'uz lahjasidagi shevalarda

15. . Bir kni qiz anharra balyini hu(v)ipti. Oniz byr dana inaii \*zlip arip ketipti... ushbu matn qanday transkripsiyada yozilgan.

A) Yangi o'zbek transkripsiyasida; B) An'anadagi transkripsiyada;

C) Xalqaro transkripsiya; D) Milliy transkripsiya

16. Соң па:шша са:рай а:дамнарн са:қчлқ ә:тмәкә қойпт. Ushbu matnda qanday diakretik belgi qo'llangan?

A) tovushning cho'ziqligini bildiradi.

B) matndagi bo'g'in, so'z, transkripsiya qilingan so'zlarni ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi yoki respondentdan yozib olingan matndagi noaniqliklarning dialektolog tomonidan tiklanganligini bildiradi.

C) ikki tovush yoki so'zning parallel qo'llanishiga ishora qiladi.

D) bir tovushning ikkinchisiga o'tishini ko'rsatadi.

17. -Худайс мэлъңъз гъмуш восун, йолъммы йәқън || йәқън қълдъз. Вэй қошнь шшльгәньмәннән һл сорәшәм есьмәнән чьп қптт711ъ, ендъ сорәшәйлүк: түзүмсьзә. Түнүкүн тәвъңъз йог' деп ышътъп хьлә йьрәгьм ачъшмәсә. Ushbu matnda nechta diakritik belgi qo'llangan?

A) 5 ta; B) 8 ta; C) 3 ta; D) 2 ta.

18. An'anadagi transkripsiyada yozilgan matnni aniqlang.

A) Соң па:шша са:рай а:дамнарн са:қчлқ ә:тмәкә қойпт.

B) Bu da:raxnī bir ja:rpārī a:lūnnan, bir ja:rpārī k:mlytdn dkdn.

C) Qiz ulrajir 'on hal'ga hetipti. D) Kdmmddrdl'lyzjr eddmld t'rtvt'kdn qjiniilijd:ni  
t'mmd-t'm

19.  $\partial$  ushbu transkripsion harfni tasniflang.

A) old qator, o'rtta-keng, lablanmagan. B) old qator, o'rtta-keng, lablangan.

C) old qator, quyi-keng, lablanmagan. D) orqa qator, quyi-keng, lablanmagan unli

20.  $\epsilon(\epsilon)$  ushbu transkripsion harf qaysi shevalarida uchraydi?

A) Buxoro, Navoiy, Samarqand shahar shevalarida qo'llanadi.

B) Xorazm, Iqon, Qaranoq, Namangan shevalarida uchraydi.

C) Barcha o'zbek shevalarida mavjud. D) Shahar shevalarida

Shevashunoslikda dialektal tasnif masalasi

Reja:

1.Prof. I.I. Zarubin tasnifi. 2.Prof. K.K. Yudaxin tasnifi.

3.Prof. Ye.D. Polivanov tasnifi.

Tayanch so'z va tushunchalar: Tasnif, илмий тасниф. Tavsif. Fonetik xususiyat. Morfologik xususiyat. Metisatsiya. Gibrizatsiya. Maksimal eronlashgan shevalar. Eron elementlari mavjud shevalar. Eronlashmagan shevalar. Uyg'urlashgan shevalar. Shimoliy o'zbek shahar shevalari. Shimoliy o'zbek qishloq shevalari. Qipchoq lahjasi. O'g'uz lahjasi. Qorluq-chigil-uyg'ur lahjasi.  $\omega$  – lovchi shevalar.  $\alpha$  – lovchi shevalar.  $\gamma$  – lovchi shevalar. dj – lovchi shevalar. O'rtta o'zbek dialekti. Shayboniy - o'zbek dialekti. Janubiy Xorazm dialekti. Alohida guruh shevalari. Umlautli shevalar. Farg'ona guruhi. Toshkent guruhi. Qarshi guruhi Shimoliy o'zbek shevalari guruhi. Namangan dialekti. Andijon-Shahrixon dialekti. O'sh-O'zgan dialekti. Marg'ilon-Qo'qon dialekti. Toshkent dialekti. Jizzax dialekti. Qarshi dialekti. Samarqand-Buxoro dialekti. Iqon-Qorabuloq dialekti. Turkiston-Chimkent dialekti.

O'zbek shevalari va ularning o'ziga xos ayrim xususiyatlari, fonetik, morfologik xususiyatlarga ko'ra bir-birlari bilan yaqinlashadigan va ayni vaqtda bir-birlaridan farq qiladigan dialektal gruppalar haqida tasavvurga ega bo'lish uchun o'zbek xalq shevalarining klassifikatsiyasini, ya'ni tasnifini bilishimiz kerak. Shevalarimiz o'tgan asrning 20-yillaridan boshlab rus turkologlari va o'zbek tilshunoslari tomonidan klassifikatsiya qilingan. Bugungi kungacha o'zbek xalq shevalari ikki xil nuqtai nazardan tasnif qilingan: 1) mamlakatimiz hududida shevalarimizning joylashishi jihatdan tasnifi; 2) mamlakatimizning ma'lum bir vohasi yoki viloyati shevasining tasnifi.

Professor I.I.Zarubin, prof. K.K.Yudaxin, prof. E.D.Polivanov, prof. G'ozzi Olim, prof. A.K.Borovkov, prof. V.V.Reshetovlar tomonidan shevalarimizni tasnif qilish bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlarni shevalarimizning mamlakatimiz hududida joylashishi jihatdan tasnifiga misoldir.

Prof. I. I. Zarubin o'zbek shevalarini to'rtta shevalar guruhiga bo'lgan:

1. Xiva guruhi. 2. Farg'ona guruhi. 3. Toshkent guruhi. 4. Samarqand-Buxoro guruhi.

Prof. I. I. Zarubinning bu tasnifida qipchoq (-j lovchi) va shimoliy o'zbek shevalari hisobga olinmagan.

Prof. K.K.Yudaxin o'z tasnifida o'zbek shevalari tasnifining ikki varianti tavsiya qilinadi: 1-variantda o'zbek shevalarining tojik tili bilan munosabati va singormonizmni saqlash darajasiga qarab to'rt guruhga ajratgan. Keyinchalik (2-variantda) u shevalarning o'ziga xos xususiyatlari bilan yaxshi tanishib chiqadi va oldingi tasnifiga aniqlik kiritib, o'zbek shevalarini beshta guruhga bo'ladi: 1. Toshkent guruhi. 2. Farg'ona guruhi. 3. Qipchoq (-j) guruhi. 4. Xiva (Xiva - o'g'uz) guruhi. 5. Shimoliy o'zbek shevalari guruhi.

Prof. Ye.D.Polivanov tasnifida o'zbek tili sheva va dialektlari orasidagi eng mayda farqlarni ham ko'rsatuvchi klassifikatsiyani beradi. U tildagi ikki holatni ko'zda tutadi: 1. Metisatsiya (qardosh tillar chatishuvi) – turkiy tillarning o'zaro munosabati.

2. Gibridizatsiya (turli sistemadagi qardosh bo'lmagan tillarning chatishuvi) – tojik tilining o'zbek shevalariga ta'siri.

Olim o'zbek shevalarida tojik tilining ta'sirini hisobga olib, o'zbek shevalarini: eronlashmagan va eronlashgan shevalar, deb bo'ladi. Toshkent, Qo'qon-Marg'ilon, Andijon-Shahrixon tipidagi shevalarda eronlashish elementi mavjudligini qayd qilgan. Buxoro, Samarqand, Xo'jand, O'ratepa tipidagi bir qancha shevalarni maksimal darajada eronlashgan, ya'ni tojik tili vokalizmini o'zida to'la aks ettirgan shevalar deb hisoblaydi. Eronlashmagan shevalarga Farg'onaning singarmonizmli qishloq shevalarini (Saroy, Andijon, Yo'lguzar) va o'zbek-qipchoq (dj-lovchi) lahjasidagi shevalarni kiritadi.

Ye.D.Polivanov tasnifida shevalardagi quyidagi ikki holatning ta'sirini ko'rish mumkin. Chunki olim bu holatlarni o'z tasnifida maxsus ko'rsatgan:

1. Metisatsiya (qardosh tillarning o'zaro ta'siri).

2. Gibridizatsiya (qardosh bo'lmagan tillarning o'zaro ta'siri).

Maksimal eronlashgan shevalar: Samarqand va Buxoro shevalari.

Eron elementlari mavjud: Toshkent, Marg'ilon, Andijon shevalari.

Eronlashmagan shevalarga: Farg'onaning singarmonizmli qipchoq lahjasiga kiruvchi shevalar o'ldir.

Yuqoridagilar asosida prof. Ye.D. Polivanov o'zbek shevalarini uchta dialektga bo'lib o'rgangan:

1-dialekt: Eronlashgan shevalar: 7 ta shevalar tipiga bo'lingan:

1-tip. Samarqand-Buxoro shevalari.

2-tip. Toshkent shevalari. Bunga Toshkent shahri va viloyatidagi shevalar oiddir.

3-tip. Qo'qon-Marg'ilon shevalari.

4-tip. Andijon-Shahrixon shevalari.

5-tip. Uyg'urlashgan shevalar (Namangan, Chortoq).

6-tip. Shimoliy o'zbek shahar shevalari.

7-tip. Shimoliy o'zbek qishloq shevalari. Bulardan ko'rinib turibdiki, olim o'z tasnifida qarluq lahasiga oid shevalarni hisobga olgan.

2-dialekt. Unga o'g'uz lahasiga oid shevalar oiddir: O'g'uz lahjasi 2 ta shevalar tipiga ajratilgan.

1-tip: Janubiy Xorazm (Xiva, Urganch, Shovot, Hazoras, Xonqa, Sho'rxon).

2-tip: Shimoliy o'g'uz gruppasi shevalari: (Iqon-Qorabuloq, Forishdagi ---> Bog'dod)

3-dialekt. Bunga qipchoq lahjasi kiritilgan: Qipchoq lahjasi 5 ta shevalar tipiga bo'lingan: 1-tip: O'rta Xorazm (Gurlan, Bog'ot, Shavvoz) va shimoliy Xorazm (Qipchoq, Qo'ng'iro't) Mang'it).

2-tip: ɔ -lovchi (Qozoq-nayman, Farg'ona-qaraqalpoq) shevalari.

3-tip: Qurama shevalari: Ohangaron vodiysida joylashgan. 4-tip: Shimoliy o'zbek shevalari.

5-tip. O'rta o'zbek shevasi. Unga qirq shevasi, janubiy o'zbek shevasi, laqiy shevasi, Afg'onistondagi qipchoq o'zbek shevalari kiradi.

Demak, Ye.D.Polivanovning tasnifi (XX asrning 20-30-yillarida) boshqa tasniflarga nisbatan ancha mukammal ko'rinishga egaligi bilan ajralib turadi

Prof. G'ozim Olim o'zi to'plagan juda boy faktik materialga suyanganda 1936 yili Ye. D. Polivanov tasnifi (klassifikatsiyasi)dan so'ng o'zbek shevalarini tasnif qildi. Ye.D.Polivanov ma'noga ta'sir qilmaydigan fonetik hodisalarni, tashqi ta'sirni o'z ishiga asos qilib olganini tanqid qilib, juft unilarning ma'no farqlash xususiyatiga, lahja, sheva vakillari orasida tushunilmaydigan leksik, morfologik, fonetik xususiyatlarga ko'ra klassifikatsiya qilishni ilgari surdi. G'ozim Olim o'zbek shevalarni uch lahjaga ajratdi:

1. O'zbek-qipchoq lahjasi, unga to'rt sheva kiradi: Qirq shevasi, Jaloyir-laqay shevasi, Qipchoq shevasi, Gurlan shevasi. Bu lahjaga Ohangaron vodiysi, Mirzacho'l, Samarqand, Zarafshon, Buxoro atroflarida, Qashqadaryo, Surxondaryoda yashovchi o'zbeklar kiradi. Bu lahja



vakillari Xorazmda, Andijonda, Namanganda, Qo'qonda, Qipchoqda, Chimboyda, Qung'iro't rayonlarida hamda Tojikistonda va Afg'onistonning shimolida yashovchi o'zbeklar ham shu lahjaga kiradi. Bu lahjaning fonetik va morfologik xususiyatlari quyidagicha:

y > dj: yer - djer; yo'l - djo'l

q > g': aq - ag'ar; aq - a-; qulaq - qulag'

p > b: top > tɒbi, qap - qabi

g, g' > y: tegdi - tiydi, yegdi - iydi; yig'n - djyn

Ko'plik qo'shimchasi: -lar, -lar, -nar, -tar, -tər, -dar, -dar.

Hozirgi zamon davom fe'li: -yatyr, -djatyr.

Bu lahjaga kiruvchi to'rtta shevaning fonetik-morfologik xususiyati:

1. Qirq shevasida qisqa "i" o'rnida iy (i:) uchraydi: i:t (it)

Jo'nalish kelishidagi kishilik olmoshlari: mag'an, sag'an, ugan.

2. Jaloyir - laqay shevasida so'zning ikkinchi bo'g'inida ham "ye" tovushi kelishi mumkin: kechen, bergen.

3. Qipchoq shevasida lab garmoniyasi uchinchi bo'g'inda ham saqlanadi: Uyuga.

4. Gurlan shevasiga o'zbek-qipchoq lahjasining hamma xususiyatlarini saqlagan, ammo ayrim so'zlarda so'z boshida "dj"ni yo'qotayotgan o'zbek shevalari kiradi. Bu shevada bala so'zining ko'pligi bag'alar (bachalar) bo'ladi.

II. Turk-barlos lahjasiga Toshkent, Qo'qon, Namangan, Andijon, Marg'ilon shaharlari va ularning atrofida yashovchi o'zbeklar kiritiladi. Boshqa joylarda ham bu lahjada gapiruvchilar uchraydi. Bu lahjada jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qattiq o'zak unililar va jarangsiz undosh bilan tugasa -qa, jarangli bilan tugasa -g'a, yumshoq o'zak jarangsiz undosh bilan tugasa -ga tarzida qo'shiladi. Tushum kelishigi qo'shimchasi: -n', -ni.

Prof. G'ozii Olim bu lahjani to'rt shevaga bo'ladi:

1. Sayram - Chimkent shevasi.

2. Toshkent-Xos shevasida tushum kelishigi - ti shaklida bo'ladi.

Istak fe'li yasovchi -luk: keliyluk. Hozirgi zamon davom fe'li: -vɔt ke(l)ɔvɔtt, ɔvɔtt, kem'yɔtt.

3. Andijon shevasida tushum kelishigi -n, -ni, -t, -ti, -d, -di tarzida bo'ladi. Hozirgi zamon davom fe'li: -yɔp, yoyɔp bilan yasaladi: kelɔyɔpman.

4. Namangan shevasida hozirgi zamon davom fe'li qo'shimchasi -ut kelutt'man, kelmutt'man.

III. Xiva-Urganch lahjasiga Xiva, Xonqa, Kat; Toshovuz, Eski-Yangi Urganch, To'rtko'lda yashovchi o'zbeklar kiradi. Jo'nalish kelishik qo'shimchasi *-g'a,-ga,-a,-ə* kabi ishlatiladi. Kelasi zamon fe'li yasovchi affiksi *-djaq, -djak*. Istak fe'li yasovchi: *-I,-li. (kelali, alal)*.

Xiva-Urganch lahjasini prof. G'ozilim ikki guruhga bo'ladi:

1. Xiva shevasi. Bu shevada singarmanizmning saqlanishi, cho'ziq unililarga (*a:i*) ega bo'lishi, q o'rnida k undoshining kelishi muhim ahamiyatga egadir.

2. Qorluq shevasi (xususiyatlari berilmagan...)

Bu klassifikatsiyada o'zbek-qipchoq lahjasidan boshqa shevalarning lingvistik xususiyatlari farqlab berilmaganligi uchun tanqid qilingan.

Prof. A.K.Borovkov tasnifi. U to'plagan materiallari asosida o'zbek shevalari klassifikatsiyasiga qaratadi:

1. *O (o)-lovchi* shevalar.

2. *A-lovchi* shevalar.

*O(o)-lovchi* gruppaga shahar shevalari va ular atrofidagi tumanlardagi shevalarini kiritadi.

*A-lovchi* gruppaga shevalarga esa singarmonizmni saqlagan shevalarni kiritib, uni ikkiga ajratadi:

1. *y-lovchi* shevalar.

2. *dj-lovchi* shevalar.

*Y-lovchi* gruppaga Janubiy Qozog'istondagi o'zbek shevalari va J.Xorazm shevalari kiradi, *dj-lovchi* gruppaga esa Shimoliy Xorazm, Surxondaryo, Samarqand oblastidagi qishloq shevalari kiritildi.

Keyinchalik prof. A.K.Borovkov o'zbek shevalari tasnifining boshqa variantini taqdim etdi. O'zbek dialekt va shevalari orasidagi tarixiy-lingvistik xususiyatlarini hisobga olib to'rtta dialektga bo'ladi:

1. O'rta o'zbek dialekti.

2. Shayboniy-o'zbek yoki *dj-lovchi* dialekt.

3. Janubiy-Xorazm dialekti.

4. Alohida gruppaga shevalari.

1. O'rta o'zbek dialekti ikki gruppaga ajratilgan:

a) O'rta o'zbek shevasi (Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg'ona).

6 yoki 7 unli fonema bor, so'zning 1-2- bo'g'indan o fonemasi bor.

b) Shimoliy o'zbek shevasi (Chimkent, Sayram, Jambul, Marki, Janubiy Qozig'iston)

2. Shayboniy o'zbek yoki j-lovchi dialekti. Bu dialektga Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro, Surxondaryo, Ohangaron vodiysi, Farg'ona. Unlilar 8 ta, o'zlashayotgan 3 fonemasi bilan 9 tadir.

*djol < yol (yo'l)*

*djɔmɔn < yomɔn (yomon)*

3. Janubiy Xorazm dialekti (Xonqa, Hazorasp, Shovot, Yangiariq, G'azovot, Sho'rxon). Unlilar 9 ta. Hozirgi zamon davom fe'li: *-yator. Galyator.*

Kelasi zamon fe'li: *-djəq, -djək* qo'shimchalari bilan yasaladi. Boradjak

4. Alohida grupp shevalar (kelib chiqishi turlicha bo'lgan ayrim shevalari). Ular ikkiga bo'linadi:

1. Qorabuloq, Iqon, Mankent shevalari.

2. "Umlautli" shevalar (Namangan viloyatida uchraydi). Bunday shevalarda lablanish hodisasi aniq sezilib turadi: *ul'm, brɔrut', kelutt.*

Prof. V.V.Reshetov tasnifi. U o'zbek shevalarining tarixiy-lingvistik xususiyatlarni va ayrim dialektlarga qo'shni tillar (tojik, qozoq, qoraqalpoq, turkman) munosabatini hisobga olgan holda o'zbek shevalarining tasnifini amalga oshirgan klassifikatsiya sxemasini tuzdi.

O'zbek xalqi tarkibida tarixiy-lingvistik jihatdan bir-biridan ajraladigan, farqlanadigan uch dialekt birligi bor:

1. Qipchoq.

2. O'g'uz.

3. Qarluq-chigil-uyg'ur.

Demak, o'zbek tili uch turkiy komponentning birikishi natijasida vujudga kelgan:

1. Qorluq-chigil-uyg'ur lahjasi hozirgi qardosh uyg'ur tiliga yaqin bo'lib, tojik tili bilan yaqin etno-lingvistik munosabatda bo'ladi.

2. Qipchoq lahjasi qardosh qozoq va qoraqalpoq tillari bilan yaqin.

3. O'g'uz lahjasi qardosh turkman tili bilan yaqin.

Prof.V.V.Reshetov asosan turk tillari tasnifi uchun ham asos bo'lgan ikki lahjani (qipchoq va o'g'uz lahjasini) oladi va uchinchi lahja qilib, o'zbek xalqining shakllanish tarixida muhim rol o'ynagan qorluq, chigil va uyg'ur qabilalarining birligini ko'rsatadi: qorluq-chigil-uyg'ur dialekti. Ularni lahja atamasi bilan ataydi:

1. Qipchoq lahjasi.

## 2. O'g'uz lahjasi.

### 3. Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi.

#### O'zbek tilining qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi

Bu lahja shahar shevalarini, shahar tipidagi qishloq shevalarini o'z ichiga oladi. Mazkur guruh (Toshkent, Namangan, Andijon, Farg'ona va qator aholi punktlari) bir dialekt kompleksi tashkil qiladi. Buni shu shevalarning qator spetsifik xususiyatlari birligi ko'rsatadi:

1. Ba'zi bir undoshlarning almashinishi: *ch/t* ning almashinib kelishi: Toshk.: *tishla ch(') mle / uyg'. ch (e)shle*; Toshk.: *tusht' // chusht, uyg'::chusht'*.

2. O'zak va affikslarda so'z oxiridagi *k-q // g-g'* undoshlarining saqlanishi:

Uyg':: *tar' // tar'q, sar'g', urug', ot'k.*

So'z oxiridagi undoshning tushishi:

Toshk.: *qatt'g', taru: taro // tarə:, orta:, q'shl ɔ://q'shl ɔ:l'*

3. Turli holatda ham *q/x* undoshlarining almashinishi:

uyg':: Toshk., Namangan.: *toqta // toxta, toqsan // toxsan, baqtuk // baxtuk.*

4. *l / n* undoshlarining almashinishi:

*koynek//koylak//kolək//konglak.*

Toshk.: *koynak//koylak//koynay.*

5. To'liq progressiv assimilyasiya:

Toshkent: *tuzz' < tuzn' // tuzn'ng*

*ɔshsh' < ɔshn' // ɔshnng*

*tem'rr' < tem'rn' // tem'rn'ng*

Namang.: *qushsh' < qushn' // qushn'ng*

6. Uyg'ur tilining fonetik xususiyatlaridan biri: "umlaut" bo'lib, birinchi bo'g'ida kelgan quyi ko'tarilish *a / ə* unilalarining ikkinchi bo'g'ida kelgan yuqori ko'tarilish ' unlisi ta'sirida *e ga* o'tishidir: *at > at'*. Bu hodisa Namangan shevasida uchrasa-da, Toshkent, Marg'ilon shevalarida uchramaydi.

7. Namangan shevasi va uyg'ur tilidagi tovushlarning tushishi va tor unilarning qisqaligi kabi xususiyatlar Toshkent shevasida ham mavjud.

Toshk.: Namang.: *ədamlə keld'lə, b'zə > bza, s'lə > slə.*

8. Toshkent, Namangan, Andijon, Marg'ilon, Qo'qon shevalarining hammasida turlovchi qo'shimchalardan *-n'* affiksi ham qaratqish, ham tushum kelishigi ma'nolarini ifoda etadi: *tt'*, *sett'*; *tt' b csh'*. (*ning>ni*).

9. Bu shevalar gruppasi hozirgi zamon davom fe'lini ifodalovchi ikki morfologik belgiga ega:

1) *-vat* va uning fonetik variantlari: *-vat*, *,-ut*; Toshkent va unga yaqin qishloqlar shevasi (Parkent) *-vot*... Toshk.: *-vot*, *Uychi - vat*; Namangan *-ut*.

2) *-yep* formulasi Farg'ona vodiysidagi shahar va shu kabi shaharlarga yaqin qishloq shevalariga xos.

*q'lyepman> q'lyeppan; b'cryepman>b'cryeppan.*

Farg'ona paradigmasiga (shevadagi hozirgi zamon davom fe'lini ko'rinishi) Samarqand va unga yaqin shahar va qishloqlar shevasi ham kiradi.

Qorluq-chigil-uyg'ur lahjasiga kiruvchi dialekt va shevalarni spetsifik xususiyatlarini saqlash-saqlamaslik nuqtai nazardan bir necha gruppaga va dialektga bo'lishi mumkin. Bu lahja o'z ichida to'rt guruhga bo'linadi: 1.Farg'ona guruh shevalari. 2.Toshkent guruh shevalari. 3.Qarshi guruh shevalari. 4.Shimoliy o'zbek shevalari guruhi.

I. Farg'ona guruh shevalari.

1. Namangan dialekti. Bunga Namangan shahar va Namangan viloyati shevasi kiradi.

2. Andijon-Shahrixon dialekti. Bunga Andijon shahri, Shahrixon, Andijon viloyatidagi shevalar kiradi.

3. O'sh-O'zgan dialekti. Bunga O'sh, O'zgan, Jalolobod shevalari kiradi.

4. Marg'ilon-Qo'qon dialekti. Bunga Marg'ilon, Farg'ona shaharlari, Vodil, Qo'qon shevalari kiradi.

II. Toshkent guruh shevalari. Ushbu guruh ikki dialektgan bo'lingan:

1. Toshkent dialekti. Bunga Toshkent shahar va viloyati shevalari kiradi. J-lovchi qipchoqlar kirmaydi.

2. Jizzax dialekti. Bunga Toshkent, Samarqand, Jizzax, Qashqadaryodagi Po'lati kabi shevalar kiradi. J-lovchi shevalar kirmaydi.

III. Qarshi guruh shevalari ikkita dialektga ajratilgan:

1. Qarshi dialekti. Bunga Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog' nohiya shevalari kiradi. J-lovchi shevalardan tashqari.

2. Samarqand-Buxoro dialekti. Bunga Samarqand, Buxoro, Xo'jand, Farg'ona vodiysidagi Chust, Qashqadaryo vodiysidagi Koson shevalari unga kiradi. Bu shevalar tojik elementlarining turli darajada borligi bilan xarakterlanadi.

IV. Shimoliy o'zbek shevalari guruhi. U ikkita dialektga bo'lingan:

1. Iqon-Qorabuloq dialekti. Bunga Iqon, Qorabuloq, Mankent, Qoramurt kabi shevalar kiradi. Unga o'g'iz va qipchoq shevalari elementlari borligi bilan xarakterlidir.

2. Turkiston-Chimkent dialekti. Bunga Turkiston, Chimkent, Sayram shevalari kiradi. O'g'uz elementlarning kamayishi, qipchoq, qozoq elementlarining ko'payishi bu dialekttdagi shevalarga oiddir.

O'zbek tilining qipchoq lahjasi

Bu lahjaga xos xususiyatlar prof. ye.D.Polivanov, prof. G'ozim Olim tasniflarida atroflicha berilgan.

$g > y$ : *tegdi > tiyd'*

$g' > y$ : *yig'in > dj'y'n*

$y > dj$ : *yol > djol, yaman > djaman.*

Shaxs olmoshlarining jo'nalish kelishidagi shakli: *mag'an, sag'an, o'g'an.*

Hozirgi zamon davom fe'li *-djatir* bilan yasaladi.

Qaratqich, tushum kelishigi qo'shimchalarida *t/d/n* tovushlari almashinadi: *-ning, -ning, -ding, -ding, -ting, -ting, -ni, -ni, -di, -di, -ti, -ti.*

Bu lahja o'zining leksik xususiyatlari bilan farq qiladi.

O'zbek tilining o'g'uz lahjasi

Bu lahjaning o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

a) qipchoq shevalaridagi kabi juft unlilar mavjud;

b) qisqa va uzun unlilar farqlanadi:

$a : \bar{a}$ ,  $a : \bar{a}$

(hayvon) (ism)

v) so'z boshida *t* va *k* tovushlarining jaranglashinishi mumkin: *dil < til, gel < kel*

g) *k, g* tovushlarining yumshalishi.

d) qaratqich kelishigi affiksining *-ning, -ing* formasida ishlatiladi.

ye) *bol* fe'lidagi *b* ning tushishi *bol > ol...* (Xorazmda yashovchi aholining aksariyat ko'pchiligi o'g'uz lahjasiga kiradi).

O'zbek shevalari va ularning xususiyatlari (*y, j, o*) oldingi tasniflarda mukammal tarzda berilgan.

## VILOYATI SHEVALARINING TASNIFI

Bunday tarzda shevalarimizni tasnif qilish ham oldin amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda uchraydi. Masalan, F.Abdullaev, A.Aliev, Saidmuro Rahimov o'zbek shevalarini guruhlab o'rganishgan. F.Abdullaev Xorazm shevalarini qipchoq va o'g'uz lahjalariga bo'lgan. A.Aliev Namangan guruh o'zbek shevalarini guruhlab tadqiq etgan. Saidmuro Rahimov esa Surxondaryo o'zbek shevalarini ikkita guruhga bo'lgan:

1. *J-lovchi* shevalar (qipchoq lahjasiga xos shevalar).

2. *Y-lovchi* shevalar (qorluq lahjasiga xos shevalar). Ularda V.V.Reshetov tomonidan talqin etilgan qipchoq va qorluq lahjalariga oid xususiyatlar uchraydi.

## Mavzuga oid savollar

1. O'zbek shevalari qachondan boshlab o'rganilgan?
2. Prof. I.I. Zarubin tasnifida o'zbek shevalari necha guruhga bo'lingan, nega ?
3. Prof. K.K. Yudaxin o'zbek shevalarini necha guruhga bo'lib tadqiq etgan?
4. Prof. E.D. Polivanov tasnifining o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?
5. Prof. ye.D. Polivanov o'zbek shevalarining qancha dialektga bo'lgan?
6. Prof G'ozil Olim o'zbek shevalarini necha lahjaga bo'lib tadqiq qilgan?
7. Prof. A.K. Borovkov o'zbek shevalarini qanday xususiyatlari asosida o'rganagan?
8. Prof. A.K. Borovkovning keyingi tasnifi qanday dialektlarga bo'lingan?
9. Prof. V.V. Reshetov tasnifining o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.
10. Prof. V.V. Reshetov o'zbek shevalarini necha lahjaga bo'lgan?
11. Har bir tasnifga xos xususiyatlarni qiyoslab, eng mukammal tasnifni aniqlang.

## Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Qodirov Q.Q. O'zbek shevalarini o'rganish va tasnif qilish masalasi. Farg'ona., 1949.
2. Aliev A. Namangan guruh o'zbek shevalari. O'TA. 5. T., 1969.
3. Borovkov A.K. Voprosy klassifikatsii uzbekskix govovorov. // Izvestiya AN UzSSR. 5. T., 1953.
4. Reshetov V.V. O'zbek dialektlarinin monografik o'rganish. // O'zbek tili va adabiyoti masalalari. 1. T., 1960.
5. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. T., 1962; T., O'qituvchi, 1978.
6. Reshetov V.V. O'zbek shevalarining klassifikatsiyasi // O'TA. 1-son. T., 1966.
7. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. T., O'qituvchi, 1996. 76-78-betlar.
8. Shoimova N. Qashqadaryo o'zbek qipchoq shevalari leksikasi. Qarshi, Nasaf, 2000. 140b.

## 4) Internet saytlari

1. [www.turk.dili.google.com.tr](http://www.turk.dili.google.com.tr)

2. [http://www.ut.uz/eng/today/europe\\_recognizes\\_her\\_discovery\\_mgr](http://www.ut.uz/eng/today/europe_recognizes_her_discovery_mgr)

3. <http://www.schneid9.de/sprache/linguistik/ling11.pdf>

4. <http://www.uni-leipzig.de/~fsger/materialien/Texte/Lexikologie.pdf>

5. [www.dersimiz.com](http://www.dersimiz.com)

6. [www.altinmiras.com](http://www.altinmiras.com)

### Shevalar fonetikasi

#### Tayanch soʻz va tushunchalar

Fonetik, leksik, soʻz yasalishi, morfologik va sintaktik farqlar. Lahjalarda unililar. Unlilarning choʻziq, qisqaligi. Singarmonizm. Tanglay va lab uygʻunligi. Shevaning fonetik xususiyatlari. Fonetik ultra (emfiatik) choʻziqlik.

Oʻzbek shevalarining murakkab tarkibga egaligi avvalo ularning fonetik jihatdan rang-barangligi tufaylidir. Oʻzbek shevalari unli va undoshlar miqdori va sifati, fonetik qonuniyatlar, fonetik jarayonlarning oʻziga xosligi jihatidan oʻzaro farqlanadi va ular bir-biri bilan oʻxshashliklarga ham ega boʻladi. Oʻzbek shevalaridagi unli va undosh tovushlarning miqdori va sifati munozarali masalalardan biridir, chunki dialektologik ishlarda unli fonemalar haqida fikr yuritilganda, ularning soni 18 tagacha etadi, degan maʼlumotlar beriladi. Aslida shevalar fonetikasi oʻrganilar ekan, ulardagi fonemalar emas, balki konkret nutq tovushlari eʼtiborga olinishi lozimligini qayd qilish oʻrinli boʻladi.

Qarluq-chigil-uygur lahjasiga kirgan dialekt va shevalarda oltitadan oʻntagacha unli tovush bor. Singarmonizmni yoʻqotgan shevalarda 6 ta, singarmonizmli shevalarda esa 9-11 ta unli qoʻllanadi. Toshkent shevalarida i, e, a, u, o, oʻ Samarqand shevasida i, e, oʻ, a, o, y unilari qoʻllangan boʻlsa, Qoʻqon, Margʻilon, Chust, Qarshi, Sariosiyo kabi shevalarda a,e unlisi bilan birgalikda a unlisi ham uchraydi. Shimoliy oʻzbek shevalarida (Turkiston, Chimkent, Sayram) 11 ta (a, e, a, ii, i, u, oʻ, o, e, y, y) unli mavjud. Qipchoq va oʻgʻuz lahjasidagi shevalarda ham 11ta unli tovush qayd qilinadi. Unlilarning joylashish tartibi: Undoshlar tizimi (kansonantizm) haqida. Oʻzbek shevalaridagi soʻz turkiy soʻzlarda b(b), p(n), v(b), m(m), t(t), d(d), s(c), ch(cn), dj(j), sh(sh), n(n), j(ji), r(p), k(x), g(g), q(k), h(x) undoshlari doim isteʼmolda bor. Oʻzlashgan soʻzlarda u undoshi s(ts) bilan, j (sirgaluvchi boʻlsa ham) undoshi dj kabi tallaffuz qilinadi. M undoshi undov va taklidiy soʻzlarda aynan talaffuz etiladi, oʻzlashgan soʻzlarda esa p, baʼzan b undoshiga moyil talaffuz qilinadi. H undoshi aksariyat shevalarda x undoshi fiziologik tabiatiga moslashadi, lekin shimoliy oʻzbek shevalarida, qipchoq shevalarida bu undosh talaffuzda bor. Shuningdek, arabcha va forscha soʻzlardagi shu tillarga xos boʻlgan undoshlar shevalarda oʻzbek tili artikulyatsion-akustik xususiyatlariga moslashgan.

Fonetik qonuniyatlar. Singarmonizm. Singarmonizm lotincha unlilarning uygʻunlashuvi demakdir. Taniqli tilshunos I. A. Bogoroditskiyning fikriga koʻra, singarmonizm unlilar uygʻunligi, lekin qisman undoshlarga ham taalluqlidir. Singarmonizm qonuni ikki sifat koʻrinishiga ega: 1. Lingval



yoki palatal (tanglay) singarmonizmi. Bu qoniyatga ko'ra, so'zning dastlabki bo'g'ida old qator unlilar qatnashgan bo'lsa, keyingi bo'g'inglarda ham oid qator uniiar ishtirok etadi, so'zning dastlabki bo'g'ida orqa qator unlilar ishtirok etsa, keyingi bo'g'inglarda ham orqa qator unlilar qatnashadi.

Bu qonuniyat faqat shahar va shahar tipidagi shevalarda amal qilmaydi, ya'ni so'zning dastlabki bo'g'ida a, y, o, u(ii) unlilaridan biri qatnasha, keyingi bo'g'inglarda ham shu unlilar keladi va so'zda q, g', x chuqur til orqa undoshlari ishtirok qilishi mumkin. Shuningdek, so'zning dastlabki bo'g'ida o, e, o', e, u unlilaridan biri qatnasha, keyingi bo'g'inglarda ham shu unlilar keladi, bunda k, g undoshlari kelishi ham mumkin. 2. Labial singarmonizm. Bu qonuniyat aksariyat turkiy tillarda amal qiladi, ayniqsa, qirg'iz tilining «temir qonuni» hisoblanadi. Bu qonuniyatga ko'ra, so'zning dastlabki bo'g'ida old qator lablangan unli ishtirok etsa, keyingi bo'g'inglarda ham old qator lablangan unli qatnashadi, yoki so'zning dastlabki bo'g'ida lablangan orqa qator unli ishtirok etsa, keyingi bo'g'inglarda ham orqa qator lablangan unli qatnashadi. O'zbek shevalarida lab ohangi qonuni so'zning dastlabki ikki bo'g'ida qayd qilinishi xarakterlidir, uchinchi bo'g'inglarda siyrak uchraydi: syynchi, koryndi. Namangan shevasida boluptu, korypty va boshqalar. Shevalarda ayrim yuklamalar, qo'shimchalar singarmonizmga bo'ysunmasligi mumkin. Masalan: qipchoq shevalarida barag'ay (bora qol), kelag'ay (kela qol) -g'ay affiksining varianti bo'lmaganligi uchun u singarmonizmga bo'ysunmaydi va h.k. Singarmonizm qonuniyati ayni zamonda unlilar assimilyatsiyasi deb ham yuritiladi. Umlaut. Bu qonuniyat fanda unlilarning regrdssiv assimilyatsiyasi deb ham yuritiladi.

Bu qonuniyatga ko'ra, affiksdagi old qator unli asosdagi (u aksariyat hollarda bir bo'g'ingni bo'ldi) orqa qator unlini o'z xarakteriga moslashtirib oladi: son - sana, yosh - yasha. Bu qonuniyat Namangan, O'sh shevalarida, qisman o'zbek adabiy tilida qayd qilinadi. Assimilyatsiya. Odatda assimilyatsiya unli va undoshlar tizimida baravar qayd qilinadi, lekin ko'proq undoshlar bilan bog'liq fonetik qonuniyatdir. Assimilyatsiya dastlab progressiv va regressiv assimilyatsiyaga, so'ng to'liq va to'liqsiz assimilyatsiyaga bo'linadi. Progressiv assimilyatsiyada oldingi tovush keyingi tovushni o'ziga singdirsa, regressiv assimilyatsiyada keyingi tovush oldingi tovushni o'ziga o'xshatadi. To'liq assimilyatsiyada o'zaro bir biriga singib ketadigan tovushlar tushuniladi. Misollar: olli. ( Qarshi, Shahrisabz sh., ad. orf. oldi.), sy w ti (Tosh. Ad. orf. suvni), bo'ddi (bo'ldi - Shahrisabz). To'liqsiz assimilyatsiyada tovushlar aynan bir-biriga singmaydi, balki jaranglijarangsizlik va boshqa holatlarga ko'ra qisman o'xshab ketishi mumkin: oshgan - oshkan, ishga || ishka(Tosh.), bizdi(bizni)//bizning-Toshk vil. va boshq.), ozimnen o'zimdan -Xorazm^ To'liq regressiv assimilyatsiya: gorgemme(n)-qo'rqaman (Xorazm). elles(atlas-Samarqand) Dissimilyatsiya. So'z tarkibidaga undoshlarning boshqa tovush ta'siridagi tovush variantiga ega bo'lishi dissimilyatsiyadir: zarar - zaral, devor - devol, anjil - anjir, Sanchqi. Bunda ikki so'zning talffuzi jarayonida oldinga so'z nihoyasidagi undosh keyingi (boshlanuvchi so'z) tovushga moslashadi: mag(an ber , yoki dastlabki so'zning oxirgi tovushi (keyingi so'z unli bilan boshlansa) jaranglashadi: belak adam || boshqa odam, hayron bo'ldim - hayrom boltim . Spirantizatsiya. Nutq jarayonida portlovchi tovushning sirg'aluvchi variantiga ega bo'lishi spirantizatsiyadir: yubordi || djuvardti (qipchoq), sabr qildi// savir qildi (Xorazm) • Spontan o'zgarishlar (jaranglashish). U biror tovush ta'sirida yuz bermaydi, balki shevaning tarixiy rivojlanishi bilan bog'liqdir: suyak (ad. til) - cyyak (Namangan), qarq'a (ad. til) - g'arg'a

(qipchoq), Metateza: qipchoq shevalarida: fayrot//faryod, qonshi//qo'shni, qyrmysqa (qumursqa). Reduksiya: k(i)sh(i), ket(i)vir, Shar(i)p. Eliziya: bo:san(i),be:son(i). Unlilarning orttirilishi: qipchoq shev. ilay (loy), ilapi (lof). Undoshlarning orttirilishi: hayvan (ayvon), neycha (necha). Unlilarning birlamchi, ikkilamchi va emfatik cho'ziqliklari. Birlamchi cho'ziqlik. Turkiy tillarning dastlabki davrlarida so'zlarning birinchi bo'g'inida unlilar cho'ziq talaffuz etilgan. Bunday cho'ziqlik boshqa tovush ta'sirida yuz bergan emas, balki qadimgi turkiy tilning tabiati bilan bog'liqdir. Unlilarning bunday cho'ziqligi hozirgi Xorazm, Forish va shimoliy o'zbek shevalarida saqlanib qolgan: tu:sh, a:d, ba:sh, dy:z. du :n va boshqalar. Aslida bu kabi unlilar cho'ziqligi urg'uning dastlabki bo'g'iniga tushishi xususiyati bilan bog'langan. Bunday cho'ziqlik birlamchi cho'ziqlik deyiladi. Ikkilamchi choziqlik. Yondosh kelgan undosh tovushning nutqda talaffuz qilinmasligi natijasida unli tovush cho'zilishi mumkin: sendy:, o: rto: (Toshk.o'rtoq) bo:(bo'l), a: (ol - shim.o'z. shev.), Namangan shevalarida; te:mas(tegmas), la:la:(laylak). Bunday cho'ziqlik ikkilamchi cho'ziqlik deyiladi. Uchlamchi cho'zoqlik. Emfatik cho'ziqlik hozirgi-kelasi zamon fe'llarida uchraydi, ya'ni bu fe'l shaklida qatnashadigan ravishdosh ko'rsatkichi - a va boshqa shakllarda ishtirok etgan o unlisi odatdagidan ko'ra cho'ziq (ikkilangan cho'ziqlik) talaffuz qilinadi yoki uning bo'lishsiz shaklida «y» undoshi tushib qolishi ham mumkin va bo'lishsizlik affiksidadagi a unlisi ham ikkilangan cho'ziqlikka ega bo'ladi: bllma::yoma:: (bilmayman), boma::di (bo 'lmaydi), me: etme::me (men aytmayman), se: bilme::se: (sen bilmaysan) Diftonglar. Singarvonizimli shevalarda(qipchoq, o'g'uz lahjalari) diftong hodisasi uchraydi. Adabiyotlarda uning ikki turi to'g'risida ma'lumot beriladi, ya'ni so'z boshida va so'z ichida(o'rtasida, oxirida) qollanishi aytiladi. O'zbek shevalarida diftongning qoilanishida shunday jarayon yuz beradi: talaffuzda tovush ekskursiyasida bosbqa tovush (hozirgi o'zbek tilida i, y, v unlilari, transkripsiyada b, h, .b) unsurlari qoshiladi va to'xtam hamda rekursiyada asosiy tovush (unli tovushlardan biri) talaffuzi saqlanadi. Qipchoq shevalarida bu fonetik hodisa ko'proq, o'g'uz shevalarida kamroq bo'lsa-da, qo'llanishda bor; ekknchi 'eshki, : 'eki, 'oynap. Diftongning ikkinchi turiga ko'ra, artikuiyatsiyada ekskursiya va to'xtamda asosiy tovush talaftuz etiladi-da, rekursiyada y(transkripsiyada h) tovushi o'fttiriladi: ty"sh (tush),sy"t(sut). O'zbek shevalarida quyidagi diftonglar qayd qilinadi: "e : "eki (ikki), "ena(ena), "elyv (ellik) yo :yorta (o'rta), yoyla (o'yla) yo : vo'rdak(o'rdak), vo't(o'tmoq). vo : von (o'n),vuy (uy). Y\* : ky"z (kuz), ky"t (kutmoq) : tu"t (titmoq), qi"z (qiz). Kontrast (juft) unlilar: singarmonizmni saqlagan o'zbek shevalarida unlilar old qator va orqa qator mavqelarga (pozitsiyalarga) ega bo'ladi. Ular quyidagilar: u - u, i - i, o - o, y - y, a - a, /o - a. Bundan faqat e(e) unlisigina mustasno. Tovush mosligi. O'zbek shevalaridagi so'zlarni boshqa sheva va adabiy til bilan qiyoslaganda, shunday fonetik holatlar ko'zga tashlanadiki, bir so'z ayni ma'nosini saqlagan holda ulardagi ayrim unli yoki undosh tovushlar farq qiladi, lekin u ma'noning mosligiga putur yetkazmaydi: topp-i ' (Toshkent) - doppi ' (ad.til), kel (ad.til) - gel (Xorazm), tog'ri> (Toshkent) - do:ri (Xorazm), yo'l (Toshk.) - djo'l (qipchoq), shu (ad. til) - sho (qipchoq), choy (ad. til) - chay (qipchoq) bodana (Turkiston) - bedana (ad. til) Bu kabi so'zlardagi t/d, k/g undoshlari mosligi namoyon bo'ladi. Bu, ayniqsa, arab tilidan o'zlashgan so'zlarda o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Arab tilidagi ayn harfi bilan ifoda etiladigan tovush g' undoshiga mos keladi: sagat, sheg'er (soat, she'r. Toshk.).

Mavzuga oid savollar.

1. Qarluq lahjasida nechta unli fonema bor?
2. Qipchoq lahjasidagi unlilar qanday sifatlarga ega?
3. O'g'uz lahjasidagi unlilarning xususiyatlarini ko'rsatib bering.
4. O'zbek shevalaridagi unlilar qanday xususiyatlarga ega?
5. Singarmonizm nima, uning qanday turlari bor?
6. Umlaut qanday xususiyatga ega?
7. Unli va undoshlar bilan bogliq yana qanday qonuniyatlarni bilasiz?
8. Unlilar cho'ziqligining qanday sifat turlari bor?
9. Diftong va diftongoid nima?
10. Kontrast unlilar deganda nimani tushunasiz?

#### Glossoriy

Vokalizm [vocalizm]- unlilar tizimi.

Konsonantizm[konsonantizm] - undoshlar tizimi..

Fonetik qonuniyat [phonetic laws]- o'zbek shevalarida amal qiladigan tovush talaffuzi va u bilan bog'liq holda yuz beradigan fonetik hodisalar.

Singarmonizm [singarmonizm]- unlilar uyg'unligi.

Lingval singlarmonizm[lingual singlarmonizm] - old qator va orqa qator unlilar uyg'unligi

Labial singlarmonizm [labial singlarmonizm]- lablangan unlilar uyg'unligi.

Assimilyatsiya[assimilation] - unli va undoshlarning o'xshab ketishi yoki bir-birlariga singishi.

Dissimilyatsiya [dissimilation]-undosh tovushlardagi noo'xshashlik

Unlilar cho'ziqligi [length of vowels]- unlilarning boshqa tovush ta'sirida va uning ta'siridagi cho'zilishi.

Diftong va diftongoid [diphthong and diphthongoid]- bir tovushda ikkinchi bir tovush ekskursiyasining bo'lishi.

Kontrast unli [Contrast vowel]- old qator va orqa qator xususiyatlariga ko'ra zidlangan unlilar.

Tovush mosligi [correspondence of sound]- so'z ma'nosiga putur yetkazmaydigan tovush o'zgachalikka

#### Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
2. Reshetov V. V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
3. To'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
4. Ashirboyev S.O'zbek dialektologiyasi. – T.: "Navro'z", 2016.
5. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: TDP, 2011, 2013.
6. Enazarov T., Karimjonova V. va boshqalar. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.

## Internet saytlari

1. [www.turk.dili.google.com.tr](http://www.turk.dili.google.com.tr)
2. [http://www.ut.uz/eng/today/europe\\_recognizes\\_her\\_discovery.mgr](http://www.ut.uz/eng/today/europe_recognizes_her_discovery.mgr)
3. <http://www.schneid9.de/sprache/linguistik/ling11.pdf>
4. <http://www.uni-leipzig.de/~fsger/materialien/Texte/Lexikologie.pdf>
5. [www.dersimiz.com](http://www.dersimiz.com)
6. [www.altinmiras.com](http://www.altinmiras.com)
7. [www.thinsan.com](http://www.thinsan.com)

## Test

### №1

Y-lovchi shevalarda kelishiklar qancha?

Bosh, qaratqich, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishiklari.

Bosh, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishiklari.

Bosh, qaratqich, tushum, o'rin-payt va chiqish kelishiklari.

Bosh, qaratqich, vosita, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishiklari.

### №2

Rossiyada lingvistik geografiyaning rivoji kimning nomi bilan bog'liq?

I.I.Sreznevskiy nomi bilan bog'liq.

A. N. Kononov nomi bilan bog'liqligi muammoli.

V.V. Reshetov nomi bilan bog'liq emas.

A.A.Koklyano va nomi bilan bog'liqligiga asos yo'q.

### №3

O'zbek shevalari adabiy tildan qaysi xususiyatlari bilan farq qiladi?

Leksik, turlanish, tuslanish, yasalish (so'z yasalishi va forma yasalishi).

**Tovush va ovoz jihatdan.**

**Turlanish va etimologiya jihatdan.**

**Semantik, turlanish hamda etymon jihatdan.**

**№4**

**Soʻzning fonetik tuzilishi nima ?**

**Soʻzning fonetik tuzilishi boʻgʻindan iborat boʻlishi.**

**Soʻzning fonetik tuzilishi tovushdan iborat boʻlmasligi.**

**Soʻzning fonetik tuzilishi unlidan iboratligi.**

**Soʻzning fonetik tuzilishi ohangdan iborat boʻladi.**

**№5**

**Til oldi undoshlarini koʻrsating.**

**t, d, s, z, ch(j), sh, dj, n, l, r.**

**t, d, v, s, z, ch, sh, dj, n, l, r.**

**t, d, ya, s, z, ch, sh, dj, n, l, r.**

**t, d, f, s, z, ch, sh, dj, n, l, r.**

**Internet saytlari**

**1. [www.turk.dili.google.com.tr](http://www.turk.dili.google.com.tr)**

**2. [http://www.ut.uz/eng/today/europe recognizes her discovery.mgr](http://www.ut.uz/eng/today/europe%20recognizes%20her%20discovery.mgr)**

**3. <http://www.schneid9.de/sprache/linguistik/ling11.pdf>**

**4. <http://www.uni-leipzig.de/~fsger/materialien/Texte/Lexikologie.pdf>**

**5. [www.dersimiz.com](http://www.dersimiz.com)**

**6. [www.altinmiras.com](http://www.altinmiras.com)**

Singarmonizm hodisasi lahja va shevalarimizda palatal(yoki tanglay) va labial singlarmonizm holatida bo'lad:

1. Tanglay uyg'unligi (unlilarning qattiq va yumshoqligiga ko'ra)...

*barıg'* - borish, *kimkə* - kimga, *ilgari* - ilgari, *dalag'a* - dalaga.

2. Lab uyg'unligi - birinchi bo'g'indagi unliga keyingi bo'g'indagi unlining yoki o'zakdagi unliga qo'shimchadagi unlining lablanishi jihatdan moslashuvi:

*ьлѣт* (*inim*) - ukam, *uzum* - uzum

*kozom* - ko'zim, *tuzum* - tuzumi

Ammo bu hodisa adabiy tilimizda uchramaydi;

1.1.b) undoshlar:

(O'zbek shevalarida quyidagi undosh fonemalar bor:

1. Lab undoshlari: p, b, (f), v, m.

2. Til oldi undoshlari: a) t, d, s, z, ch (j), sh, dj; b) til oldi sonorlari: n, l, r.

Ular jara.i-jarangsiz.ga ko'ra quyidagi juftlk.: [t-d], [s-z], [sh-j], [g-dj].

3. Til o'rta: y. 4. Til orqa: q (k/x'), g (g/g'), ng (ng/ng'), x, q, g' (g')

5. Bo'g'iz undoshi: h (h).}

Shevalarda uchrovchi va uchramaydigan undoshlar:

1. Toshkent tipidagi y-lovchi shevalarda uchramaydigan, biroq j-lovchi va singlarmonizmli y-lovchi shevalarda mavjud bo'lgan "h" fonemasi.

2. Janubiy Xorazm shevalaridagi "k", "g" undoshlari ham qo'llanilishi jihatidan birmuncha o'ziga xos xususiyatlariga ega. Til orqa burun "ng" tovushi ham shevalararo bir xil emas: ng // ng' (// g' ).

3. X tovushining tavsifi, uning mavjud bo'lish, bo'lmasligi bilan j-lovchi shevalar bir-biridan farq qiladi.

4. J-lovchi shevalardagi "dj" affrikati o'rniga "j" fonemasini qo'llaydigan shevalar j-lovchi shevalarning alohida guruhini tashkil qiladi.

5. "y" fonemasi y-lovchi shevalarga nisbatan j-lovchi shevalarda kam qo'llanadi, chunki bu shevalarda qadimgi turkiy "y" tovushi so'z boshida "dj" yoki "j" tovushi bilan almashadi.

6. y-lovchi shevalar ta'sirida "y" tovushining "dj" tovushiga o'tishi y > dj tamomila tugagan.

7. O'zbek adabiy tili barcha shevalardan "p", "j", "s" fonemalarga egaligi bilan farq qiladi.

f fonema. Samarqand-Buxoro shevalaridan boshqa barcha sheva vakillari talaffuzida "p" fonemasiga aylanadi.

Shevalarimizda nutqiy jarayonda "f" tovushi barcha o'rinlarda "p" tovushi bilan almashinadi: *foiz - poiz, pəyda (foyda)*

8. Ruscha "j" tovushi "dj" tarzida talaffuz qilinadi.

9. Ba'zi shevalarda "p" o'rnida "b" qo'llanadi: jl. *tepə > tebə; kepək > kevək-kebək. p > b, p > v* hodisasi j-lovchi shevalarni γ-lovchi shevalardan farqlaydi.

10. *b > p*: jl. *ayтыр pərayəтырты, ketip pəрэды.*

11. *b > v* xususiyati uchraydi: *ozbəy > ozvak; albəttə > əlvəttə.*

Toshkent tipidagi shevalarda uchraydigan hozirgi zamon fe'l yasovchi -vot affiksidadagi "v" tovushi ham "b" > "v" holatidan deb qarash kerak:

γ-lovchi shevada: *barыb yat > bərb yət > bərvət.*

12. Ba'zi so'zlarda "m" fonemasi "b" undoshi bilan almashinib qo'llanadi: *bəynə - mayna; boljal > mo'ljal*

13. So'z oxirida d // t almashinishi uchraydi: *dard > dart, mard > mart.*

14. So'z boshida b // m undoshlarining almashinishi hodisasi ham bor: *bilən // minən > mnən > mən.*

15. J-lovchi shevalarda m > ng holati mavjud: *nimani > ningəni.*

*t > ch tush > chush, tish > t ʃsh > ch ʃsh.*

d fonemasi portlovchi "t" fonemasi jarangli jufti: *d > t baland > bələnt > bələn; xursand > xursənt > xursən (reg. assimilyatsiya).*

#### Unli va undoshlarning orttirilishi hamda tushib qolishi

1. Unli orttirilishi: "i" unlisi ortadi:

a) so'z boshida: jl. *ыlay < lay; ыlay qыlamыз (loy qilamiz),*

b) so'z oxirida: jl. *лары < lap; лары urmag' in (lof urmag' in)*

2. Undosh tovushlarning orttirilishi ham uchraydi:

a) so'z boshida: "h" undoshi orttiriladi: jl. *həyyən < əyvən, xəşəl < əşəl;*

dj. jl. *djoldam < oldəm, djibək < ipək; djuzum < uzum; djuzugum < uzugum*

ch jl. *chertek < ertək;*

b) so'z o'rtasida "v" undoshi orttiriladi:

ovzi < ozi, suvrat < surat, navmart < nomart; duvchar < duchar

y: neychek < necha; kiytini < ketini; iygə < ega.

v) soʻz oxirida “y” undoshi orttiriladi: jl. sarpəy < sarpə; mənikey < məniki.

n jl. ketməkçын < ketməkchi; bələ-çəqən < bala-chaqa.

q jl. mazaq qылыр < maza qылыр

y: buyəməs < bu yeməs; shuyəməs < shu yeməs; uy eməs < u yemas.

3. Tovush tushishi hodisasi soʻzdagi unli va undosh tovushlar uchun tegishli boʻlib, tilshunoslikda u eliziya hodisasi deb nomlangan:

3.1. Soʻz oʻzak negizida eliziya hodisasi:

jl. xardar < xarъdar // tosh. xardor. naman. xoddor// ad.orf. xaridor.

hamsha < hemisha // ad.orf. hamisha; ek < eki // ad.orf. ikki.

3.2. Soʻz oʻzak-negizlariga qoʻshimchalar qoʻshilganda: bəllər < bəlalər,

er: də < eridə // ad.orf. eridi.

3.3. Baʼzi ikki boʻgʻinli soʻzlar oxiriga unli tovush bilan boshlanuvchi qoʻshimcha qoʻshilsa, yopiq boʻgʻindagi unli tushib qoladi:

yl. qər ъл > qərnъ > qərnъ, burun burnъ > bunnъ // boʻyun > boynъ.

jl. avuz > əvzy; yl. ogʻ ыл > ogʻ ь.

3.4. Ikki soʻz birgalikda talaffuz qilinganda ikki xil fonetik hodisa yuz beradi:

a) agar ikkinchi soʻz unli bilan boshlansa, birinchi soʻz oxiridagi unli tushuriladi: jl. əltəyрechə < elty əygʻəcha; dʲolqochində < dʲolqy ichində.

b) agar ikkinchi komponent undosh tovush bilan boshlansa, birinchi soʻz oxiridagi unli talaffuz qilinmaydi:

jl. ekqolыны < eki qolыны; ekkazungvъ < eki kozungvъ; nardjaya < narъ- djaqa.

3.5. Oʻzak-negiz yoki qoʻshimchalar boshidagi undosh tovushlar tushib qoladi: aydaymyz < haydaymyz; ishə < shishə bizər < bizlər.

3.6. Soʻz oʻrtasidagi undosh tovushlar tushiniladi: shə:ə r < shahar;

su:uq < suvuq < souvuq; tərədi < tərəddud

3.7. Oʻzak-negiz yoki qoʻshimchalar oxiridagi undosh tovushlar tushadi:

gunъ < gunəh ; gъyъ < gъyъh; guvъ < guvoh; su < su: < suv; dos < dost.



3.8. Ikki o'zak-negiz tutashgan joyda yoki qo'shimchalar qo'shilganda o'zak-negiz boshidagi, oxiridagi undosh tovush tushirib qoldiriladi: *Barg'an djog' ali < bargan djog'hali; mag'anam < mag'an ham; kela edi < kelar edi.*

3.9. Dissimilyatsiya - so'zdagi o'xshash tovushlarning boshqa noo'xshash tovushga aylanishi. Sonor (*l, r, n*) tovushlari bo'lgan so'zlar dissimilyatsiyaga uchraydi: *zarar - zəral; devər - dəvəl - devəl; andjir - əndjil; roməl - yoməl*

3.10. Assimilyatsiya - so'z(lar)dagi undoshlarning o'zaro o'xshash bo'lishini. Shevalarda uning ikkita turi bor: 3.10.1) progressiv assimilyatsiya - bunda oldingi tovush keyingi tovush o'ziga o'xshatib olinishi jarayoni: ad.orf. *bizni - bəzzə, ad. orf. qorni - qərrə, ad.orf. shaharni - sha: ərrə, ad.orf. tolni - təlŋə.*

3.10.2) regressivi assimilyatsiya - bunda keyingi tovush oldingi undosh tovushni o'ziga o'xshatib oladi: ad.orf. *berdi > beddə, ad.orf. turdi > tuddə, ad.orf. o'rnim - ornəm > onnəm, ad.orf. zamonlarni - zamənlərnə > zaməllərnə.*

4. Ko'pchilik o'zbek shevalarida quyidagi jarangli va jarangsiz undosh tovushlarning talaffuzi bilan yozilishi bir-biriga mos kelmaydi:

4.1. *p, t, k, q* jarangsiz undosh tovushlar jaranglilashish hodisasiga ega: epladi - evladi, tovush - dāvush, bilaki - biləgi, terak - terəy kabilar.

4.2. *b, v, d, z* jarangli undosh tovushlar jarangsizlashishi kuzatiladi: obod - əbət, o'ttiz - o'ttis, kitob - kitəp, avtor - əftər, avtomat - əftəmət singlarlar.

4.3. Quyidagi undoshlar o'zaro o'rin almashadi:

*q-x: to'qson - to'qsən, to'xtash - to'qtash; t-d: qant - qand, po'lat - po'lad;*

*h-m: bo'g'in - bo'g'im, mabodo - nabəddə;*

*b-m: bo'yin - mo'yin, bunday - munday;*

*b-v: sabzi - savzi, xabar - xavar; ch-sh: uchta - ushta, pochta - pshta;*

*s-ch: sochiq - chəchiq // chachıq, supurgi - shipirgi va boshqalar.*

g) sheva va lahjalarda uchraydigan fonetik hodisalar adabiy tilda uchramaydi:

-Fonetik ultra cho'ziqlik jumla ohangdorligi bilan bog'liq: *məm bə/mə:: mən (bilmayman), sən bə/mə::sən (sen bilmaysan), u bə/mə:də (u bilmaydi).*

Fonetik-morfologik jihatdan shevalar ko'ra ikki guruhga ajratildi:

1. *ə* - lovchi shevalar.

2. *A* - lovchi shevalar.

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Aliev A.Yu. O'zbek dialektologiyasidan materiallar.T.,Fan, 1974. 215 b.
2. Alieva A. O'zbek dialektologiyasidan metodik ko'rsatma.T.,1980. 50 b.
3. Aliev A. Yu., Nazarov K. N. O'zb. til. sheva. bo'yicha mat. to'p. uchun met. qo'llanma. T., 1976.
4. Abdullayeva D. O'zbek tili Oshoba shevasining fonetik xususiyatlari. AKD. T., 1999.25bet.
5. Abdullaev F.A. O'zbek tilining o'g'uz lahjasi. T., Fan, 1978.
6. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. T., O'qituvchi, 1996.
7. Reshetov V. V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi.T., 1978.
8. Reshetov V. V. O'zbek shevalarining klassifikatsiyasi // O'TA. T., 1966.
9. Jo'raev B. O'zbek adabiy tili va dialektlari.T.,1963.
10. Ishayev A. Mang'it shevasi fonetikasidan materiallar //Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari. IV. T., 1962.
11. Shoabdurahmonov Sh. Sh. O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari. T., 1962.
12. Shoabdurahmonov Sh. Sh. O'zbek tilining dialektologik atlas. O'TA, 3.T., 1969.
13. Nazarov K., G'ulomov Yo. O'zbek dialektologiyasi. T., Universitet, 1993 b.
14. Egamov V. O'zbek tilining G'allaorol shevalari. Samarqand, 1970.
15. Enazarov T. va boshqalar. O'zbek dialektologiyasi. T., Universitet, 2012 .
16. G'ulomov H. O'zbek tilining Jizzax shevasi // O'DM. 1. T., 1957.
17. Qudratov T.Shevalar qanday aralashadilar? // O'zbek tilshunosligi masalalari.T., Qarshi, 1976. 39-45-b.

#### Internet saytlari

- 1.[www.turk.dili.google.com.tr](http://www.turk.dili.google.com.tr)
- 2.[http://www.ut.uz/eng/today/europe\\_recognizes\\_her\\_discovery.mgr](http://www.ut.uz/eng/today/europe_recognizes_her_discovery.mgr)
3. <http://www.schneid9.de/sprache/linguistik/ling11.pdf>
- 4.<http://www.uni-leipzig.de/~fsger/materialien/Texte/Lexikologie.pdf>
- 5.[www.dersimiz.com](http://www.dersimiz.com)
- 6.[www.altinmiras.com](http://www.altinmiras.com)
- 7.[www.thinsan.com](http://www.thinsan.com)

#### O'zbek shevalari leksikasi va leksikografiyasi

##### Reja:

1. Shevalararo so'zlarning farqlanishi.
2. So'zlarning shakliy bir xilligi va boshqa-boshqa ma'nolarni anglatishi.
3. Shevalarda qo'llanuvchi so'zlarning semantik guruhlar.
4. Sheva so'zlarida leksik qatlam.
5. Shevalarda sinonim, antonim, omonim va neologizmlarning qo'llanishi.

## 6.O'zbek shevalarini o'rganishda lug'atlar.

## 7.O'zbek shevalari leksikografiyasi.

Tayanch so'z va tushunchalar: Leksika. Tarixiy grammatika. Shevalar leksikasi. Leksik qatlam. Sheva so'zlarining fonetik va morfologik tipi. Turkiy leksik qatlam. Sheva so'zlarining leksik va leksik-morfologik tipi. O'zlashgan leksik qatlam. Sinonim. Antonim. Omonim. Neologizm. Sheva so'zlarining semantik tipi. So'zlarning semantik guruhlari.

O'zbek xalq shevalari lug'ati va uning ko'p tomli yangi variantlari, shuningdek, ularni yaratish muammolari murakkabdir. O'zbek shevalari fonetik, grammatik xususiyatlari bilan birga leksik xususiyatlarga ham ega. Bu xususiyatlar shevalarni adabiy tildan hamda ularning o'zini o'zaro farqlashga yordam beradi. Har bir tilda, shuningdek shevalarda ham hayotiy zarur tushunchalar so'zlar vositasi bilan ifodalanadi. Tilimiz leksik tarkibining asosiy qismini tashkil etuvchi so'zlar o'zbek shevalari va o'zbek adabiy tili leksik tarkibining asosiy qismini tashkil etadi. Shevalar xalq tarixini yoritishda va tarixiy grammatika hamda tarixiy leksikografiyani yaratish uchun ham boy materiallar beradi. Bunga misol tariqasida faqat shevalardagina uchraydigan quyidagi so'zlarni keltirishimiz mumkin: *g'org'uduq* (qarovsiz, tashlandiq quduq), *qasmaq* (sutning qozonga yopishib qolgani), *qinjir* (ovqatni kam yeydigan), *tushamə* (beshbarmaq, lazcha, shilpildiq, Qash.qip.) va boshqalar.

O'zbek xalq shevalari tarkibida *arna*, *yap* (Xorazm), *əđ əsh // ədəg'*, *yəvuq // uzəq-yovuq* kabi adabiy tildan shaklan o'zgargan yoki adabiy til taraqqiyotida allaqachon chiqib ketgan ayrim so'zlar mavjud. Bunday so'zlarni o'rganish til tarixi, adabiy til tarixini o'rganishda muhim ilmiy qiymatga egaligini ta'kidlash lozim. O'zbek adabiy tilida bo'lmagan so'zlar o'zbek xalq shevalarida uchraydi. Masalan, *gəvərə* (oshqozon), *gajman* (epchil, harakatchan qiz), *hiqday* (semiz), *chorsillag' an* (ishchan), *jəyir* (dovyurak), *chayir* (qotmadan kelgan odam), *tog' i* (yana), *təytuv* (mahmadona), *həddili* (irodali), *kəsir* (zarar, ziyon), Qash.qip.), *ədrəsmən* (isiriq), *girdikəna* (ko'rpacha), *sərpxi* (tovuq), *tikech* (chekich), *sotə* (hassa), *ərish* (shoti), *yərqənat* (ko'rshapalak), *yəvən* (qishloq) va boshqalar.

Bunday so'zlarni yosh avlod vakillari eshitmagan, tushunmaydi. Shuning uchun ular arxaik so'zlar hisoblanadi. Bunday so'zlar shevalarning leksikasi tarkibidan chiqq boshlagan. Shevalarni bir-biridan leksik jihatdan farqlaydigan xususiyatlar barcha so'z turkumlari doirasida uchraydi. Buni uchala lahja misolida ko'rsak:

Qarluq lahjasi	Qipchoq lahjasi	O'g'iz lahjasi
<i>Chaqalaq</i>	<i>bovək</i>	<i>bovək</i>
<i>tuxum</i>	<i>məyək</i>	<i>yimirtə</i>
<i>muchəcha</i>	<i>muchchi</i>	<i>qumri</i>
<i>chorch əy</i>	<i>ertəy - mətal</i>	<i>ertəy</i>
<i>chum əlb</i>	<i>chumali</i>	<i>qarəndja</i>

og' ur	keli	Ɔəqo' Ɔ
nərv Ɔn	narvan	Zəngni
ƆshkəƆm	vayish	-
ƆyƆ	ena	ənə
ərq Ɔn	Arqan	yip

O'zbek shevalarida dialektal so'zlarning fonetik, morfologik, leksik-morfologik, semantik va leksik tiplari bor: *chəch* (soch), *zəray* (zirək), *quləq* (quloq), *əshshə* (oshni); *nərvən* (Far.), *shatə*, *zəngni*; *kəlb*, *sə:qi*; *rəvach*, *chukrə*; *nənpər*, *chekəch* va boshqalar. Shevalarimizda shunday so'zlar ham uchraydiki, bunday so'zlar shakl jihatidan bir-biri bilan o'xshash bo'lishlariga qaramay, shevalararo boshqa-boshqa ma'nolarda ishlatiladi. Misol:

*aravaning qismi* (Toshkent)

shətbə

*narvon*, *aravaning qismi* (Farg'ona)

*ona yoki otaning onasi* (Toshkent)

buvb

əna, ƆyƆ (Farg'ona)

*tuxum*, *mayak* (Toshkent)

tuxum

*urug'* - (qipchoq lahja)

*pashsha* (Toshkent)

pəshshə

*chivin* (Farg'ona)

O'zbek shevalarining leksik tarkibida an'anaviy leksika asosiy o'rinni egallaydi.

Shevalarning an'anaviy leksikasi hozirgi kunda asosan keksalar nutqi(tili)da qo'llanadigan so'zlar majmui bo'lib, ular sof leksik dialektal so'zlar hisoblanadi. Shevalarda qo'llanuvchi dialektal so'zlarning semantik (ma'noviy) guruhleri ko'p bo'lib, ulardan namunalar sifatida quyidagilarni keltiramiz:

1. Ovqat nomlari: *bo'rsiq* (mog'orlab qolgan non), *nishkənlə*, *singcha* (qizarib, singib pishgan non), *jutum* (yeyish mumkin bo'lgan narsa), *piyova*, *əsh*, *laxchatappa*, *g' ilvindi*, *chalop* singlarlar.

2. Dehqonchilikka xos so'zlar: *sanga* (ko'p bosilgan yer), *jəbiz* (qotib qolgan yer), *o'rpang* (eikilmagan yer), *oq ərbəq*, *shah arəq*, *mələ*, *qəvəq*, *ashkədi*, *bug'dəy* // *biydəy*, *djoxərbə*, *qzicha*,

*kasek, chopiq, bərdərnig, suvma, əriqchi, əriqoqsoqol, məhrim, chig'irchi, chakboshi, suvmirchi, ovandozchi, syvjug'ur, uvatchi, loppək.*

3. Chorvachilikka oid so'zlar: *ət/ət, səgər, ək, qoy, echkə, xotuk, təyxər, qulun, tuye, ayy'ər, biyə, uloq, bəytəl, buzoq, bəza: // bəzəg', nəvənə, məlxəna, ulov, lo'k* (erkek tuya) va boshqalar.

4. Uy-ro'zg'or buyumlarining nomlari: *ləgən, səndug', pəqər, teshə, xurma, g'alvər, chəvəb, tushək, bəvəsh, əlacha, chəpəqə, panshaxa* va boshqalar.

5. Ovchilikka xos so'zlar: *tor, tuzəq, qəpəqən, o'ra* (ov o'rası), *temir qəpəqən, keyez, qarmoqə, əv ora, sanchqı* singarilar.

6. Baliqchilikka xos so'zlar: *sazan, zog'ara, qarməq, sanchqı, laqqa, zəg'ara balıq, laqqa baliq, chavaq, chortan balıq* kabilar.

7. Binokorlikka xos atamalar: *bosag'a, chəlduvər, durədgər, səpəqən, dəqəvəz, ship, təkə, sinch, ustun, sarrəv, xər, pəydevər, pəytesha, qasava, ravaq, əmorə, oy, mbir, yolək, təkəcha* singarilar.

8. Onomastik so'zlar: *Mamasədiq, Toshmat, Eshmat, sha::r, dacha, səynəm, checha, Qaynaquvdi* va boshqalar.

9. Kiyim nomlari: *koynəy // koynək,, ləzim, orama kamzul, orama chəpəqən, chəpon, chakmon, qalpəg', jelək, maxsi-kəvush, pəypə // pəypəg'* kabilar.

10. Bog'bonlikka oid so'zlar: *ishkəm, yer tək, bəzəm, qalamcha* (yosh nihol), *bəg'ət* (bog'li joy), *bəg'dər* (bog' egasi, bog'li joy) singarilar.

11. Qarindosh-urug' nomlari: *əyə, enə, kattə enə, aməkı, chevara, devara, məmə, inim, bola, təg'ə, təg'əvəchə, qayni, qayinsingil, qaynənə, qayin ukə* kabilar.

12. Hunarmandchilikka oid so'zlar: *sinch, bəvəb, səqqa, pəytesha, əmbir, qo'l teshə, ko'tarmə* (og'ir narsani ko'tarib beruvchi asbob), *əməch, təqə, təqəchi, də-s-kələ, məvit, mələ, lapag'* (kuvacha), *shaytən* (to'g'rilikni ko'rsatuvchi asbob), *qubba, chəchəq, kəshtə* (materiallarga gullar tikilib, uynig devorlariga osib qo'yiladi).

13. Atoqli otlar(kishi ismi, sharifi, toponim, zoonim, fitonim, etnonim va narsə, sarlavha, asarlarning atab qo'yilgan nomlari)ga oid so'zlar: *Elshək - Elshod, Məmərajim - Mamarajim, Məməsədiq - Mamasədiq, Məlguzər - Molguzar*(aslıda Morguzar), *Qaynaquvdi - Qaynaquvdi(guzar), Qayrabsəldi*(qishloq) va boshqalar.

Shevalarimizdagi so'zlar shaklan tub va yasama so'zlar guruhlariga bo'linadi: *əyi, tag'nay, enə, yənə, kosek, korek, xoppək, osımlı, sanchqı, toshək, oq arəq, tarasha, əshkədi* singarilar.

Kelgusida yosh shevashunoslar oldida o'zbek shevalarining ko'p tomlik "O'zbek xalq shevalari lug'ati"ning tuzilish kabi ma'suliyatli vazifa turibdi.. Albatta, uning tarkibida sinonim, omonim, antonim, etnografik, leksik-fonetik dialektal, leksik-frazeologik, leksik-derivatsion,

morfologik-dialektal soʻzlar lugʻatlari boʻlishi tabiiy holdir. Bunday dialektal lugʻatlar ("Rus dialektolo-giyasi" fani uchun) rus olimlari tomonidan tuzilib, nashr qilingan.

Oʻzbek shevalari leksik tarkibida tarixiy jihatdan ikkita leksik qatlam bor: 1) umumturkiy leksik qatlam soʻzlari; 2) oʻzlashgan leksik qatlam soʻzlari. Albatta, shevalarda asosiy soʻzlar turkiy leksik qatlamga oiddir: *эт, эра, енә, вәсәт, бәт, кел, кет, тәт, чәтәт, ятәт, қәт*.

Oʻzbek shevalarida boshqa tillardan oʻzlashtirilgan soʻzlar ancha miqdorni tashkil etadi: Bunday soʻzlar adabiy tilga qabul qilingan boʻlib, albatta bunday soʻzlar shevalarda maʼlum fonetik oʻzgarishlarga uchraydi. Aniqrogʻi, sheva vakili oʻzlashgan soʻzlarga oʻz shevasiga oid boʻlgan baʼzi bir xususiyatlarni yuklaydi. Misol: *ақыл (aqil), amel (amal), opət (ofat), вәсәят, qudrət, dunya, shərm (sharm), shəpə (shifio), əgoh (agoh), bəlan (baland), dəs (dast), bey (burch), канvshdз, dərax, duterchə, dəraxsəz, xush-xəvar, bədvəlat, əshpaz, ʔshqəvəz, əmālpərəs, chəypurəsh, serhəvəl* va boshqalar.

Bir qancha oʻzlashgan internatsional soʻzlar shevalarimizda baʼzi bir oʻzgarishlar bilan ishlatiladi: *рәезд, məshinə, zavəd, traktər, gazet, təksi, kəsməs, paltə, stəl, shakf, bətinka, rəman, teatr, kəlkəz, fəbrəkə* kabilar.

Shevalarda sinonim, antonim, omonim va neologizmlarning qoʻllanishi. Oʻzbek shevalarida shaklan oʻxshash boʻlib, maʼnolari farqlanuvchi omonim soʻzlar ham koʻp miqdorda qoʻllanadi:

I *quraq-laxtak*; II *quraq- mayda*; III *quraq - qamishning qurigani*. (Jiz.);

I *təpə - balandlik*, II *təpə - bosh*;

I *chaqa - chaqa pul*, II *chaqa - tuxumdan chiqqan qush*, III *chaqa - aqliy qobiliyati zaif odam*;

I *ulaq - echki*, II *ulaq - ulama soch*;

I *qıyıyıq - durracha*, II *qıyıyıq - oʻjar odam*;

I *botqa - semiz*, I *botqa - ovqatning bir turi*;

I *dətm - hech*, II *qətm - havo dim*, III *dətm - jim*, IV *dətm - siqilish*;

I *et - goʻisht*, II *et - ayt*;

I *ul - oʻgʻil I*, II *ul - oʻsha*;

I *jəv - yov*, II *jəv - eshikni yop*, III *jəv - non yopmoq*;

I *suvdaq - suvdek toza*, II *suvdaq - chiroyli*;

I *tu: - toʻgʻon*, II *tu: - bayroq*;

I *suxsur - parranda*, II *suxsur - chiroyli*;

I *xoʻmboʻya - xamirturush*, II *xoʻmboʻya - semiz*;

I *juban - yoʻgʻon*, *qalin(joʻgʻon arqan - yoʻgʻon arqan)*, II *juban - yugan*:

I cho't – tesha, II cho't – chama, taxmin;

I cho'zma – yuqqa ovqat, II cho'zma – uzun.

Sheva vakillari nutqida sinonimlar ham ko'p qo'llanadi:

*ashg'al-dashg'al* - tentok;

*shaytan* - shum;

*battal*, *ters*, *aks* - qaysar; *pakana* – yerg'altak;

*buvi*, *biyi*, *biyi* - ona; *charsi* - qiyuyiq, qiyuyiqcha - belbog'

*diykat*, *pismiltiq* - ayyor; *balg'ndar* – taxman, me:rəp ;

*chərouli*, *koxlu*, *sulu.*, *gozal*, *bejərgəm*;

*kuch*, *qudrat* – kuch; *quyosh*, *oftob*, *kun* - quyosh

*zahar*, *zaqqum* – zahar; *aniq*, *ravshan* – aniq;

*kuvər*, *bəlg'a*, *təvar* – tesha; *padarvakil* - qiyzata – vakilə at

Shu jumladan, o'zbek shevalarida antonim(qarama-qarshi ma'noli so'z)lar ham ko'p ishlatiladi: *chin so'zli* – *allamchi*; *oqan* (achchiq) - *təttə* (shirin); *tez* - *jay* (tez-sekin); *sədda* – *qo'pol*; *yaxsh* - *shildər* (yomon), *kun chəqəsh* (sharq) - *kun bətəsh* (g'arb), *pəst* – *yuqori*; *achchiq* – *shirin*; *bəbək* (chaqaloq) - *soqym* (katta); *choqor* (chuqur) - *tək* (baland); *tumən* (past) - *bəyək* (baland).

Shevalarda yangi so'zlar, ya'ni neologizmlar ham qo'llanadi: *kampyuter*, *tes(test)*, *quyosh baterasi*, *korpus*, *kompas* va boshqalar.

O'zbek shevalarida tilshunoslikda alohida bir so'z sifatida tan olinayotgan frazeologizmlar ham faol ishlatiladi. Ammo ularning dialektal lug'ati shu kungacha tuzilmagan. Ularning: a) adabiy tildagi frazeologizmlar bilan o'xshash; b) adabiy tildagi frazeologizmlar bilan o'xshash bo'lmagan turlari bor. Misollar:

*Oziminan ozi giriptər* - O'ziminan o'zi giriptor (o'zi bilan o'zi ovora).

*It pəshək bolməq* - It pishak bo'lmoq (o'zaro urishmoq).

*Guruchi suv kotərməydəgən* - Guruchi suv ko'tarmaydi (tanqidga chidamaydi).

*Tekən nərsəgə təmdən təshləydy* - Tekin narsaga tomdan tashlaydi.

*Chəp təməning mənən tuddəngmə* - Chap tomoning bilan tuddingmi?

*Tuya goshti yeməq // devol məngən* - Tuya go'shti yemoq // devol mingan.

*Devəl ushlatip ketti* - Devol ushlatip ketti (aldab ketti).

*зўғ'и тортмади* - Oyog'i tortmadi(borgisi kelmadi).

*Радачинъ қызилъ рѣдѣ кегандѣ рѣхмъ кирѣймѣш* - Podachini qizini poda keganda paxmi kiraymish.

*Тѣлѣ бѣр қарѣч* - Tili bir qarich (katta gapiradigan).

*Озѣга тѣррѣ кесѣлмѣган, бѣрѣвга увра кесѣймѣш* - O'ziga to'ppi kesolmagan, birovga uvra kesaymish (qo'ldan hech ish kelmaydigan).

*арқаси tutti* - Arqasi tutti (jahli chiqdi).

*Ichigа shаъl ekkаn* - Ichiga sholi ekkan.

*О'тlаb kettъ* - O'tlab ketti (boshqa mavzuga otib ketdi).

*Јаg'аnъ yegаn* - Jag'ini yegan(ko'p gapiradigan).

*Qоshig'аnъ аytib qаlмѣq* - Qo'shig'ini aytib qolmoq (charchab qolmoq).

*Вирѣдѣ тѣhorатигѣ нѣмѣз оq'уyдѣ* - Birovdi tahoratiga nomoz o'qiydi(Qash.). *Текѣn bosа,*  
*mаx yut* - Tekin bo'sa, mix yut.

*аxмоqqa Quva бѣr tаsh* - Axmoqqa Quva bir tosh (Qo'qon sh.)

*Lаlѣgа sаllъ* - Laliga solli (noz qildi).

*Shаyтѣngа dаrs berаdi* - Shaytonga dars beradi (hiylakor odam).

*Kozъ kokаrdъ* - Ko'zi ko'kardi (toqati toq bo'ldi). Demak, shevalarning frazeologik lug'atini tuzish uchun ularni guruhlab yig'ish va izohlab borish shart.

O'zbek shevalarini o'rganishda lug'atlar. Darhaqiqat, o'zbek shevalari o'z hamda o'zlashgan qatlamlardan iborat bo'lgan va adabiy tildagi so'zlardan dialektal ma'nolari bilan jiddiy farqlanadigan, benihoya katta hajmdagi so'zlikka ega. Ularning hammasini bir - lug'atda berib bo'lmasligi tabiiy holdir. Bulardan anglashilib turibdiki, 1971-yilda nashr etilgan "O'zbek xalq shevalari lug'ati" ga kirmay qolgan, ammo shevalarimizda mavjud bo'lgan quyidagi so'zlarning guruhlari ham bor:

1. Etnografik-dialektal so'zlar. "O'zbek adabiy tilida ham, shevalarimizda ham xalqimizning asrlar davomida shakllangan juda qadimgi turmush tarzi, urf-odatlar, moddiy va ma'naviy madaniyati bilan aloqador ko'pgina so'z, terminlar mavjud. Lekin bu xil so'zlar - adabiy tildagi etnografizmlar ham, adabiy til va shevalar uchun mushtarak bo'lgan adabiy-dialektal etnografizmlar ham, faqat sheva, dialektlarga xos etnografik so'zlar ham bir-birlaridan farqlangan holda tadqiq etilmagan. Xullas, dialektal lug'atga faqat shevalardagina qo'llanadigan etnografizmlar kiritiladi va ular qanchalik ko'p bo'lsa, dialektal lug'atning qimmatini shunchalik



ortadi"<sup>4</sup>. Bunday soʻzlar adabiy tilda kam, shevalarda anchagina. Demak, etnografik-dialektal soʻzlarning dialektal lugʻatlarini tuzish lozim.

2. Leksik-semantik dialektal soʻzlar. "Sheva, dialektlardagi soʻzlar adabiy tildagi, shuningdek, boshqa biror sheva, dialektidagi xuddi o'sha xil soʻzlardan ma'nosiga ko'ra farqlanadigan bo'lsa, ular leksik-semantik dialektlar soʻzlar guruhini tashkil etadi. Masalan, adabiy til va shevalarda mavjud bo'lgan aka so'zi ayrim shevalarda "ota" va hatto "pochcha" ma'nolarida qo'llanadi. Yoki adabiy tildagi va shevalardagi "dars" (urok) so'zi Xorazm va Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarida "mahalliy o'g'it, go'ng" ma'nolarida uchraydi. Ko'pchilik hollarda bu xildagi soʻzlarning har ikkalasi ham sheva vakillari tomonidan qo'llanadi va ularning ma'nolari nutq jarayonida tushinarli bo'ladi.

Qiyoslang, *pəshə* (Sayram, Chimkent, Forish, Andijon) ~ *pəshshə* (Xorazm-qipch., Qoraqalpoq-o'zb., Buxoro, Farg'ona) ~ *pəshshe* (Xorazm-o'g'uz) ~ *pə:shə* (Iqon) - *chivin* (komar), *chъbъn* (Xorazm-qipch., Qoraqalpoq - o'zb.) ~ *chъvъn* (Xorazm-o'g'uz) ~ *chыбын* // *chыvын* (Buxoro) ~ *chi:vin* (Qoramurt) ~ *chu:n* (Shahrisabz) - *pəshshə* (muxa). Sh. Rahmatullayev "dialektizm-ma'no" deb atagan bu xil soʻzlar<sup>5</sup> leksik-semantik dialektal soʻzlar sifatida dialektal lugʻatga kiritiladi"<sup>6</sup>.

3. Leksik-fonetik dialektal soʻzlar, ya'ni shevada jiddiy fonetik o'zgarishlarga uchragan soʻzlar. F.A. Abdullayev "...fonetik o'zgalik ma'nodagi o'zgalik bilan bog'liq bo'lsa, bunday soʻzlar lugʻatga kiritilishi kerak", - deydi. Ayrim dialektologlarimiz esa dialektal lugʻatda "fonetik o'zgarishli, ammo ma'no o'zgaligiga ega bo'lmagan soʻzlar mustaqil so'z sifatida berilmaydi", - deyishadi. Bu fikrga qo'shilish qiyin, chunki shevalarimizda mavjud bo'lgan xilma-xil fonetik hodisalar sababli adabiy tildagi ba'zi soʻzlar shu qadar o'zgarib ketadiki, hatto ularning qanday so'z ekanligini izohsiz aniqlab bo'lmaydi:

a) Qashqadaryo, Surxondaryo va boshqa shevalarda *jdav* so'zi bor. Bu so'z y->dj- hamda -g' >-v tovushlari o'zgarishi tufayli sodir bo'lgan adabiy tildagi *yog'* so'zining aynan o'zidir;

b) Oshobo shevasida *burgulte*, *olta* kabi soʻzlar mavjud. Aslida ular *-tl- -lt-* metatezasi va soʻzlar oxiridagi *-r* undoshining tushishi natijasida sodir bo'lgan, ma'noda farqlanmaydigan *burgutlar*, *o'tlar* (travy) soʻzlaridir. Xo'sh, *djav*, *olta* singari fonetik o'zgarishga uchragan soʻzlarni dialektal lugʻatga kirtimaslik kerakmi? Bu xil soʻzlar dialektal lugʻatlarda berilmasa, qaysi xildagi lugʻatlarda beriladi? Umuman shevalarimizdagi *kerye-qariya*, *koyeg-kuyov* kabi fonetik qiyofasi o'zgartirgan soʻzlar hamda *lapıda - rapıda*, *zəlal - zarar* singari dialektizmlar dialektal lugʻatdan o'rin olmog'i lozim".

4. Leksik-derivatsion dialektal soʻzlar. "Adabiy tilda yoki faqat shevalarda mavjud bo'lgan xilma-xil so'z yasovchi affikislar shevalardagi so'zlanga yoki adabiy til va shevalar uchun

<sup>4</sup> Ishayev A. Shevalar lugʻatiga kiritiladigan soʻzlar // OʻTA. 1988 yil, 2-soni. 37-42-betlar.

<sup>5</sup> Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1975. 50-bet.

<sup>6</sup> A. Ishayevning yuqoridagi asariga qarang.

mushtarak soʻzlarga qoʻshilishi natijasida sheva, dialektlarda adabiy tilda uchramaydigan dialektal soʻzlar vujudga keladiki, ularni "leksik-derivatsion dialektal soʻzlar" deb atagan maʼqul".

5. Morfologik-dialektal soʻzlar. "Adabiy til va shevalardagi soʻz oʻzaklariga forma yasovchi affikslarni qoʻshish orqali vujudga kelgan morfologik-dialektal soʻzlar turli xil boʻlib, ular, odatda, forma yasovchi affikslarning birgalikda qoʻllanishi, turli xil fonetik oʻzgarishlarga uchrashi yoki faqat shevalarga xos forma yasovchi affikslarning qoʻshilishi natijasida shevalarda (adabiy tilda uchramaydigan) *opangʻab* - opanglar; *otaluʻb* // *ataluʻb* - otalari; *hammalʻbys* - hammalari singari anchagina morfologik dialektal soʻzlar paydo boʻlgan".

6. Frazeologik-dialektal iboralar. "Oʻzbek sheva, dialektlarida mavjud boʻlgan, adabiy tilda uchramaydigan yoki uchrasa ham maʼnoda farqlanadigan frazeologik iboralar, birikmalar bir butun, yaxlit holdagina biror maʼnoni, odatda, qoʻshimcha koʻchma maʼnoni anglatadiki, ularni dialektal lugʻatda qay tarzda bermoq kerak? Qozoq, boshqird, qoraqalpoq tili shevalariga oʻzi reestr soʻz sifatida berilgan. Tatar, yoqut shevalariga oid lugʻatlarda esa ular bir butun holda berilmay, odatda, undagi birinchi soʻz tariqasida berilgandan keyin frazeologik iboraning oʻzi qayd etilgan. Xullas, lugʻatlar tuzish qiyin, lekin savobli ish. Leksikologiya sohasida qilingan ishlar baʼzan unutilishi mumkin, biroq leksikografiya boʻyicha bajarilgan ishlar - tuzilgan yaxshi lugʻatlar hech qachon unutilmaydi. Shunga koʻra, dialektal lugʻat tuzuvchilari oldida turgan eng muhim vazifa shevalarimizdagi mavjud dialektal soʻzlarni xalqimiz soʻz boyligini oʻziga xos xazinasini boʻlgan dialektal lugʻatlarda qayd etib, kelgusi avlodlar uchun saqlab qolishdan iborat".

7. Kitobiy uslubga xos boʻlgan soʻz hamda terminlar.

8. Sheva vakillari maʼnosiga tushunmaydigan diniy aqidalarga oid (oʻzlashgan) soʻzlar va iboralar.

9. Varvarizm, parnografik (maʼnodagi) soʻzlar.

10. Adabiy tilda mavjud boʻlgan professionalizmlar va terminologik leksika.

11. Fonetik (oʻzgarishga uchragan) dialektizmlar.

Shuningdek, shevalarimizning hozirgi holatida shevalararo leksik farqlarni, bir tushunchani ifodalovchi shevalararo soʻzlarning adabiy tilga munosabatini chuqur ilmiy asosda aniq belgilab olish mumkin emasligi tabiiy holdir. Bunday qilish uchun esa shevalarimizning koʻp tomli lugʻatini shakllantirish va nashr etish shartdir. Yuqoridagilarni rejali tarzda amalga oshirish shevalarimizning bugungi leksik, fonetik, morfologik, semantik, frazeologik boyligini bir butun holda saqlab qolish demakdir. Bular esa oʻzbek shevalarining leksik xususiyatlarini jiddiy oʻrganishni va koʻp tomli "Oʻzbek xalq shevalari lugʻati"ni tayyorlab, oʻzbek xalqi shevalariga xos soʻzliklarni guruhlarga boʻlgan holda toʻplab, nashr etish lozim.

Dialektal leksikografiyaga oid materiallar:

Shu oʻrinda dialektal lugʻatlarning quyidagi turlarini toʻplanadigan dialektal matn va materiallar asosida shakllantirish mumkin:

- 1.Sof dialektal lug'at (bu ko'p tomli lug'at bo'ladi)
- 2.Morfologik dialektal lug'at.
- 3.Morfologik dialektal o'quv lug'ati.
- 4.Leksik-derivatsion dialektalizmlar lug'ati.
- 5.Leksik-derivatsion dialektalizmlarning o'quv lug'ati.
- 6.Leksik-fonetik dialektal lug'at.
- 7.Leksik-fonetik dialektal o'quv lug'ati.
- 8.Dialektal frazeologik lug'at.
- 9.Dialektal frazeologizmlarning o'quv lug'ati.
- 10.Leksik-semantik dialektal lug'at.
- 11.Leksik-semantik dialektal o'quv lug'ati.
- 12.Etnografik dialektal lug'at.
- 13.Etnografik dialektal o'quv lug'ati.
- 14.Teskari dialektal lug'at.
- 15.Teskari dialektal o'quv lug'ati.
- 16.Dialektal sinonimlar lug'ati.
- 17.Dialektal sinonimlarning o'quv lug'ati.
- 18.Dialektal omonimlar lug'ati.
- 19.Dialektal omonimlarning o'quv lug'ati.
- 20.Dialektal antonimlar lug'ati.
- 21.Dialektal antonimlarning o'quv lug'ati.
- 22.Dialektal paronimlar lug'ati.
- 23.Dialektal paronimlarning o'quv lug'ati.
- 24.Dialektal laqablar lug'ati.
- 25.Dialektal laqablarning o'quv lug'ati.
- 26.Badiiy asarlardagi dialektizmlarning o'quv lug'ati.
- 27.Badiiy asarlardagi dialektizmlar lug'ati.

28. Tarixiy badiiy asarlardagi dialektizmlarning o'quv lug'ati.
29. Tarixiy badiiy asarlardagi dialektizmlar lug'ati.
30. Tarixiy asarlardagi dialektizmlarning o'quv lug'ati.
31. Tarixiy asarlardagi dialektizmlar lug'ati.
32. Dramatik asarlardagi dialektizmlar lug'ati.
33. She'riy asarlardagi dialektizmlar lug'ati.
34. Prozaik asarlardagi dialektizmlar lug'ati.
35. Folklor asarlardagi dialektizmlar lug'ati.
36. Maxsus dialektizmlarning (toponimik) o'quv lug'at.
37. Maxsus dialektal (toponimik) lug'at.
38. Maxsus dialektal (antroponimik) lug'at.
39. Maxsus dialektizmlarning (antroponimik) o'quv lug'ati.
40. Dialektal maqollarning o'quv lug'ati.
41. Dialektal maqollar lug'ati.
42. Dialektal qarq'ishlar lug'ati.
43. Dialektal tez aytishuvlarning o'quv lug'ati.
44. Dialektal tez aytishuvlar lug'ati.
45. Zoonimlarning o'quv dialektal lug'ati.
46. Zoonimlarning dialektal lug'ati.
47. Ortotonim(qush nom)larning o'quv dialektal lug'ati.
48. Ortotonim(qush nom)larning dialektal lug'ati.
49. Fitonimlarning dialektal o'quv lug'ati.
50. Fitonimlarning dialektal lug'ati.
51. Dialektal qo'shimchalarning o'quv lug'ati.
52. Dialektal qo'shimchalarning lug'ati.
53. Dialektizmlarning etimologik lug'ati.
54. Dialektizmlarning etimologik o'quv lug'ati.

### 3. Ko'p tomli o'zbek shevalarining dialektologik atlaslarini yaratish:

3.1. O'zbek shevalarining o'quv dialektologik atlaslari.

3.2. O'zbek shevalarining dialektologik atlaslari.

3.3. O'zbek shevalarining mukammal dialektologik atlaslari.

Demak, shevalarimiz leksikasi va leksikografiyasida hal qilinishi lozim bo'lgan bir qancha masalalar bor, ularni talqin, tahlil qilish vositasida yuqoridagi masalalarning hal qilinishiga imkoniyat tug'ildi. Bu narsa albatta yosh shevashunoslarimiz amaliy tajriba o'rtirgan holda, shu tajribalariga tayanib sharafli mehnat qilishlariga to'g'ri keladi.

#### Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
2. Reshetov V. V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
3. To'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
4. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – T.: "Navro'z", 2016.
5. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: TDP, 2011, 2013.
6. Enazarov T., Karimjonova V. va boshqalar. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.

#### Internet saytlari

1. [www.turk.dili.google.com.tr](http://www.turk.dili.google.com.tr)

2. [http://www.ut.uz/eng/today/europe\\_recognizes\\_her\\_discovery\\_mgr](http://www.ut.uz/eng/today/europe_recognizes_her_discovery_mgr)

3. <http://www.schneid9.de/sprache/linguistik/ling11.pdf>

4. <http://www.uni-leipzig.de/~fsger/materialien/Texte/Lexikologie.pdf>

5. [www.dersimiz.com](http://www.dersimiz.com)

6. [www.altinmiras.com](http://www.altinmiras.com)

Reja:

1. O'zbek shevalarida grammatik son va egalik kategoriyasi.
2. O'zbek shevalarida kelishik kategoriyasi.
3. So'z turkumlaridagi ayrim o'ziga xosliklar.

Tayanch tushunchalar: shevalarining morfologik va sintaktik xususiyatlari, shevalarda grammatik son kategoriyasi, shevalarda egalik kategoriyasi, shevalarda kelishik kategoriyasi, shevalarda so'z yasalihi

O'zbek shevalarining morfologik va sintaktik xususiyatlari haqida to'la ma'lumot berish qiyin, lekin bu masalalarning eng umumlashadigan, tadqiqot obyekti o'rganishga asos bo'ladigan o'rinlarini qayd qilish mumkin. O'zbek adabiy tilidagi so'z turkumlari, gap bo'laklari shevalarda alohida xususiyatga ega emas, balki uning ichki shakli va kategoriyalari, yozib olingan matnlarning sintaksisi haqida fikr yuritish mumkin.

Grammatik son kategoriyasi. Sof ko'plik ma'nosini ifodalashda shevalarda *-larp ~ lar, -lap ~ lar, -narp ~ nar, -nar ~ nar, -nə ~ na, -əp ~ ar, -ə ~ a, -lə ~ la, -la ~ la, -darp ~ dar, -dap ~ dar, -tarp ~ tar, -map ~ tar* kabi ko'plik qo'shimchalari qo'llanadi.

O'zbek shevalari uchun *-larp ~ lar* arxivariant hisoblanadi va u barcha o'zbek shevalarida qo'llanadi.

*-lə ~ la* affiksi Toshkent shahar va Xorazm shevalarida faol qo'llanadi: uylar ~ *ойлә ~ oyla*, qo'yinglar ~ *қойъйлә ~ qo'iyila*, gullar ~ *гүллә ~ gulla*, kunlar ~ *күллә ~ kulla*.

*-нə ~ na* affiksi Namangan shevasida qayd qilinadi: uyinglar ~ *уйъйна ~ uyiyuna*, qo'yinglar ~ *қойъйна ~ qo'iyuna*.

*-la ~ la* varianti esa Xorazm shevalarida uchraydi: qizlar ~ *қы:зла ~ qiz:zla*, ular ~ *һула ~ hula*.

*-əp/ar ~ a/ar* affiksi shahar va shahar tipidagi shevalarida qo'llanadi: bizlar ~ *бъээ ~ biza*, sizlar ~ *съээ ~ siza*.

*-narp ~ nar, -nar ~ nar, -darp ~ nar, -dap ~ dar, -tarp ~ tar, -map ~ tar* affikslari qipchoq shevalarida qo'llanadi: uzumlar ~ *үзүмнар ~ uzmnar*, mehmonlar ~ *мехманнар ~ mehmannar*, jigittlar ~ *джъгъттәр / джъгълләр ~ j igittar / jigillar*, oyinlar ~ *ойундар ~ oyundar*.

O'zbek tilining Qorabuloq, Iqon shevalarida tarixiy qo'sh ko'plik shakli uchraydi: bular ~ *булалар ~ bulalar*, shular ~ *шулалар ~ shulalar* (aynan: *bu+lar+lar, shu+lar+lar*)

*-larp ~ lar* affiksi va uning variantlari Toshkent, Farg'ona va Xorazm shevalarida hurmat ma'nosini ham ifodalaydi.

Ayrim shevalarda ko'plikning jamlik turini ifodalovchi maxsus affikslar ham bor, masalan, Toshkent dialekti shevalarida *-lyz* ~ *lug* affiksi oz ~ o3 ~ oz, uy ~ oy ~ oy kabi so'zlarga qo'shilib, ko'plik. jamlik ma'nolarini anglatgan: o'zlari ~ o3lyz ~ *ozlugi*, uylari ~ o3lyz ~ *oylugi*; -z ~ gi affiksi shaxsni bildiruvchi so'zlarga qo'shilib, jamlik ma'nosini anglatadi: *o3lyz* ~ *oyimgila* (bu o'rinda oyisi va boshqa shaxslar birgalikda tushuniladi), *adamz* ~ *adamgila* (bu o'rinda ham adasi va boshqa shaxslar birgalikda tushuniladi).

Til tarixida ko'plikning *-m* ~ *t*, *-z* ~ *z*, *-q/k* ~ *q/k* affikslari bilan ifodalangan shakllari qo'llangan. Ularning qoldiqlari, ya'ni *-q* ~ *q* affiksining *-aq* ~ *aq* varianti Surxondaryonining Jarqo'rg'on, Termiz, Sherobod tumanlarida yashovchi qo'ng'irotlar shevalarining ayrim so'zlarida saqlanib qolmoqda. Ular, asosan, olmosh va fe'l shakllarida uchraydi: Sizlar barp keldingizlarmi ~ *o3aq barp ked'z* ~ *aqm* ~ *siz-aq barip keldiziz-aqmi*? O'zingizlar ~ *o3z* ~ *uziziz-aq*. Bu affikslar ko'plik ma'nosini eslatib tursa-da, ular ushbu o'rinlarda mavjud ko'plikni ta'kidlashga xizmat qilgan.

Egalik qo'shimchalari. Bu kategoriyaning ma'nolari ham adabiy tildagi ma'nolariga muvofiq keladi, lekin shevalarda egalik qo'shimchalari ko'p variantli bo'ladi va shu bilan ular adabiy tildan farqli xususiyatlarga ega bo'ladi.

I shaxs birligi: *-m/ym/um/ym* ~ *m/im/um/m*: balam ~ *balam* ~ *balam*, inim ~ *inim* ~ *inim*, alim (qo'lim) ~ *alim* ~ *alim*, jonim ~ *jonim* ~ *janim*, qo'lim ~ *qolim* ~ *qolum*, ko'nglim ~ *kunglum* ~ *kunglum*;

I shaxs ko'pligi: *-mz* / *mz(c)* / *ymz* / *mz(c)* ~ *miz* / *miz(s)* ~ *imiz* / *imiz(s)*, *-umz* / *umz(c)*, *-vuz* / *vuz* ~ *umuz* / *mz(s)*, *-vuz* / *vuz*: *balamiz/s* ~ *balamiz/c* ~ *balamiz/s*, *inimiz* ~ *inimiz/c* ~ *inimiz/s*, *jonimiz* ~ *jonimiz/c* ~ *janimiz/s*, *qolimiz* ~ *qolimiz/c* ~ *qolimiz/s*, ko'nglimiz ~ *kunglimiz/c* ~ *kunglimiz/s*, *ishimiz* ~ *ishimiz(a)* ~ *ishlavuz(a)*;

II shaxs birligi: *-n/yn/yn/yn* ~ *n/iz/iz/iz*: *bolang* ~ *balan* ~ *balaz*, *ining* ~ *in* ~ *iniz*, *aling* / *qo'ling* ~ *al* ~ *aliz*, *joning* ~ *jan* ~ *janiz*, *qo'ling* ~ *qolun* ~ *qoluz*, ko'ngling ~ *kungun* ~ *kungiz*;

II shaxs ko'pligi: *-nz* / *nz(c)* ~ *niz* / *niz(s)*, *-ynz* / *nz(c)* ~ *iniz* / *iniz(s)*, *-unz* / *unz(c)* ~ *uz* / *uz(s)*, *-uz* ~ *iz*, *u:ilna* ~ *i:yla*, *(-y)nl* / *(y)nl* ~ *(i)zla* / *(i)zla*: *balangiz* ~ *balanz/c* ~ *balanz/s*, *iningiz* ~ *inanz/s* ~ *iniziz*, *joningiz* ~ *jananz/s* ~ *jananz/c*, *qolingiz* ~ *qolunz/s* ~ *qoluniz/s*, ko'nglingiz ~ *kungunz* ~ *kungiz*, *ishinglar* ~ *ishanz* ~ *ishanzla*, *uyinglar* ~ *uyanz* ~ *oyinglar*, *qo'linglar* ~ *qolnla* ~ *qolinla*;

III shaxs birlik va ko'pligida *-y/i*, *-s/s* ~ *si/si*, *ba'zan* *-sy/sy* ~ *su/su* affiksi variantlari qatnashadi: *bolasi* ~ *balas* ~ *balasi*, *inisi* ~ *in* ~ *inisi*, *ali* (qo'li) ~ *ala* *a-li*, *jon* ~ *jan* ~ *jan*; *tulkisi* ~ *tulkisy* ~ *tlkisi*, *qoyi* ~ *qoy* ~ *qoyu*.

Egalik affikslari variantlarining bunday shakllari singarmonizmning palatal va labial turlari qonuniyatlari to'la sakllangan o'rinlarda qayd qilinadi, lekin shevalarda biror qonuniyat bilan bog'lash mumkin bo'lmagan xususiyatlar ham uchraydi. Masalan, Toshkent shevasida I shaxs ko'pligida *-vuz* / *vuz* ~ *vuz* / *vuz* affiksi qatnashadi: *kitobimiz* ~ *kitovuvuz*, II shaxs

ko'pligida esa -ъз / зъз / йлэ ~ i:z / iyla / yla affiksi qatnashadi: kitobingiz ~ кѣтѣпъ:з ~ kitəpi:z, kitoblaring ~ кѣтѣпъйла ~ kitobiyla .

Kelishik kategoriyasi. Ma'lumki, turkiy tilning dastlabki taraqqiyot davrida 7 ta kelishik shakli bo'lgan, hozirgi o'zbek adabiy tilida 6 ta kelishik shakli qo'llanadi. O'zbek shevalarida esa ba'zan bu raqam to'rttagacha kamayishi mumkin. Faqat qipchoq hamda shimoliy o'zbek shevalaridagina 6 ta kelishik shakli iste'molda bor. O'g'uz lahjasining aksariyat shevalarida, Toshkent, Farg'ona shevalarida 5 ta kelishik qo'llanadi, ya'ni qaratqich va tushum kelishiklari bir ko'rsatkich bilan ifodalanaadi. Qarshi, Buxoro, Surxondaryoning "й~j" lovchi shevalarida 4ta kelishik qayd qilinadi, ya'ni qaratqich va tushum kelishiklari bitta ko'rsatkich bilan, jo'nalish va o'rin-payt kelishigi ham bitta ko'rsatkich bilan ifoda qilinadi. O'zbek shevalarida kelishik qo'shimchalarning quyidagi variantlari qayd qilinadi:

Bosh kelishik: Ko'rsatkichi yo'q.

Qaratqich kelishigi. Bu kelishik qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining aksariyat shevalarida, o'g'uz lahjasining ayrim shevalarida funksional emas. Bu kelishik qo'llaniladigan shevalarda quyidagi affikslar qatnashadi:

-пѣн/пѣ ~ niз/niз: ena ~ енѣпѣ ~ enaniз, otaning ~ атапѣ ~ ataniz (qipchoq)

-ън/н ~ iз/iз: ko'pning toyi ~ кѣпѣн мойу ~ kupiz toyi, otning boshi ~ атн башу ~ atiz bashi (qipchoq);

-пун/пун ~ пз/пиз: uning ~ онун ~ олуз, uying ~ уйнун ~ uyniz (qipchoq);

-ун/ун ~ з/уз: ko'zning qorachig'i ~ кѣзун қарачиг'и ~ kuzz qarachig'i, tunning qorong'usi ~ тунун қарақиси ~ tunz qaranchisi, qo'yning juni ~ қойун йунь ~ qoyuz juni (shim.o'zb. shev.).

-дѣн/дѣ ~ диз/диз: bizning ~ бѣздѣн ~ bizdiz, ularning ~ олардѣ ~ olardiz (qipchoq);

-дун/дун ~ дз/дуз: qo'yning ~ қойдун ~ qoyduz, ko'zning ~ кѣздун ~ kuzdz (qipchoq);

-тѣн/тѣ ~ тиз/тиз: katakning ~ кѣтѣхтѣн ~ kaxatiz, otning ~ аттн ~ attiz (qipchoq).

Tushum kelishigida quyidagi affikslar qatnashadi:

-нѣ/н ~ ni/ni affiksi barcha shevalarda qo'llana oladi: olmani ~ элмѣн ~ elmani (Toshk.), suvni ~ сувн ~ suvni (qipchoq);

-ъ ~ i affiksi Qorako'l va Olot shevalarida amalda bor: ishni qil ~ u:шъ qil ~ i:shi qil, so'zni bilmasang gapirma ~ сѣзъ бѣлмѣсѣн гѣпѣрма ~ suzi bilmasan gapirma;

-нун/нун ~ n/nu affiksi Qorabuloq, Mankent shevalarida uchraydi: qo'zini ~ қозуну ~ qozunu, tulkini ~ тулкуну ~ tlkni;

-дѣ/д/тѣ/м ~ di/di/ti/ti affiksi barcha singarmonizmli shevalarda qo'llanadi: tog'ni ~ тѣвѣду ~ tavdi, yigitlarni ~ джѣгѣттѣрдѣ ~ jigittardi, otni ~ аттн ~ atti, mehnatkashni ~



мъйнәткәштъ ~ *mihnatkashti*. -дъ/тъ ~ *di/ti* varianti Farg'ona guruh shevalarida ham qo'llanadi: уьни ~ *уйдъ* ~ *uydi*, ishni ~ *ыштъ* ~ *ishti*.

Aksariyat shevalarda tushum kelishigi affiksidadagi н ~ n undoshi kuchli assimilatsiyaga uchraydi. Bu ayniqsa Toshkent shevasida yaqqol ko'rinadi: qo'lni ~ *qоллъ* ~ *qolli*, boshni ~ *bоshshi* ~ *beshi*.

Tushum kelishigining belgisiz qo'llanishi barcha shevalarga xosdir: Biz keldik kelin ko'rgani ~ *бъз келлѣй келѣн корганъ* ~ *biz kellik kelin ko'rgani*. Chymchuq soysayam qassob soysin ~ *chumchuq soysayam qassop soysin* (Qarshi).

Jo'nalish kelishigida quyidagi affixklar ishtirok etadi:

-гә/кә/қа/г'а ~ *-ga/ka/qa/za* affiksi. Bu affiksning barcha variantlari singarmonizmli shevalarda qo'llanadi. Singarmonizmi yo'qotgan shevalarda -гә/кә ~ *ga/ka* varianti qo'llanadi: уьга ~ *уйгә* ~ *uyga*, ishga ~ *ышкә* ~ *ishka*; -қа/г'а ~ *qa/za* varianti singarmonizmli shevalarda orqa qator unlilar kelgan negizlarga qo'shiladi: o'qishga ~ *оqышга* ~ *oqushqa*, dalaga ~ *далага* ~ *dalaga*.

-а/ә ~ *a/a* affiksi o'g'uz guruh shevalarida va shimoliy o'zbek shevalarida qo'llanadi: qo'limga ~ *qолма* ~ *qo'lima*, gullarga ~ *гүлләрә* ~ *gullara*.

-на/нә ~ *na/na* affiksi o'g'uz shevalarida uchraydi: alina (qo'liga) ~ *әлнә* ~ *alina*, bolasiga ~ *баласина* ~ *balasina*,

-йә/йә ~ *ya/ya* affiksi Qarshi shevasida uchraydi: xurmaga ~ *хурмайә* ~ *xurtmaya*, o'ziga ~ *өзъйә* ~ *uziyo*, U katta akasiga xurmada qatig olib borgan chog'da yo'lda yomg'ir yog'gan ~ *O kәттә әкәсъйә хурмәйә қатѣх әб бәгән чәхгә йәлгә йәг'мур йәqqән* ~ *O katta akasiya xurtmaya qatig eb bergan vaxga jolga jagmur jaqqan*.

Jo'nalish kelishigi affixlari 4 kelishikli shevalarda o'rin-payt kelishigi ma'nosini ham ifodalaydi. Bu yuqoridagi *хурмайә* ~ *xurtmaya*, *чәхгә* ~ *choxga*, *йәлгә* ~ *yolga* misollarida ham ko'rinib turibdi.

O'g'uz lahjasi shevalarida va shimoliy o'zbek shevalarida jo'nalish kelishigidagi kishilik olmoshlari menga ~ *маңа* ~ *maza*, senga ~ *саңа* ~ *saza*, unga ~ *уңа* ~ *uza* shaklida, qipchoq lahjasi shevalarida esa *маг'ан* ~ *mazan*, *саг'ан* ~ *sagan*, *ог'ан* ~ *ozan* ko'rinishiga ega.

O'rin-payt kelishigida -дә / да / тә / та ~ *-da / da / ta / ta* affiksi qatnashadi. -дә / тә ~ *da / ta* affiksi barcha shevalarda, -да / та ~ *da / ta* affiksi esa singarmonizmli shevalarda keladi: ishda ~ *ыштә* ~ *ishta*, qo'lida ~ *qолуда* ~ *qo'luda*, ichida ~ *и:чъндә* ~ *i:chinda*, shu orada ~ *шu орталукта* ~ *shu ortaliqta*.

Chiqish kelishigida 4 toifa affixlar ishtirok etadi:

-дән / дан / тән / ман ~ *dan / dan / tan / tan* affiksining qo'shilish imkoniyatlari keng: -дән / тән ~ *dan / tan* affiksi barcha shevalarda qo'llana oladi: Buxorodan ~ *Бухәрәдән* ~

*Вухердан*, sendan ~ *сэндэн* ~ *sandan*. Boshqalari esa singarmonizmli shevalarga xosdir: yuproq'idan ~ *йпроқадан* ~ *йграқдан*, taxlyqadan ~ *махлықтан* ~ *taxlyqtan* (qipchoq);

-нэн / нан ~ *nan/nan* affiksi Xorazm shevalarida m, n, ng(n/n) tovushlari bilan tugagan sozlarga qo'shiladi: o'zingdan ~ *өзңнән* ~ *uziznan*, bo'yingdan ~ *бойңнан* ~ *boyunnan*.

-дын / дн / тын / тн ~ *din / din / tin / tin* affiksi shimoliy o'zbek shevalarida bu kelishikning asosiy affiksidir: sutchidan ~ *сүйтчөдын* ~ *suytchidin*, oshxonadan ~ *ашханадн* ~ *ashxanadin*, tora olmasdan ~ *тапамасдн* ~ *tapamastin*, Chimkentdan ~ *Чымгәттән* ~ *Chymgattyn*.

-дун / дун / тун / тун ~ *dun / dn / tun / tn* affiksi ko'proq Qorabuloq, Mankent shevalarida va bir qator singarmonizmli shevalarda qo'llanadi: uydан ~ *үүдүн* ~ *uydn*, qo'ydan ~ *қойдун* ~ *qoydun*.

O'g'uz va qipchoq lahjasi shevalarida egalik va kelishik affiksarlari o'rtasida interkalyar n tovushining kelishi ham kuzatiladi: qo'llarida ~ *қолларнда* ~ *qollarında*, so'zidan ~ *сөзһнән* ~ *suzinnan*, o'zida ~ *өзһндә* ~ *uzinda*.

Shevalarda modal shakllar. O'zbek shevalarida ot, sifat, fe'l turkumlarining ichki kategoriyalarida shevalarning xususiyatlarini ko'rsatadigan so'z shakllari ham bor. Quyida ot turkumidagi shunday shakllar bilan tanishamiz:

-джн / jon affiksi Farg'ona vodiysi shevalarida erkaklar ismiga qo'shilib, hurmat ma'nosini ifodalasa, Xorazm shevalarida -*джан* / *jan* shaklida qizlar (ayollar) ismlariga qo'shiladi. -хн / хон affiksi Toshkent, Farg'ona vodiysida erkaklar ismlariga qo'shilganda, hurmat, nasl-nasabga aloqadorlik mazmunini ifoda qiladi. Xorazmda esa erkaklarga hurmat ifodalash uchun -*бай* / *bay* affiksidan foydalaniladi.

Shimoliy o'zbek shevalarida va ayrim qipchoq, o'g'uz shevalarida yoshi kattalarni hurmat qilib, ularning nomini qisqartirib chaqirish keng tarqalgan: Qurbon aka ~ *Қурәкә* ~ *Quraka*, Sobir aka ~ *Сәкә* ~ *Saka*, Toshpo'lat aka ~ *Тәшәкә* ~ *Tashaka* kabi. Bu qozoq va qoraqalpoq tillarining ta'siri bo'lishi mumkin. Yoshi kichiklagini erkab yoki izzat qilib, qisqartirilgan so'z oxiriga sh, m, n kabi undoshlarni qo'shib talaffuz qilish an'anasi bor: Otajon ~ *Аташ* ~ *Atash*, Dadaxon ~ *Дадән* ~ *Dadan*, Eshmuhammad ~ *Ешәм* ~ *Eshim* kabi.

Shevalarda -ч/ш ~ *ch/sh* affiksi ayollarni, qizlarni erkalash uchun qo'llanadi: bikajon ~ *бькәч* ~ *bikach*, onajon ~ *анәч* ~ *anach* (Xorazm), Onajon (ism) ~ *Анаш* ~ *Anash* (shim. o'zb. sh.).

Erkalash-kichraytirish ifodalovchi -ча affiksi aksariyat shevalarda, xususan, shimoliy o'zbek shevalarida qo'llanmaydi, balki adabiy tilning ta'sirida shevalarda paydo bo'lmoqda.

Sifat. Sifatlardagi adabiy tilga xos aksariyat so'zlar, affikslar shevalarda ham ba'zi fonetik o'zgarishlar bilan qo'llanadi, jumladan, sariq ~ *сару* ~ *sari* (qipchoq, o'g'uz), issiq ~ *u:ssә* ~ *i:ssi*, qora ~ *qара* ~ *qara* (qipchoq, o'g'uz), qattiq ~ *qәтмү*: ~ *qattu*: (Toshkent). Sifat darajalaridagi juda ~ *джә* ~ *dja* (aksariyat shevalarda), eng ~ *u:ң* ~ *i:ng* (Qarshi), belgining kamligini ifodalovchi -roq affiksi -*рәқ* ~ *raq*, -*рақ* ~ *raq*, -*рәк* ~ *rak* variantlariga ega va boshqalar. Shu bilan birga shevalarning o'z affiksarlari ham bor. Qipchoq lahjasining aksariyat shevalarida va shimoliy o'zbek

shevalarida sifatlardagi belgining kamligi *-лэу(ə) / лая(ə) ~ la(v) / lay(v)* affiksi bilan ifoda qilinadi: oqroq ~ *aqRAY(ə) ~ aqlay(v), көккэлэу(ə) ~ kukla(v)*.

Belginin ortiqqligini ifodalashda Xorazm shevalarida *зил ~ zil* soʻzidan foydalaniladi: qopqora ~ *зил qapa ~ zil qara, sap-sariq ~ zil capu ~ zil sari*.

Son. Sodda va murakkab sonlarning qollanishida farqlar yoʻq. Ayrim sonlarning talaffuzidagina farqlar qayd qilinadi: ikki ~ *экь ~ aki* (Margʻulon), yeti ~ *йэдь ~ yedi*, ellik ~ *элль ~ alli* (Xorazm), yeti ~ *джетъ ~ jeti* (qipchoq) va boshq.

Sonning maʼno turlarini hosil qilishda oʻziga xosliklar koʻzga tashlanadi.

Shimoliy oʻzbek shevalarida dona son hosil qilinmaydi, yaʼni sonning qoʻshimchasiz holati dona sonni ham bildiradi, bu shaklda oʻgʻuz lahjasi shevalarida *дэнэ ~ dana* sozidan foydalaniladi: ikkita ~ *эккэ дэнэ ~ ikki dona*, uchta ~ *үч дэнэ ~ uch дэнэ*. Jamlik son Xorazm shevalarida ikkalasi ~ *иккэсь ~ ikkisi*, uchalasi ~ *үчэсь ~ uchisi* kabi shakllar orqali ifoda qilinadi.

Olmosh. Kishillik olmoshlari aynan yoki qisman fonetik oʻzgarish bilan shevalarda qoʻllanadi, yaʼni oʻgʻuz va shahar shevalarida men ~ *мэн ~ man*, sen ~ *сэн ~ san* variantida kelishi xarakterli. Qipchoq lahjasi shevalarida III shaxsda u ~ *о / ул ~ ul / ол ~ ol* variantlarida uchraydi. Koʻrsatish olmoshining *шү ~ шо ~ sho* (qipchoq), osha ~ *ош ~ oshi* (Turkiston), mana shu ~ *машь ~ mashi* (Toshkent), ana shu ~ *ашь ~ ashi* (Fargʻona) kabi shakllari mavjud. Adabiy tildagi u, bu, shu olmoshlari shimoliy oʻzbek shevalarida *ул ~ ul, бул ~ bul, шул ~ shul* shakllarida qoʻllanadi.

Ravishlarning aksariyati adabiy til variantlariga yaqin, baʼzilari kuchli fonetik oʻzgarishlar bilan qoʻllanadi: u yoqda ~ *агʻда ~ azda*, bu yoqda ~ *багʻда ~ bazda* (Fargʻona vodiysi shevalarida), kop ~ *көб ~ kob* (qipchoq).

Yordamchi soʻzlar, undov va taqlidiy soʻzlar ham adabiy tildan ayrim fonetik oʻzgarishlar bilan qoʻllanadi. va bogʻlovchisi hech bir shevada qoʻllanmaydi. *Ham* soʻzi (h undoshi eliziyaga uchragan holda) shevalarda bogʻlovchi vazifasidan koʻra yuklama vazfasida koʻproq qoʻllanadi. Shu bilan birga shevalarda hu ana ~ *һәйлә ~ hayla* (Samarqand), faqat ~ *тек ~ tek* (Turkiston), ha ~ *аә ~ ava* (oʻgʻuz), birt-chirt ~ *бурт-чурт ~ birt-chirt* (taqlidiy soʻz, Turkiston), hav(axir) ~ *һәә ~ hav* (oʻgʻuz) – bir muddat damimni olayin, axir ~ *бэр заман дәмьмнһ алайн, һәә ~ bir zaman damimni alayin, hav*, adabiy tildagi -yu, -ku yuklamalariga ekvivalent boʻladigan -gʻu ~ *гʻу ~ zu* taʼkid yuklamasi qoʻllanadi: bordi-ku ~ *бард-гʻу ~ bardi-zu*, keldi-ku ~ *кәдъ-гʻу ~ kadi-zu* (Turkiston). kabi misollar qayd qilinadi. -gʻu ~ *гʻу ~ zu* yuklamasi bir variantli boʻlib, singarmonizmga boʻysynmaydi.

## GLOSSARIY

Shevalarining morfologik va sintaktik xususiyatlari [morphological and syntactic peculiarities of dialects] – oʻzbek shevalaridagi soʻz turkumlari va soʻz tarkibi hamda uning sintaktik tizimi.

Shevalarda grammatik son kategoriyasi [the category of grammar plurality in dialects] – shevalardagi birlik, juftlik va koʻplikni birlashtiruvchi tushuncha.

Shevalarda egalik kategoriyasi [the category of possessive in dialects] – shevalardagi egalik shakllarini birlashtiruvchi tushuncha.

Shevalarda kelishik kategoriyasi [case category in dialects] – kelishik shakllarini birlashtiruvchi tushuncha.

Shevalarda soʻz yasalishi [the word formation in dialects] – shevalardagi yangi soʻz hosil qilish tizimi.

#### Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Rajabov N. Oʻzbek shevashunosligi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1996.
2. Reshetov V. V., Shoabdurahmonov Sh. Oʻzbek dialektologiyasi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1978.
3. Toʻychiboyev B., Hasanov B. Oʻzbek dialektologiyasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
4. Ashirboyev S. Oʻzbek dialektologiyasi. – T.: "Navroʻz", 2016.
5. Ashirboyev S. Oʻzbek dialektologiyasi. – Toshkent: TDP, 2011, 2013.
6. Enazarov T., Karimjonova V. va boshqalar. Oʻzbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.

#### Internet saytlari

1. [www.turk.dili.google.com.tr](http://www.turk.dili.google.com.tr)
2. [http://www.ut.uz/eng/today/europe\\_recognizes\\_her\\_discovery\\_mgr](http://www.ut.uz/eng/today/europe_recognizes_her_discovery_mgr)
3. <http://www.schneid9.de/sprache/linguistik/ling11.pdf>
4. <http://www.uni-leipzig.de/~fsger/materialien/Texte/Lexikologie.pdf>
5. [www.dersimiz.com](http://www.dersimiz.com)
6. [www.altinmiras.com](http://www.altinmiras.com)
7. [www.thinsan.com](http://www.thinsan.com)

## Shevalarda turlanish va tuslanish.

Reja:

1. O'zbek shevalarida fe'l shakllari va tuslanish.

2. O'zbek shevalarida tuslanish.

Tayanch so'z va tushunchalar : shevalar morfologiyasi , shevalarda fe'l shakllari, shevalarda tuslanish, tuslanishning shaxs-sonda berilishi masala.

Fe'l (tuslanishi). O'zbek shevalarida ham tuslovchi affikslarning (shaxs-son affikslarining) uch tipi qollanadi va ular quyidagi shakllarga ega bo'ladi:

I tip tuslovchilar

Bu tipdagi tuslovchilar to'liq tuslovchilar deb ham yuritiladi va uning:

- I shaxs birligida  $-m\acute{a}(n)/ma(n) \sim ma(n)/ma(n)$  affiksi qatnashadi: kelaman ~ *келәман* ~ *kelaman*, o'qiyman ~ *оқийман* ~ *oqiyman* (Toshkent). Ayrim o'g'uz va shimoliy o'zbek shevalarida bu affiksdagi n undoshi qo'llanmaydi: boraman ~ *барамә* - *barama*, kelaman ~ *гәләмә* ~ *galama*.

- I shaxs ko'pligida  $-m\acute{a}z(a)/m\acute{a}z/c/p\acute{a}z/p\acute{a}z/c \sim m\acute{a}z(a)/m\acute{a}z/s/p\acute{a}z/p\acute{a}z/s$ ,  $-\acute{v}y\acute{z}/\acute{v}y\acute{z} \sim vuz/vuza$  affikslari qatnashadi. Singarmonizmli shevalarda affiksdagi  $\acute{a}z$  undoshi jarangsizlashadi.  $-m\acute{a}z \sim m\acute{a}z$  varianti, deyarli, barcha shevalarda qo'llanadi: ketyarmiz ~ *кетәрмимиз* ~ *ketvommiz*, boryarmiz ~ *бәрәрмимиз* ~ *bervommiza* (Toshkent),  $-\acute{v}y\acute{z}/\acute{v}y\acute{z} \sim vuz/vuza$  varianti Toshkent, Qarshi kabi shevalarida qo'llanadi: ishlaymiz ~ *ишләйәләлә* ~ *ishlayvuz(a)*, qilamiz ~ *қиләләлә* ~ *qilavuz*,  $-p\acute{a}z/p\acute{a}z/c/ \sim p\acute{a}z/p\acute{a}z/s$  varianti (aslida u assimilatativ variant) singarmonizmli shevalarda uchraydi: kelyarmiz ~ *келйәрпимиз* ~ *kelyappiz/s*, qarabmiz ~ *қарәпимиз* ~ *qarappiz/s*.

$-m\acute{a}z \sim m\acute{a}z$  affiksi Toshkent shevasida  $-d\acute{a} \sim di$ ,  $-c\acute{a} \sim sa$  affikli so'z shakllariga qo'shila olgan: oldik ~ *әлдәләлә* ~ *aldimiz*, ayt sak ~ *әйтсәләлә* ~ *aytsamiz*, berdik ~ *бердәләлә* ~ *berdimiz*, yursak ~ *йүрсәләлә* ~ *yursamiz*.

- II shaxs birligida  $-c\acute{a}(n)/ca(n) \sim sa(n)/sa(n)$  affiksi qatnashadi: kelasan ~ *келәсән* ~ *kelasən*, oqiy san ~ *оқийсән* ~ *oqiy san* (Toshkent). Bu shaklda ham ayrim o'g'uz va shimoliy o'zbek shevalarida n undoshi qo'llanmaydi: borasan ~ *бараса* ~ *barasa*, kelasan ~ *гәләсә* ~ *galasa*.

- II shaxs ko'pligida  $-c\acute{a}z/c\acute{a}z/c + l\acute{a}(p)/la(p) \sim siz/siz/s + l\acute{a}(r)/la(r)$ ,  $-c \sim s$ ,  $-c\acute{a}l\acute{a} \sim sila$  affiksi ishtirok etadi. Bu shaxsda ham singarmonizmli shevalarda affiksdagi z undoshi jarangsizlashadi.

$-c\acute{a}z \sim siz$  varianti, deyarli, barcha shevalarda qo'llanadi: boryapsiz ~ *бәрәссәлә* ~ *bervossiz* (Toshkent), ketyapsiz ~ *кетйәпсәлә* ~ *ketyapsiz* (Marg'ilon).

$-c\acute{a}z / c\acute{a} / c + l\acute{a}(p) / la(p) \sim siz / siz / s + l\acute{a}(r) / la(r)$  varianti singarmonizmli shevalarda qo'llanadi: baribsz ~ *барпсәлә* ~ *baripsiz/s*, ushlabsiz ~ *ушләпсәлә* ~ *ushlapsiz/s*, ko'ribsizlar ~ *көрпсәләлә* ~ *ko'ribsizlar*, oqibszlar ~ *оқпсәләлә* ~ *oqipsiz/slar*.

-с, -сълә ~ *s, sila* varianti esa Toshkent, Qarshi kabi shevalarida qo'llanadi: ishlaysiz ~ *ishlyays* ~ *ishliys*, ishlaysiz ~ *ishlayıc* ~ *ishlays*, keläszlar ~ *keläszlar* ~ *keläszlar*.

- III shaxsida affiks qatnashmaydi, lekin -a/ä ~ a/ð, -ü ~ y, -b ~ b affiksli ravishdoshlar ishtirok etgan fe'llarda va boshqa ayrim fe'llarda -ð/ð / m/ / m ~ di / di / ti / ti affiksi va uning ko'pligida ba'zan -la(p) / la(r) -la(r) / la(r) affiksi qo'llanishi mumkin. Singarmonizmni yo'qatgan shevalarda faqat -ð/ / m/ ~ di / ti varianti qo'llanadi: ishladi ~ *ishlayıc* ~ *ishladi*, kelyapti ~ *keläsmm* ~ *kevottı*, singarmonizmli shevalarda esa -ð/ð / m/ / m ~ di / di / ti / ti variantlarining barchasi qo'llanadi: boradi ~ *baradu* ~ *baradi*, ichadi ~ *u:çadı* ~ *i:chadı*, ko'rsatdi ~ *zörçäsmm* ~ *gursatti* (o'g'uz), qirqdi ~ *kupkmu* ~ *qırqtı*. Tojikistonning janubiy o'zbek shevalarida -my ~ tu varianti ham qayd qilinadi: sochyapti ~ *çöçömmü* ~ *chochattu*.

## II tip tuslovchilar

Bu tipdagi tuslovchilar qisqargan tuslovchilar deb ham yuritiladi va ular -ð/ð/m/ / m ~ di/di/ti/ti va -ca/ca ~ sa/sa affikslari bilan shakllangan fe'llarga qo'shiladi.

- I shaxs birligida faqat -m ~ m affiksi qatnashadi: aidim ~ *andım* ~ *aldım*, aytsam ~ *aytsam* ~ *aysam*, berdim ~ *berdım* ~ *berdim*, yursam ~ *üyrçäm* ~ *yursam* va b. Shevalardagi *körpüm* ~ *kurdm*, *qoıdüm* ~ *qoydum* tuslanishida ikkinchi bo'g'indagi lablangan unlilarning qatnashishi tuslovchi affiksga tegishli emas, balki o'tgan zamon affiksi tarkibida kelib, labial singarmonizmga amal qilinishidir.

- I shaxs ko'pligida -k/q ~ k/q, -u:ü ~ i:y, -e/eyz/eyzä ~ v/vuz/vuza affikslari qatnashadi.

-k ~ k affiksi singarmonizmni yo'qotgan shevalarda qo'llanadi: ko'rdik ~ *kördık* ~ *kardik*, bordik ~ *bördık* ~ *berdik*. Toshkent shevasida shart maylidagina qayd qilinadi: borsak ~ *börçök* ~ *bersok*, olsak ~ *ölsök* ~ *olsok*. Shuningdek, Toshkent shevasida -k ~ k affiksini o'tgan zamon fe'lida -z ~ z affiksi almashtiradi va bunda qisman fonetik o'zgaish yuz beradi: bordik ~ *börduz* ~ *berduz*, keldik ~ *keldüz* ~ *kelduz*.

-e/eyz/eyzä ~ v/vuz/vuza affiksi bilan shakllangan fe'llarning qo'llanishi Toshkent shevasida kengroq: borsak ~ *börçöyüz(ä)* ~ *bersovuza*. Shuni ta'kidlash kerakki, bu affiks qo'shilishida so'zda sifat o'zgarishlari yuz beradi, ya'ni -sä ~ sa affiksi tarkibidagi ä/a unlisi o'nlisiga o'tadi.

-k/q ~ k/q oppozitiv variantlari singarmonizmli shevalarning asosiy xususiyati hisoblanadi: keldik ~ *keldık*, bordik ~ *bardıq* ~ *bardıq*.

-u:ü ~ i:y affiksi Toshkent va Qarshi kabi shevalarda iste'molda bor: urdik ~ *ürdü:ü* ~ *urdi:y*, bildik ~ *bıld:ü* ~ *bildi:y*.

- II shaxs birligida -h ~ z affiksi qatnashadi (bu affiksni buyruq-istak maylidagi -h ~ z affiksi bilan qorishtirmaslik kerak). Uning qo'llanish qonuniyatlari I shaxsdagi -m ~ m affiksi bilan aynandir: olding ~ *aldın* ~ *aldız*, aytsang ~ *aytsan* ~ *aytsaz*, berding ~ *berdın* ~ *berdiz*, yursang ~ *üyrçän* ~ *yursaz*. Bu shaxsda Xo'jand shevasida -h ~ z, -ü ~ y affiksi qollanadi: ketayotgan eding ~ *ketäwtän edıü* ~ *ketvatgan ediy*.

- II shaxs ko'pligida quyidagi affiksleri qatnashadi:

-*ҳъз/ҳз* ~ *ziz/ziz* affiksi aksariyat shevalarda qo'llanadi: *bordingiz* ~ *бардҳз* ~ *bard'iziz*, *kettingiz* ~ *кеттҳъз* ~ *kettiziz*. Shundan -*ҳъз* ~ *ziz* varianti singarmonizmni yoqatgan shevalaridagina qo'llanadi. Toshkent va Qarshi shevalarida bu affiks qo'llanmaydi.

-*ҳуз/ҳуз* ~ *zuz/zuz*, -*ҳуз/ҳуз* ~ *zuz/zz* affiksleri labial singarmonizm amal qiladigan shevalarda qo'llanadi: *buyurdingiz* ~ *буйурдунуз* ~ *buyurduzuz*, *kuttingiz* ~ *күттуңуз* ~ *kttzz*.

-*йъз* ~ *yi:z*, affiksi Toshkent va Qarshi shevalarida, -*эла* ~ *zla* affiksi Qarshi shevasida iste'molda bor: *bajardingiz* ~ *бэджэрдъйъз* ~ *bajardiyiz*, *bordingiz* ~ *бэрдъэла* ~ *berdizla*.

-*йла* ~ *yla* affiksi ham Toshkent va Qarshi shevalariga ko'proq xarakterli: *oldinglar* ~ *элдъйла* ~ *oldiy-la*, *ishladinglar* ~ *эшладъйла* ~ *ishladiyla*

-*йла/йла* ~ *zla/zla* o'g'uz lahjasi shevalarida qo'llanadi: *keldinglar* *гэлдъйла* ~ *galdizla*, *bordinglar* ~ *бардйла* ~ *bardizla*.

- III shaxs ko'rsatkichga ega emas.

### III tip tuslovchilar

Bu tipdagi tuslovchilar buyruq-istak maylida qo'llanadi va uning:

- I shaxs birligida quyidagi affiksler qatnashadi va istak ma'nosini ifodalaydi:

-*(э)й/(a)й* ~ *(a)y/(a)y* affiksi barcha singarmonizmli shevalarda bor: *boray* ~ *барай* ~ *baray*, *ketay* ~ *кетэй* ~ *ketay*, *qo'llay* ~ *қоллай* ~ *qollay*. Ko'rinadiki, unli bilan tugagan so'zlarga affiksning -*й* ~ *y* varianti qo'shiladi. Bu shakl shimoliy o'zbek qarluq shevalarida qayd qilinmaydi.

-*йй* ~ *iy* affiksi singarmonizmni yo'qatgan shevalarda qo'llanadi: *ishlay* ~ *эшлай* ~ *ishlay*, *ketay* ~ *кетэй* ~ *ketiy*, *so'ray* ~ *сорэй* ~ *soriy*. Bunda unli bilan tugagan so'zlardagi *э* unlisi *й* unlisiga o'zgaradi. Bu affiksning shimoliy o'zbek qarluq shevalarida singarmonistik varianti bor: *boray* ~ *барэй* ~ *bari'y*, *oylay* ~ *ойлэй* ~ *oylay*, *ko'ray* ~ *көрэй* ~ *ko'ray*.

-*йён/йён* ~ *iyin/iyin* affiksi Xorazm va shimoliy o'zbek shevalarida uchraydi: olib borayin ~ *аппарйн* ~ *appariyin*, *olib kelayin* ~ *эккальён* ~ *akkaliyin*. Uning qisqargan shakli ham bor: *аппары:н* ~ *appari:n*, *эккали:н* ~ *akkali:n*.

- I shaxs ko'pligida quyidagi affiksler qatnashadi va ular ham istak ma'nosini ifodalaydi:

-*эйну* ~ *aynu*, -*ййлу* ~ *iylu*, -*эйнук* ~ *aynuk* affiksleri singarmonizmni yo'qatgan shevalarda qo'llanadi: *ishlaylik* ~ *эшлайёну* ~ *ishlaynu* (Namahgan), *элийлу* ~ *oliylu* (Toshkent), *барайнук* ~ *boraynuk* (Namahgan, Xo'jand)

-*эйлэк/айлқ* ~ *aylik/ayliq* affiksi aksariyat singarmonizmli shevalarda talaffuzda mavjud: *tushaylik* ~ *чүшэйлэк* ~ *chushaylik*, *qaraylik* ~ *қарайлқ* ~ *qarayliq*. Bu affiksning -*эйлэк* ~ *aylik* varianti singarmonizmni yo'qatgan shevalargagina xos: *qo'llaylik* ~ *қоллайлэк* ~ *qollaylik*.

-*эък/айқ* ~ *aylik/ayiq* affiksi qipchoq lahjasi shevalari uchun xarakterlidir: *aytaylik* ~ *эйтэък* ~ *aytayik*, *boraylik* ~ *barayiq*.

-*u.йк/ы.йқ* ~ *i.yk/i.yq* affiksi shimoliy o'zbek shevalarida uchraydi: *ko'raylik* ~ *кору:йк* ~ *kuri:yk*, *qolaylik* ~ *қалы:йқ* ~ *qali:yq*.

-*эл/ал* ~ *ali/al'i* affiksi Xorazm shevalarida qo'llanadi: *boraylik* ~ *барал* ~ *barali*, *ketaylik* ~ *гэтэлэ* ~ *gitali*.

- II shaxs birligida affiks qatnashmaydi. Bu shaxsda ishtirok etadigan *-гън/кън/г'н/қн* ~ *gin / kin / z'in / q'in* affiksleri buyruqni kuchaytirish yoki kuchsizlantirish uchun qo'llanadi.

- II shaxs ko'pligida *-(ъ)н / (й)н / (ъ)нлар / (й)нлар / (ъ)нълар / (й)нлар / (i)z / (i')z / (i)zlar / (i')zlar / (i)zlar / (i')zlar* affiksleri aksariyat shevalarda qo'llanadi: *boringizlar* ~ *барнэ(с)лар* ~ *bariziz(s)lar*, *kelinglar* ~ *келънлар* ~ *kelizlar*, *qaranglar* ~ *қараңлар* ~ *qarazlar* (qipchoq). *-(ъ)н / (й)н* ~ *(i)z / (i')z* varianti adabiy tildagi sungari birlikning hurmat shakli sifatida qo'llanadi.

-*йла* ~ *yla* affiksi Toshkent, Qarshi kabi shevalarda qayd qilinadi: *kelinglar* ~ *келъйла* ~ *keliyla*, olib boringlar ~ *эбаръйла* ~ *oboriyla*.

-*(ъ)нла / (й)нла* ~ *(i)нла / (i')нла* affiksleri Xorazm, Qorako'l va Olot shevalariga xosdir: *anglanglar* (tushuninglar) ~ *аңлаңла* ~ *azlazla*, *ko'ringlar* ~ *гөрънла* ~ *guriyla*.

- III shaxsda *-сън / чн* ~ *sin / sin*, *-сун* ~ *sun*, *-съ / с* ~ *si / si*. *-су / сү* ~ *su / s* affiksleri ishtirok etadi.

- *сн* ~ *sin* affiksi barcha shevalarda qo'llanadi. *-сн / чн* ~ *sin / sin* variantlari singarmonizmli shevalarda faol qo'llanadi: *eshitsin* ~ *эшътсн* ~ *ishitsin* (Toshkent), *qaytsin* ~ *кайтсн* ~ *qaytsin* (qipchoq).

-*сын* ~ *sun* varianti Namangan shevasida qayd silinadi: *korsin* ~ *корсын* ~ *korsun*, *bilsin* ~ *билсын* ~ *bilsun*.

-*съ/с/су/сү* ~ *si/si/su/s* variantlari Iqon, Qorabuloq shevalarida uchraydi: *borsin* ~ *барси* ~ *barsi*, *ishlasin* ~ *и:шласъ* ~ *i:shlasi*, *ko'rsin* ~ *көрсы* ~ *kursu*, *qo'ysin* ~ *қойсы* ~ *qoysu*.

-*дэг/мэг/лэг* ~ *dag/tag/lag* affiksi Tojikistondagi qarluq shevalarida uchrajdi: *ishlasin* ~ *шладэг* ~ *ishladag*, *pishirsin* ~ *бишармэг* ~ *bi:shartag*, *olsin* ~ *эллэг* ~ *ollag*. Bu affiks boshqa shevalarda qayd qilinmadi, lekin Alisher Navoiy va Husayniylar o'z asarlarida bu maylning III shaxsida *-dik* affiksini ishlatgan. Alisher Navoiyda:

*Telba ko'nglungni, Navoiy, zabt aylay olmading.*

*Emdi chek andin ilik har sori borsa bordik* baytidagi *borsa bordik* iborasi *borsa borsin* deb tushunilgan.



Sifatdosh shakllari:

- *p/ap/эр ~ r/ar/or* affiksi. Bu affiksning bo'lishsiz shaklida -s qo'shimchasi qatnashadi: Korar - ko'rmasdan gapira berma ~ *Керар- кермастан гәпирә:әрмә ~ Kurar kermastan gapira:arma*. (Andijon) Shevalarda sifatdoshning -*yp/yp ~ ur/r* varianti qayd qilinmaydi. Faqat adabiy til qolipidagi matnlarda qo'llanishi mumkin: Qaldirg'och qora bolur, Qanoti ola bolur ~ *Qaldirg'ash qara bolur, qanoti ala bolur ~ Qaldirgash qara bolur, Qanoti ala bolur* (Shim. o'z. shev.).

- *mъш/мш/муш/муш ~ mish/mish/mush/mush* affiksi. Singarmonizmni yo'qotgan shevalarda faqat -*mъш/муш ~ mish/mush* varianti qo'llanadi: borganmish ~ *бәргәммуш ~ bergammush* (Toshkent), aytganmish ~ *әйтгәнәмуш ~ aytganimush* (Farg'ona).

- *гән / кән / г'ан / қан ~ gan / kan / zan / qan* affiksi. Singarmonizmni yo'qotgan shevalarda faqat -*гән / кән ~ gan / kan* varianti qo'llanadi: qo'ygan ~ *қойгән ~ qo'ygān*, topgan ~ *тәпкән ~ topkan* (Toshkent).

Bu affiks so'ngidagi "n" undoshi ayrim shevalarda regressiv assimilatsiyaga uchrashi mumkin: kelganlarga qaranglar ~ *кәгәлләргә қарайләр ~ kegallarga qaraylar* (Andijon).

- *ән/ан ~ an/an* affiksi. O'g'uz lahjasiga oid shevalarda uchraydi: borayotgan ~ *баратран ~ baratiran*, kelgan ~ *гәлән ~ galan*.

- *дог'он ~ dogon* affiksi. Bu affiks shimoliy o'zbek shevalarida uchraydi va u bir variantlidir: boradigan ~ *барадог'он ~ baradogon*, keladigan ~ *кәләдог'он ~ kaladogon*.

- *джақ/джәк ~ jaq/jak* affiksi: oladi ~ *алджақ ~ aljaq*, ketadi ~ *гәтәжәк ~ gytjak* (Xorazm).

- *ас/әс ~ asi/asi* affiksi: borgim keldi ~ *барасм гәлдъ ~ barasim galdi*, ichгим keldi ~ *и:чәсәм гәлдъ ~ i:chasim galdi* (Xorazm).

- *әчъ ~ achi* affiksi: borayotgan edim ~ *бәрәчи:дәм ~ borachi:dim* (Quy i Qashqadaryo).

- *гучъ ~ guchi* affiksi Xo'jand shevasida qayd qilinadi va bu affiksdagi *ъ/i* unlisi lab garmoniyasiga uchraadi: boradigan edim / eding / edi ~ *бәргучудум / бәргучудуң / бәргучудъ ~ borguchudum / berguchuduz, berguchudi*. Faqat III shaxsdagina bu unli lablanmaydi.

Ravishdosh shakllari:

- *ә/а/ў ~ a/a/y* affiksi. Bu affiks varianti barcha singarmonizmli shevalarda qo'llanishda bor. Singarmonizmni yoqatgan shevalarda faqat -*ә/ў ~ a/y* varianti qo'llanadi: ketā berdъ ~ *кәтә еурдъ ~ ketd vurd* (Marg'ilon), оунау-оунау ~ *ойнай-ойнай ~ оунау-оунау*, bora-bora ~ *барабара ~ bara-bara* (qipchoq). Xorazm shevalarida uning bo'lishsiz shaklida yana -*ън/н ~ in/in* affiksi qo'llanadi va bu affiks tarkibidagi *a/ә/a* unilari *ъ/ ~ i/i* unilariga o'zgaradi: ko'rmay ketdi ~ *гәрмәйән гәттъ ~ gurmiiyin gitti*, olmay ketti ~ *әлмәйн гәттъ ~ almiyin gitti*.

-п/ьп/п ~ p/іp/іp affiksi. Bu affiksning jarangsiz undosh dilan tugagan variantlari barcha shevalar uchun xosdir: ishlab ~ *ьшлэп* ~ *ishlap*, olib ~ *алп* ~ *alip* (Andijon), lekin qipchoq shevalarida bir qator pozitsiyalarda jaranglashgan variant ham qo'llanadi: borib edi ~ *барб едъ* ~ *barib edi*, kelib edi ~ *келъб едъ* ~ *kelib edi*.

-yб / yб / yп / yп ~ b / ub / p / up affiksi. Shevalarda bu affiks variantlari qo'llanmaydi, lekin adabiylashgan ayrim she'riy (folklor) matnlarda qayd qilinishi mumkin.

-гэнь / кэнь ~ *gani / kani* affiksi. Bu affiks faqat singarmonizmni yo'qotgan shevalarda qayd qilinadi: borgani ~ *бэргэнь* ~ *bergani*, eshitgani ~ *ешыткэнь* ~ *eshitkani*.

-гънчэ / кънчэ / г'нча / қнча ~ *gincha / kincha / zincha / qincha* affiksi: yurguncha ~ *йургънчэ* ~ *yirgincha*, barguncha ~ *барг'нча* ~ *barzincha*. Men bormaguncha, sen kelma, kuyib-yonib yurguncha ~ *Мэн бармаг'нча сэн гэлмэ, куйъп-йанп йургънчэ* ~ *Man barmagincha san galma, kuyip-janip yirgincha* (o'g'uz). Adabiy tilda bu shaklda birinchi bo'g'inda u(y) unlisi qo'llanadi.

Bu affiksning shimoliy o'zbek shevalarida -гъчу: / къчу: / г'чы: / қчы: ~ *gichi: / kichi: / zichi: / qichi:* variantlari qayd qilinadi: ko'rguncha ~ *көргъчу:* ~ *kurgichi:*, aytguncha ~ *эйткъчу:* ~ *aytkichi:*, borguncha ~ *барг'чы:* ~ *barzichi:*, otguncha ~ *атқчы:* ~ *atqichi:*.

-u: ~ i: affiksi. O'g'uz lahjasi shevalarida qo'llanadi. Adabiy tildagi -a ravishdosh affiksi ma'nosiga mos keladi: yuradi ~ *йуру:дъ* ~ *yuri:di*. Lekin *йуру:дъ эдъ* ~ *yuri:di adi* shaklidagi fe'l adabiy tildagi yurar edi shakliga ekvivalent bo'ladi.

Adabiy tildagi -gach / kach / qach affiksining variantlari shevalarda uchramaydi.

Harakat nomi shakllari. Unda quyidagi affikslar qatnashadi:

-мэк / мақ ~ *tak / taq* affiksi o'g'uz lahjasi uchun xarakterlidir: oynamoq ~ *ойнамақ* ~ *oynamaq*, ketmoq ~ *эйтмэк* ~ *gitmak*.

-ш / ъш / ш / yш / yш ~ *ush / ish / ish / sh / ush* qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining xususiyatidir: bilish ~ *бъльш* ~ *bilish*, yig'ish ~ *yig'sh* ~ *yigish*, o'rish ~ *орыш* ~ *orush*, ko'rish ~ *көрүш* ~ *kurish*. Singarmonizmni yo'qatgan shevalarda ш / ъш ~ sh / ish variantlarigina qo'llanadi.

-в / yв / yв ~ v / uv / v affikslari qipchoq lahjasi uchun xarakterlidir: biluv ~ *бълүв* ~ *bilv*, eshituv ~ *ешытүв* ~ *eshitv*, qoluv ~ *қалүв* ~ *qaluv*.

Shuni aytish lozimki, harakat nomining har uchala varianti adabiy tilga juz'iy tahrir bilan qabul qilingan va adabiy tilning ta'siri natijasida bu affikslar shevalarda aralash qo'llanmoqda.

Fe'l zamonlaridagi ayrim o'ziga xos xususiyatlar

Ma'lumki, shakllangan fe'llar ravishdosh hamda sifatdosh affikslari va tuslovchi affikslarning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Fe'llarda tuslovchi affikslardan oldin qo'llanadigan zamon ko'rsatkichlari shevalarda turlicha bo'ladi. Shu bilan birgalikda, bu affikslar qo'shilganda,

turli fonetik o'zgarishlar yuz beradi va bu holat shevaning adabiy tildan ba'zan kuchli farqlanishiga olib keladi.

O'tgan zamon shakli tuslanishi.

Yorimoq fe'li: *джапгамман ~ jarqatman, джапгансан ~ jarqansan, джапган ~ jarqan; джапгаммис ~ jarqatmīs, джапгансис ~ jarqansīs, джапган ~ jarqan.*

Bo'lishsiz shakli: *джаппаг'амман ~ jarraгамман, джаппаг'ансан ~ jarraгansan, джаппаг'ан ~ jarraган; джаппаг'аммс ~ jarraгатmīs, джаппаг'ансс ~ jarraгansīs, джаппаг'ан ~ jarraган (qirchoq).*

Borimoq fe'li: *бэргэмман ~ bergatman, бэргэнсэн ~ bergansan, бэргэн ~ bergan, бэргэнвуз ~ berganvuz, бэргэнсэла ~ bergansila, бэршгэн ~ berishgan (Toshkent).*

Fonetik-morfologik o'ziga xosliklar, ayniqsa, murakkab o'tgan zamon fe'llarida yorqinroq ko'rinadi:

Qirchoq lahjasi shevalarida: *кельведём ~ kelivedim, кельведёх ~ kelivediz, кельведь ~ kelivedi; кельведёк // кеведёк ~ kelivedik // kevedik, кельведёхъз ~ kelivediziz, кельведь // келведь ~ kelivedi // kelvedi; барвэдём ~ barivadim, барвэдёх ~ barivadiz, барвэдь ~ barivodi; барвэдёк ~ barivadik, барвэдёхъз ~ barivadiziz, барвэдёхъла ~ barivadizla, барвэдёла ~ barivadila (Xorazm);*

Toshkent guruh shevalarida: *бэрувём ~ beruvdim, бэрувёх ~ beruvdiz, бэрувдь ~ beruvdi; бэрувдъ ~ beruvdiy, бэрувдъз ~ beruvdiz, бэрувдъла ~ beruvdyla, бэршуведь ~ beripuvdi (Toshkent).*

Qarshi-Buxoro guruh shevalarida -r/ər sifatdosh affikslari fe'l shakllarida -й/у affiksi bilan almashadi va adabiy tildagi *borar edi* so'z shakli *бэрэйвём ~ berayidim, бэрэйвёх ~ berayidiz, бэрэйвдь ~ berayidi; бэрэйвдъ ~ berayidi; бэрэйвдёк ~ berayidik, бэрэйвдёхъзла ~ berayidizizla, бэрэйвдь ~ berayidi* tarzida tuslanishga ega bo'ladi.

Hozirgi zamon fe'llarida tuslovchi affiksdan oldin qo'llanadigan zamon ko'rsatkichlari shevalarda turlicha bo'ladi. Toshkent shevasida -вэм ~ vət affiksidagi keyingi т/t undoshi regressiv assimilyatsiyaga uchraydi: *бэрвэмман ~ bervatman, бэрвэссэн ~ bervessan, бэрвэммъ ~ bervetti, бэрвэммъз(ə) ~ bervemmiz(a), бэрвэссэла ~ bervessila, бэршэвэммъ ~ beripvatti.*

Buxoro shevalarida -эн ~ ep affiksidagi p undoshi ham regressiv assimilatsiyaga uchraydi: *бэрэмман ~ bervatmən, бэрэпсэн ~ bervəpsan, бэрэптъ ~ bervəpti, бэрэммъз ~ bervəmmiz, бэрэпсэз ~ bervəpsiz, бэрэптъла ~ bervəptila.*

Qirchoq shevalaridagi *-джатр ~ jatir, -ватр ~ vatir*, Xorazm shevalaridagi *-йамр ~ jatir* affikslarining singarmonistik variantlari yoq: *барайатрман ~ barajatirman, келаджатрман ~ kelajatirman (qirchoq), гайатрман ~ gajatirman, барйатрман ~ barjatirman (Xorazm)* va hk.

Qorabuloq shevasida bu shaklda *-айм // айм ~ ayt / ayt* affiksi qo'llanadi: *борайтма ~ baraytma, борыпсан ~ барайтса ~ baraytса, борыпти ~ барайтм ~ barajtti,*

aytarpman ~ *eytayarman* ~ *e:yadajtma*, aytyarpsan ~ *e:dəytmə* ~ *e:ydytsa*, aytyapti ~ *e:dəytmə* ~ *e:dajtti*.

Qoraqalpog'iston o'zbek shevalarida *-мәл / мал* ~ *мәли / mali* affiksi zaruriyatlik fe'lini hosil qilgan: borish kerak ~ *бармал* ~ *barmali*, ichish kerak ~ *ичмәл* ~ *ichmali*. Bu shakldan yana boshqa shakllar hosil qilinadi: aytish kerak edi ~ *айтмала* ~ *ajtmalidi*, ichish kerak edi ~ *ичмәлдь* ~ *iymalidi*, bormaslik kerak ~ *бармалмас* ~ *barmalimas*, ichmaslik kerak ~ *ичмәлмәс* ~ *ichmalimas*.

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: NAVRO'Z, 2016.
2. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
3. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2011, 2013.
4. To'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2004. – B. 112.1.
5. Enazarov T., Karimjonova V. A., Ernazarova M. S., Mahmadiyev Sh. S., Rixsiyeva K. G'. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.

Internet saytlari

1. [www.turk.dili.google.com.tr](http://www.turk.dili.google.com.tr)
2. [http://www.ut.uz/eng/today/europe\\_recognizes\\_her\\_discovery.mgr](http://www.ut.uz/eng/today/europe_recognizes_her_discovery.mgr)
3. <http://www.schneid9.de/sprache/linguistik/ling11.pdf>
4. <http://www.uni-leipzig.de/~fsgfer/materialien/Texte/Lexikologie.pdf>
5. [www.dersimiz.com](http://www.dersimiz.com)
6. [www.altinmiras.com](http://www.altinmiras.com)
7. [www.thinsan.com](http://www.thinsan.com)

#### Shevalarda so'z yasalishi

Reja:

1. So'z yasalishi tushunchasi.
2. O'zbek shevalarida so'z yasalishi masalasi.
3. So'z yasash davriyligi va so'z yasash usullari.
4. O'zbek shevalarida mustaqil so'z turkumlarida so'z yasalishi.

Tayanch soʻz va tushunchalar: soʻz yasash, soʻz yasash muammosi, soʻz yasash usullari, soʻz yasashning davriyligi, shevalar morfologiyasida soʻz yasash masalasi [dirivasiya], shevalarda soʻz yasalishini ajralib turishi, shevalarda soʻz yasalishining individual qoʻshimchalari.

Soʻzlar qoʻshimchalar orqali yoki soʻzlarning oʻzaro qoʻshilishi orqali yasaladi. Soʻz yasalishining davriyligi deganda diaxron va sinxronik holatda soʻz yasalishi masalasi tushuniladi. Soʻz diaxron yasalishi yuzasidan prof. A. Gulomov kata ishlarni amalga oshirgan. Sinxron soʻz yasalishi yuzasidan esa akademik A. Hojiyevning ishlari diqqatga sazovordir. Soʻz yasalishida ham oʻziga xos xususiyatlar koʻzga tashlanadi. Oʻzbek adabiy tilidagi soʻz yasovchi affiksalar shevalarda rang-barang fonetik variantlarda uchraydi. Shevalarda soʻz yasalishi yuzasidan K. Sharipova tadqiqot ishlarini olib brogan. U shevalarda –chi qoʻshimchasi yordamida soʻz yasalishi imkoniyatlari toʻgʻrisida qiziqali faktlarni aniqlay olgan. Shu bilan birga shevalarning bevosita oʻziga xos yasovchi affikslari ham mavjud. Quyida ulardan baʼzi birlaridan namunalar keltiramiz:

-*ək* ~ *dk* affiksi feʼldan sifat yasaydi: *suzagʻon sigir* ~ *сүзэк сгʻр* ~ *suzak sizir*, *tepagʻon ot* ~ *dəpək at* ~ *dapak at* (Xorazm).

-*экъ* ~ *aki* affiksi otdan ravish yasaydi, uning singarmonisik varianti yoq: *tashqaridan* ~ *сртэкъ* ~ *sirtəkbъ*: *tashqaridan eshitdim* ~ *сртэкъ ешъттэм* ~ *sirtakъ eshittim*, *yoddan* ~ *йадэкъ* ~ *jadaki*: *yoddan oqidi* ~ *йадэкъ оқд* ~ *jadaki oqidi* (Shimol. oʻzb. sh.).

-*ал* / *эл* ~ *al* / *al* affiksi sifatdan feʼl yasaydi: *sargʻay* ~ *сарал* ~ *saral*, *ozay* ~ *азал* ~ *azal*, *koʻray* ~ *көпэл* ~ *kupal* (Xorazm).

-(*a*)*доң* ~ (*a*)*doz* affiksi otdan ravish yasaydi, uning singarmonisik varianti yoq: *oqshamgacha* (tungacha) ~ *ақшамадоң* ~ *axshamadon*, *kechgacha* ~ *гечадоң* ~ *gechadon* (Xorazm).

-*лак* / *лақ* ~ *lak* / *laq* affiksi sifatdan ravish yasaydi: *chapaqaj oshiq* ~ *чәпләк а:shiq* ~ *chaplak a:chiq*, *onaqaj oshiq* ~ *оңлақ а:шьқ* ~ *onlaq a:shiq* (Xorazm).

-*чъл* / *чл* ~ *chil* / *chil* affiksi otdan sifat yasaydi: *mahmadona* ~ *сөзчъл* ~ *suzchil*, *uyqichi* ~ *уйхчл* ~ *uyxichil* (Sim. oʻzb. sh.)

-*сә* / *са* ~ *sa* / *sa* affiksi Turkiston, Qoraqalpogʻgʻiston oʻzbek shevalarida otdan ot yasaydi: *йенсә* ~ *jensa* (non yopishda qoʻlga kiyiladi), *йанса* ~ *japsa* (bir yoʻla yopiladigan nonlar toʻdasi), *мойнса* ~ *toyinsa* (aravaga qoʻshish uchun otning boʻyniga solinadigan asbob, boʻyinturuq)

-*сәк* / *сақ* ~ *sak* / *saq* affiksi yasama otdam sifat yasaydi: *yatagʻon* *йатмсақ* ~ *jatimsaq*, *yuragʻon* ~ *йүрүмсәк* ~ *jirmsak*. *Qar* *йатмсақ*, *йаш йүрүмсәк кәләдъ* ~ *Qari jatimsaq*, *йаш jirmsdk kəldədi*. Adabiy tilda bu affiks *qurumsoq* soʻzida qayd qilinadi.

-*чъләп* / *чләп* ~ *childp* / *chilap* affiksi otdan ravish yasaydi: *erkaklar* ~ *әркәкчъләп* ~ *ərkəkcchildp*, *xotinlar* ~ *хатинчләп* ~ *xatinchilap* (Xorazm).

-*ш* / *ша* ~ *shd* / *sha* affiksi: tenglashtir ~ *теңшә* ~ *tensha*, qaqsha ~ *qaxsha* ~ *qaxsha*, qursha ~ *qursha* ~ *qursha*, quruqlashtir ~ *quruqsha* ~ *quruxsha*, quloq sol ~ *тўш* ~ *tinsha* (Andijon).

Bir qator kamunum affikslar ham qayd qilinadi:

-*мәк* ~ *mdk* affiksi sifatdan ot yasajdi: ko'kat ~ *көкмәк* ~ *kokmdk* (Andijon, Farg'ona).

-*шуг'* ~ *shug* affiksi otdan sifat yasaydi: yopishqoq ~ *йөләмшуг'* ~ *jelimshuz* (Toshkent).

Xorazm shevalarida ba'zi o'rinlarda chiqish kelishigi affiksi so'z yasash funksiyasini bajargan: boladek bo'ldi ~ *баладин болди* ~ *baladin boldi*, bolamdek bo'ldi ~ *баламнин болди* ~ *balamnin boldi*, otdak yuribdi ~ *аттин йүрөптө* ~ *attin jripti*.

Shevalarda shunday misollar uchraydiki, yasalishdagi har ikkala qism adabiy tilda mavjud, lekin adabiy tildagi bir so'z yasovchi affiks o'rnida ikkinchi bir so'z yasovchi tanlanadi: *damzliq* (Xorazm) – adabiy tida *tomizg'i*, *qamshliq* (shim. o'zb. shev.) – adabiy tilda *qamishzor*.

Savollar:

1. O'zbek shevalaridagi morfologik o'ziga xos xususiyatlar qaysi turkum va kategoriyalarda namoyon bo'ladi?
2. Ko'plik affiksining adabiy tildan farq qiladigan o'rinlarini aytib bera olasizmi?
3. Egalik affikslaridagi adabiy tildan farq qiladigan o'rinlarni aytib bera olasizmi?
4. Turlovchi affikslarning qo'llanish xususiyatlarini aytib bera olasizmi?
5. Qaysi shevalar besh kelishikli, qaysilari to'rt kelishikli?
6. Shevalardagi tuslovchi affikslarning tiplarini aytib bera olasizmi?
7. Sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi shakllarining hosil qilinishini izohlab bering.
8. O'z shevangizga xos so'z yasovchi affikslarni aytib bera olasizmi?

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: NAVRO'Z, 2016.
2. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
3. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2011, 2013.
4. To'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2004. – B. 112.
5. Enazarov T., Karimjonova V. A., Ernazarova M.S., Mahmadiyev Sh. S., Rixsiyeva K. G'. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.
6. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent. Fan, 1997.

Internet saytlari

1. [www.turk.dili.google.com.tr](http://www.turk.dili.google.com.tr)
2. [http://www.ut.uz/eng/today/europe\\_recognizes\\_her\\_discovery.mgr](http://www.ut.uz/eng/today/europe_recognizes_her_discovery.mgr)
3. <http://www.schneid9.de/sprache/linguistik/ling11.pdf>
4. <http://www.uni-leipzig.de/~fsger/materialien/Texte/Lexikologie.pdf>
5. [www.dersimiz.com](http://www.dersimiz.com)
6. [www.altinmiras.com](http://www.altinmiras.com)
7. [www.thinsan.com](http://www.thinsan.com)

Test

1. **Възвръз** fe'li qanday fe'l zamoni hisoblanadi?  
A) hozirgi kelasi zamon; C) o'tkan zamon; B) hozirgi zamon; D) kelasi zamon.
2. Shevalardagi hozirgi zamon davom fe'li hosil qiluvchi affikslar qatorini toping.  
A) - дьк, - dq; C) - asan, - аджаq; B) - al, - әсь; D) - **кь, - кьт**
3. Hozirgi zamon davom fe'lining –джатр bilan yasalishi qaysi lahjaga xos?  
A) Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi; C) o'g'uz lahjasi; B) Qipchoq lahjasi; D) To'g'ri javob yo'q.
4. Qaysi zamon shakllaridan *-adi, -ar* uslubiy betaraf shakllar hisoblanadi?  
A) hozirgi zamon; C) kelasi zamon; B) o'tkan zamon; D) hozirgi o'tkan zamon.
5. Kelasi zamon formasining –джак//–джәк affiksi bilan qo'llanilishi qaysi lahjaga xos?  
A) Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi; C) o'g'uz lahjasi; B) Qipchoq lahjasi; D) To'g'ri javob yo'q.
6. O'tkan zamonning bo'lishsizlik shakli berilgan qatorni toping.  
A) **джарраг'амтан//джарраг'ансан//джарраг'ан**  
B) **джарраг'амтс//джарраг'анс//джарраг'ан**  
C) **келәятәр//келәятәр//келәйтәр**  
D) A va B javoblar to'g'ri
7. Kelasi zamon sifatdoshining *-tg'an* bilan yasalishi qaysi lahjaga xos?

A) Shimoliy o'zbek; C) o'g'uz lahjasi; B) nayman lahjasi; D) qipchoq lahjasi

8. Qaysi qatordagi qo'shimchalar o'tgan zamon fe'lini ifodalaydi?

A) -r//ur//yr//ar//er; C) -йткән//dog'on; B) -гән//кән//г'an//qan//an//en; D) adjaq//ədjak.

9. Айзада йенә ойнап, атаһын уға. Yuqoridagi gapda qaysi zamon ifodalangan?

A) hozirgi zamon; C) kelasi zamon; B) o'tgan zamon; D) to'g'ri javob yo'q

10. Азан мнән түрдәтә, аһтам Самарқаттан кәгән жорам мнән чайъчп боп машинг'а отрдқ. Berilgan gapda nechta fe'l ishtirok etgan?

A) 5 B) 2 C) 3 D) 4

11. Toshkent shevasida hozirgi zamon fe'lini ifodalovchi affiksni toping.

A) -айт / эйт; C) -вәт; B) -yatr; D) -vatr

12. Fe'l zamonlarini hosil qiluvchi vositalar qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

A) sifatdosh; C) tuslovchi affikslar; B) ravishdosh; D) A, C javoblar to'g'ri

13. Fe'lining harakat nomi shakli qaysi zamonni ifodalaydi?

A) hozirgi zamon; C) o'tgan zamon; B) kelasi zamon; D) hech qanday zamonni ifodalamaydi

14. Hozirgi zamonni ifodalovchi affiksni ko'rsating.

A) -ar//er; C) -йткән; B) -an//en; D) -gən//kən

15. Xorazm shevasida hozirgi zamonni ifodalovchi affiksni toping.

A) -эр; C) -yatr; B) -джатр; D) -айт / эйт.

16. Qaysi gapda o'tgan zamonni ifodalagan fe'l berilgan?

A) зйапатта шәтрәнч ойнайла

B) У вәхт г'алла мнен куннүзгә йуруш қыйын;

C) Қой, йуравур, шн бомәсн; D) Вarchа јавоб то'g'ri.

17. Бъэә енн шу уруг'лэдән үргн қзган-дә. Gapda qaysi zamondagi fe'l ishtirok etgan?

A) hozirgi zamon; C) kelasi zamon; B) o'tgan zamon; D) to'g'ri javob yo'q

18. Xorazm dialektiga xos o'tgan zamon fe'l tuslanishini aniqlang.

A) кел vedь C) бар vадъм; B) бзг үvdъm; D) бзг sh үvdъ

19. Fonetik o'zgarishlar ko'proq qaysi zamon fe'llarida ro'y beradi?



A) kelasi zamon; C) o'tgan zamon ; B) hozirgi zamon; D) barcha javoblar to'g'ri.

20. Toshkent dialektiga xos hozirgi zamon fe'l tuslanishini toping.

A) b o r a t t m ; C) b o r y t t b m a n ; B) b o r l m m a n ; D) b o v o m m a

Mavzuga oid savollar:

O'zbek shevalaridagi morfologik o'ziga xos xususiyatlar qaysi turkum va kategoriyalarda namoyon bo'ladi?

ko'plik affiksining adabiy tildan farq qiladigan o'rinlarini aytib bera olasizmi?

Egalik affikslaridagi adabiy tildan farq qiladigan o'rinlarni aytib bera olasizmi?

Turlovchi affikslarning qo'llanish xususiyatlarini aytib bera olasizmi?

Qaysi shevalar besh kelishikli, qaysilari to'rt kelishikli?

Shevalardagi tuslovchi affikslarning tiplarini aytib bera olasizmi?

Sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi shakllarining hosil qilinishini izohlab bering.

O'z shevangizga xos so'z yasovchi affikslarni aytib bera olasizmi?

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: NAVRO'Z, 2016.

2. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996 .

3. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2011, 2013.

4. To'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2004. – B. 112.

5. Enazarov T., Karimjonova V. A., Ernazarova M.S., Mahmadiyev Sh. S., Rixsiyeva K. G'. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.

6. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent. Fan, 1997.

4) Internet saytlari

1. [www.turk.dili.google.com.tr](http://www.turk.dili.google.com.tr)

2. [http://www.ut.uz/eng/today/europe\\_recognizes\\_her\\_discovery.mgr](http://www.ut.uz/eng/today/europe_recognizes_her_discovery.mgr)

3. <http://www.schneid9.de/sprache/linguistik/ling11.pdf>

4. <http://www.uni-leipzig.de/~fsger/materialien/Texte/Lexikologie.pdf>

5. [www.dersimiz.com](http://www.dersimiz.com)

6. [www.altinmiras.com](http://www.altinmiras.com)

7. [www.thinsan.com](http://www.thinsan.com)

### O'zbek shevalari sintaksisi

#### Reja:

1. So'zlashuv nutqining mukammal o'rganilmaganligi.
2. Dialektal nutqqa xos xususiyatlar.
3. O'zbek shevalari sintaksisining o'rganilishi.
4. Shevalarda ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, holning prof. F.Abdullaev tomonidan tadqiq qilinishi.
5. Yu.Jumanazarov tomonidan Xorazm shevalaridagi sodda, qo'shma gaplarning tadqiqi.
6. Shevalarda qo'shma gaplarning qo'llanilishi.

Tayanch so'z va tushunchalar: Fikr olishuv. Ilmiy uslub. Badiiy uslub. O'zaro so'zlashuv uslubi. Mahalliy hududlar. Dialektal nutq. Predikativlik (kesimlilik) qo'shimchasi. Kesimning ifodalanishi. Eganing ifodalanishi. Aniqlovchining ifodalanishi. To'ldiruvchi hamda holning ifodalanishi. So'z tartibi. Adabiy til. Lingvistik-struktural soha. Sintaktik sinonimiya. Dialektal gap.

Til odamlar orasida fikr olishuv vositasi bo'lsa, nutq esa shu fikr olishuv vositasining ro'yobga chiqish va til materiallaridan foydalanish jarayonidir. Fikr olishuv esa nutqning ilmiy, badiiy va o'zaro so'zlashuv uslublari orqali voqye bo'ladi. O'zaro so'zlashuv nutqining adabiy uslubi va mahalliy hududlarga xos formalari mavjud.

O'zbek tilshunosligida mahalliy hududlardagi aholi nutqining fonetik, morfologik va leksik tomonlari ozmi-ko'pmi tekshirilgan. Ammo so'zlashuv nutqining mahalliy sharoitga xos bo'lgan formalari bilan adabiy og'zaki formasining o'zaro aloqasi, ular orasidagi farqlar atroflicha o'rganilmagan. Bu masala rus tilshunosligida akademik V.V.Vinogradov tomonidan o'rganilgan: nutqning og'zaki formasi o'ziga xos uslubga ega bulishini qayd qilganida rus tilining o'zaro so'zlashuv formasini e'tiborga olgan (V.V.Vinogradov. Stilistika. Teoriya poeticheskoy rechi. Poetika. M.: "Nauka". 1963, 18-19-b.) Bu narsa o'zbek tiliga ham bevosita aloqadordir. Sababi nutqning (o'zbek) formasidan tashqari o'zaro so'zlashuvga xos og'zaki formasi hamda uning o'ziga xos bo'lgan nutqining o'ziga xos uslubi o'z-o'zidan paydo bo'ladi, deb o'ylash xato bo'lur

edi, degan fikri ham dialektal nutqning alohida xususiyati borligini, uning adabiy (og'zaki) nutq bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Dialektal nutqda mahalliy odamlarga xos pauza, intonatsiya, turli ifoda vositalari hamda undan mahalliy odamlarning tushinishiga oid bo'lgan doiraga taqlid qilish ham namoyon bo'ladi. Unda savol beriladi, javob olinadi, ortiqcha replika bo'lmaydi, o'rniga qarab replika, pauza, davra ham sharoitga moslashib qisqa bo'ladi. Unda o'ziga xosa emotsionallik, gap bo'laklarining urg'u va pauza bilan ajralib turish holatlari, bo'g'in va taktlarni alohida ifoda qilishdan tashqari, birikma, fraza, soddaga gap va qo'shma gaplarni ajratib aytish hollari ham mavjud. Chunki til faoliyati til materialini va tizimi bilan dialektal bog'liqdir. Dialektal nutqda maxsus tayyorgarlik bo'lmaydi, nutq bunda dialogga asoslangani uchun so'zlovchi ma'lum erkinlikka asoslanib gapiradi. Nutq to'liqsiz gap formasida tarixiy ravishda namoyon bo'ladi, unda ifodalalilik, ekspressivlik, intonatsion tugallik mavjud bo'ladi.

Dialektal nutqning namunalari o'rganish orqali o'zbek shevalari va dialektlarining sintaktik xususiyatlarini yoritib berish mumkin bo'ladi. Hozirgi kunda sheva va dialektlarning sintaktik holatlarini o'rganish ham juda katta ilmiy amaliy ahamiyatga ega. Mavjud monografik tavsif va tadqiqotlarda sintaksis qismining bo'lmashligi, birinchidan, ushbu soha traditsiya holatida o'rganilmaganligi bilan, ikkinchidan, sintaktik tahlilning nihoyat darajada qiyinligi izohlanadi. Sheva va dialektlarning sintaktik xususiyatlari har xil janrdagi jonli nutqlarni uzoq muddatli kuzatish natijasida to'plangan faktik materiallar asosida yoritib berilishi kerak.

O'zbek shevalarining sintaktik xususiyatlarini, albatta, ajratib olingan ma'lum bir hudud doirasida M.Mirzaev, F.Abdullaev, Yu.Ju-manazarov, A.Aliev, B.O'rinboev, M.Turoпова, X.Jo'raevlar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida o'rganishga harakat qilishgan.

Gap bo'laklari shevalararo har xil ko'rinishga ega bo'ladi. Buxoro guruh shevalarda gapning kesimi sifatdosh bilan ifodalansa, ega bilan shaxs-sonda moslashmaydi, bunda sifatdosh predikativlik (kesimlilik) qo'shimchasiga ega bo'lmaydi: Man kelgan, 'shlagan.; San kelgan, 'shlagan. holati yoritilsa, F.Abdullaev tomonidan kesimning 8 xil holatda ifodalanishi ko'rsatiladi (kesimning 8 xil holatda ifodalanishi ko'rsatiladi):

1. Fe'l kesim bo'ladi: *la:ra ayto'n, oye.grsn.* (Qo'shiq)
2. Yoq, bar so'zlari kesim bo'lib keladi: *Manda ba:, sanda yoq.*
3. Sifat kesim bo'ladi: *Baqyraq dyen bolg'an' yaxsh', baqyraq durg'an' xunnamam yaxsh'.*
4. Olmosh kesim bo'ladi: *Gelyat'rg'an yam' uz, ya:d'ndakan bargin soz.*
5. Son kesim bo'ladi: *Ikk' ombesh - br.ottz* (maqol).
6. Infinitiv kesim bo'ladi: *Maxsatm oqymaq.*
7. Ish oti kesim: *Br geryan blsh, ikk geryan - dan'sh.*
8. Ravish kesim bo'ladi: *Deyxan deyxannan besh gun soq.*

Ega 7 xil holatda ifodalanadi:

1. Ot: *Meymən girər yeshiktan, de:lət grər deshtkən.*
2. Sifat: *Yəxsh' təp'v sollər, yəmən kəp'p sollər.*
3. Son: *'ikk' yəxsh', 'ikk'dən uch yəxsh'.*
4. Olmosh: *Sən sollədn, mən chushndm.*
5. Sifatdosh: *oqyig'an əzər, oqyməgən təzər.*
6. Infinitiv: *Qosh qoshmək - bərmaq - kelmək.*
7. Ish oti (harakat oti): *yer xat'nn' ur'sh' - dekenen kursh.*

Aniqlövchi 5 xil ko'rinishda ifodalanadi:

1. Ot: *Sha:y' geynek yelpldyd yurgendə.*
2. Sifat: *A:k kyk kayda yaylur tə:g' olmasa, Q'zl gul qayda ach'lur bə:q olmasa.*
3. Son: *Ba:zara barsəh, o'z, yolo'h, o'z volg'ay, uch-doqqyz almag'a qoynıh, o'z dolg'ay.*
4. Olmosh: *Xu uchakten bu ucheke baqaman, Qumr qusht'yn qanat'mn' qaqaman.*
5. Sifatdosh: *Chəmədə sayrəg'n bulbul, chəmn gult xəzən etmə.*

To'ldiruvchi

1. Ot: *Ag'zyna qarap sollə, gezzh n ya:g' bas'pt. əəə.*
2. Sifat: *Ull'n' xormet yet, kchchn izzət.*
3. Son: *Kopn gordm, brn so:dm, ya:r' ba:r'n blmadm (Qo'shiq).*
4. Olmash: *Səhə chusht men yətmn, nəzər, Qachan olg'ay ikk yetm ba:zar (Qarnoq).*
5. Sifatdosh: *Koptn əjralg'ann bor yer.*
6. Ish oti: *Sollashn yəxsh gərəd vu (Urganch).*
7. Infinitiv: *Salam bermeknə:m blsh garək.*

Hol

1. Ravish holi: *Oylam'yn solləyən, ag'r'm'yn oləd.*
2. Payt holi: *B'y kun kech yeksəh, by xəptə kesh orəsə (Iqon).*
3. O'rin holi: *Betta gosh arzən, ye:ttə ikk somg'a bergdm? (Mankent).*

4. Inkor gaplarning kesimi vazifasida qo'llanadigan *emas*, *yo'q*, so'zlari ba'zan o'zaro almashadi, qorishtirib ishlatiladi: Bunday farqlamay ishlatish "ikki tili" shevaning xususiyatidir: - *Bu kun jumam?* - *Yo'q, bu kun juma yo'q, shamba. Jora kecha kelgan yemas.*

Bu shevada mumkin yemas o'rniga "*mumk'n yoq*" holati qo'llanadi.

5. O'rin-payt kelishigi yordami bilan shakllanishi lozim bo'lgan boshqaruv aloqasi jo'nalish kelishigida shakllanadi: *B'z(lar) q'shlaqqa turam'z.*

6. Buxoro shevasida ("ikki tili shevadla") tojik tilidan o'zlashgan izofa aniqlanmish-aniqlovchi so'z birikmasi keng ishlatiladi: *gulranc, -gulra'n, gultaj' xurys - gultajixorc.*

7. Gap bo'laklariga xos muayyan tartibning o'zgarishi - inversiya adabiy tildagiga nisbatan shevalarda ko'p uchraydi. So'z tartibi shevalarimizda erkin. Buxoro guruh shevalarida: 1. *U cvqat ko'p yeyd' - U ko'p cvkat yeyd'.* 2. *U tez vazifan' bajard' - vazifan' u tez bajard' - ... tez u bajard'.*

Gapda so'z tartibi sintaksisning muhim problemalaridan biri hisoblanadi. Dialektal nutqda so'z tartibi gapda ahamiyat berilgan bo'laklarning, ba'zan esa so'zlovchi tomonidan esga kelgan bo'laklarning birinchi aytilishi bilan farq qiladi. Diqqan markazida bo'lgan so'z birinchi aytilaveradi. Do'q qilish, qo'rqitish, qat'iy buyruq qilingan paytlarda olmosh egalarning "tushib qolishi", kesimning oldin aytilishi oddiy tartib bilan mos kelmaydi. Masalan: tur o'rningdan, yo'qol bu yerdan kabi. Dialektal nutqning intonatsiyaga boyligi, unda har xil nutqiy tovlanishlar mavjudligi gap bo'laklarining joylanishiga ham ta'sir qiladi. Gapda so'z tartibi quyidagi vazifalarni bajaradi: gap bo'laklarining o'zaro aloqasi ta'minlanadi, bo'laklarning joylanishi, fikrning ma'lum maqsadga qaratilishi uchun xizmat qiladi, gap bo'laklarining ekspressiv-stilistik xususiyatini ko'rsatadi, so'zlovchining maqsadi, tinglovchining situatsiyadan kelib chiqadigan fikri oydinlashadi.

Gapda bo'laklarning joylanishi psixo-lingvistik ahamiyatga ham ega. Maqol va matallarda gap bo'laklaridagi tartib ma'noni kuchaytirish maqsadi bilan bog'liq. Bularda qofiyalanish, ohangdorlik sezilib turadi: *Boy'ma yarasha tamag'ym, opkalama qonag'ym* (Maqol).

Gap bo'laklarining tartibi adabiy til uchun ham, dialektlar uchun ham muhim lingvistik-struktural sohadir. Sodda gap bo'laklarining odatdagi tartibi:

ega - kesim -; ega-to'ldiruvchi-hol-kesim; aniqlovchi-ega-to'ldiruvchi-hol-kesim.

So'zlar tartibining o'zgarishi natijasida gapdagi so'zlarning grammatik munosabati o'zgarsa, bunda tartib grammatik vazifani bajargan bo'ladi: *yets'n yaxsh' muratkə - Yaxshi yetsin murodga...*

Prof. A.Aliev Namangan guruh shevalarida gap bo'laklarining tartibini bu tarzda birma-bir bergan:

1.Ega-kesim: *osma ket ar, qsh qklar.*

2.Ega-to'ldiruvchi-kesim: *aymen'g'n' q'lad.*

3.Ega-to'ldiruvchi-to'ldiruvchi: *Qassp shnas'ga su'ya taktar.*

4. Ega-to'l.-payt hol-kesim: *q'z juvɔnɔgga qosh'lganda hur volur.*
5. Ega-ravish holi-kesim: *yaxshi tɔp'p gap'rar.*
6. Qaratqich-qaralmish (ani.-ega)-kesim: *jeyy' tevəs' - pes' bomeyd'.*
7. To'l.-to'l.-aniq.-kesim: *yecha:n' dədəngga b'pəddɔs kosatmə.*
8. Aniq.-kesim: *b' - ch'ttaxɔnə.*
9. Aniq.-ega-o'ri.holi-kesim: *ulen' xe:l's' beydan urɔq.*
10. Aniq.-ega-kesim-to'l.-rav.holi: *g'r'm kenə: k'yməyman yqɔqəs' y'rt't'q.*
11. Payt holi-payt holi-ega-o'rin h.-qo'shma kesim: *yettas'gə ɔsh'chardə bɔsməch'la sho:rdən qɔch'p ot'sht.*
12. Ega-aniq-to'l.-ravish h.-kesim: *bor' ett' gap'ga laqqə choshupt'.*
13. O'rin h.-sifatlovchi- aniq.-qarat. aniq-ega-kesim: *yeshuvin nan ɔqqən su:n' kədr' yo:*
14. To'l.-ravish h.-kesim: *su:n' korməy yetu: yechma.*
15. Ega-to'l.-kesim-maqsd holi: *M'zzaməmut yolgə ch'xt hyeymənzulləshkən'.*
16. Aniq.-o'rin holi-ega-kesim: *orun' təg'gə ɔlma chushmeyd'.*
17. Aniq.-to'l.-ega-to'l.-kesim: *b'rɔpp' tarət'məm sən nɔmɔzz' oq'mə.*

Gap bo'laklari bilan grammatik bog'lanmagan so'zlar va konstruksiyalarga xos dialektal kirish so'zlar va iboralar ishlatiladi: Buxoro guruh shevalarida: *əvvələm, magarəmkı, cheq'dən, məhə qarəh; həmə kəlp oturd' əvvələm; ular kelelməd'lar cheq'dən.*

Til odamlar orasida fikr olishuv vositasi bo'lsa, nutq esa shu fikr olishuv vositasining ro'yobga chiqish va til materiallaridan foydalanish jarayonidir. Fikr olishuv esa nutqning ilmiy, badiiy va o'zaro so'zlashuv uslublari orqali voqye bo'ladi. O'zaro so'zlashuv nutqining adabiy uslubi va mahalliy hududlarga xos formalari mavjud.

O'zbek tilshunosligida mahalliy hududlardagi aholi nutqtining fonetik, morfologik va leksik tomonlari ozmi-ko'prni tekshirilgan. Ammo so'zlashuv nutqining mahalliy sharoitga xos bo'lgan formalari bilan adabiy og'zaki formasining o'zaro aloqasi, ular orasidagi farqlar atroflicha o'rganilmagan. Bu masala rus tilshunosligida akademik V.V.Vinogradov tomonidan o'rganilgan: nutqning og'zaki formasi o'ziga xos uslubga ega bulishini qayd qilganida rus tilining o'zaro so'zlashuv formasini e'tiborga olgan (V.V.Vinogradiv. Stilistika. Teoriya poeticheskoy rechi. Poetika. M.: "Nauka". 1963, 18-19-b.) Bu narsa o'zbek tiliga ham bevosita aloqadordir. Sababi nutqning (o'zbek) formasidan tashqari o'zaro so'zlashuvga xos og'zaki formasi hamda uning o'ziga xos bo'lgan nutqining o'ziga xos uslubi o'z-o'zidan paydo bo'ladi, deb o'ylash xato bo'lur edi, degan fikri ham dialektal nutqning alohida xususiyati borligini, uning adabiy (og'zaki) nutq bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Dialektal nutqda mahalliy odamlarga xos pauza, intonatsiya, turli ifoda vositalari hamda undan mahalliy odamlarning tushunishiga oid bo'lgan doiraga taqlid qilish ham namoyon bo'ladi. Unda savol beriladi, javob olinadi, ortiqcha replika bo'lmaydi, o'rniga qarab replika, pauza, davra ham sharoitga moslashib qisqa bo'ladi. Unda o'ziga xosa emotsionallik, gap bo'laklarining urg'u va pauza bilan ajralib turish holatlari, bo'g'in va taktlarni alohida ifoda qilishdan tashqari, birikma, fraza, sodda gap va qo'shma gaplarni ajratib aytish hollari ham mavjud. Chunki til faoliyati til materiali va tizimi bilan dialektal bog'liqdir. Dialektal nutqda maxsus tayyorgarlik bo'lmaydi, nutq bunda dialogga asoslangani uchun so'zlovchi ma'lum erkinlikka asoslanib gapiradi. Nutq to'liqsiz gap formasida tarixiy ravishda namoyon bo'ladi, unda ifodalalilik, ekspressivlik, intonatsion tugallik mavjud bo'ladi.

Dialektal nutqning namunalarini o'rganish orqali o'zbek shevalari va dialektlarining sintaktik xususiyatlarini yoritib berish mumkin bo'ladi. Hozirgi kunda sheva va dialektlarning sintaktik holatlarini o'rganish ham juda katta ilmiy amaliy ahamiyatga ega. Mavjud monografik tavsif va tadqiqotlarda sintaksis qismining bo'lmashligi, birinchidan, ushbu soha traditsiya holatida o'rganilmaganligi bilan, ikkinchidan, sintaktik tahlilning nihoyat darajada qiyinligi izohlanadi. Sheva va dialektlarning sintaktik xususiyatlari har xil janrdagi jonli nutqlarni uzoq muddatli kuzatish natijasida to'plangan faktik materiallar asosida yoritib berilishi kerak.

O'zbek shevalarining sintaktik xususiyatlarini, albatta, ajratib olingan ma'lum bir hudud doirasida M.Mirzaev, F.Abdullaev, Yu.Ju-manazarov, A.Aliev, B.O'rinboev, M.Turopova, X.Jo'raevlar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida o'rganishga harakat qilishgan.

Turk-kaltatoy shevasida gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmagan so'zlarga undalma va kirish so'zlaridir: *bo'lam, senga n'ma boll'*?

Shevalarda qo'shma va murakkab gaplarga nisbatan sodda gaplar ko'p uchraydi. Yu.Jumanazarovning ta'kidlashicha, u 1962-1967 yillar ichida Xorazmdagi 112 odamdan 2800 gap yozib olgan bo'lib, shundan 2100 tasi sodda gap, ya'ni 75 foizi sodda gap: *Aytqanim - shu; Degenim - degan, Bala - bala.*

Dialekt va shevalarda qo'shma gap komponentlari o'zbek adabiy tilidan keskin farq qilmaydi. Ikki komponentdan iborat qo'shma gaplar uch va to'rt komponentlardan tashkil topgan qo'shma gaplarga nisbatan ko'p tarqalgan: *G'ava bulit bo'ldi, dag'in gunem savip getti. Damaqi o'rtag'a alip yemaka aylanishiptilar* (ovqatni tayyor qilib yeya) *ekkan xirman etar, ekmagan arman yetar.*

Qo'shma gaplarning uch sodda gap komponentidan iborat bo'lishi ham ancha keng tarqalgan: *Ayttim, hazir galadi, bir zamin otiring.*

Qo'shma gaplar to'rt sodda gap komponentidan iborat bo'lishi ham mumkin: *axsham bulut boldi, paxtani yag'navedik, yig'madi, yaxshi voldi.*

Qo'shma gaplar beshta komponentdan iborat bo'lishi mumkin: *Uya girip : anavi qana? - dedi, hazir galadi, dedim.*

Gap ichida har xil formada ishlatilib, bir-biriga yaqin ma'noni anglatuvchi va gapda bir xil vazifani bajaruvchi parallel sintaktik konstruksiyalar sintaktik sinonimiyani tashkil qiladi: *qating og'riydi? ne:ring ag'riydi?*

*Kennoyim kelvcttila - gelimbiyim gayatilla--yangam kelcptila.*

*Qayq'lar'm yajjan chiqd' // Gorgan azaplər'm unut boldi... juda kop:: 1. Men birtudan paxta terdim. 2. Men dim kop paxta terdim. 3. Men yer qaraqan paxta terdim. 4. Men yer djahan paxta terdim. 5. Men yer xiri paxta terd'm. 6. Men iqin-diqin paxta terd'm (Xorazm v..)*

Intonatsiya orqali so'zlovchining his-tuyg'usi, ichki kechinmalari, nutq predmetiga turlicha munosabati aniqlaydi. Og'zaki nutg'imizda gapning grammatik-fikriy bir butunligini intonatsiya bildiradi. So'z, so'z birikmasining gap yoki gap emasligini intonatsiya orqali bilamiz.

Dialektda intonatsiya predikatsiya vazifasini ham bajaradi. Buyruq gaplarda intonatsiya darak gaplardagiga qaraganda nutq temбри va sifatining kuchayishi bilan xarakterlanadi: qisqa va ixcham jumalarda ovoz kuchi alohida bo'ladi: *bor, ket, oqi, tur* kabi.

So'roq gaplarda intonatsiya ovozning gap oxirigacha so'raladigan so'zgacha kuchayib, ko'tarilib borishi bilan xarakterlanadi: *Siz paxtani nega oz terdingiz? mektepten gelip paxtag'a barasa-ə?*

Misollardan ko'rinib turibdiki, dialektal gaplarning o'ziga xos ohanglari, aytilish xususiyatlari bor. Intonatsiya haqida berilgan gaplar Xorazm shevasidan olingan misollar bo'lib, ular misolida shevalardagi intonatsion holatlarni ko'rishga harakat qildik. Sababi intonatsiya shevalar va dialektlar doirasida yaxshi o'rganilmagan murakkab hodisadir.

Adabiy tilda bo'lgani kabi jonli tilda (sheva) ham har bir gapning o'ziga xos intonatsiyasi bo'ladi.

Dialekt va shevalarning sintaktik qurilishini har tomonlama tavsif qilish hozirgi adabiy til, yozma yodgorliklar tili va yetakchi shahar shevalari tili bilan qiyosiy o'rganishga asoslanadi. Dialektal sintaksis nisbatan olganda tor doiradagi kishilar uchungina xizmat qiladi.

Dialektal sintaksis dialogik jarayonlarga asoslangani uchun unda qisqalik, ixchamlikka erishish kabi xususiyatlar bor bo'ladi.

Tilimizdagi shevalar va dialekt (lahja)larning sintaktik xususiyatlarini bilish uchun qiyosiy hamda tarixiy-qiyosiy plandagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish juda zarurdir.

Mavzuga oid savollar:

1. Dialektal nutqning qanday xususiyatlari bor?
2. O'zbek shevalari sintaksisini kimlar o'rgangan?
3. Shevalarga oid gaplarga xos gap bo'laklarini kim tadqiq etgan?



4. Namangan guruh shevalarida gap bo'laklarining joylashishini kim o'rgangan?
5. Shevalarda sodda gapning qanday turlari uchraydi?
6. Shevalarda qo'shma gaplarning qanday turlari mavjud?
7. Shevaga oid gaplar adabiy tilgan oid gaplardan qanday xususiyatlari bilan farqlanadi?

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Abdullaev F.A. O'zbek tilining o'g'uz lahjasi. T., Fan, 1978.
2. Jumanazarov Yu. O'zbek tili janubiy Xorazm (o'g'uz) dialektining sintaktik tuzilishi. T., Fan, 1976.
3. Turopova M. O'zbek shevalari sintaksisi. T., Fan, 1984.
4. Jumanazarov Yu. O'zbek tilining janubiy Xorazm (o'g'uz) dialektining sintaktik tuzilishi. T., Fan. 1976. 134 bet.
5. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi.T.,O'qituvchi,1996.

Internet saytlari

- 1.[www.turk.dili.google.com.tr](http://www.turk.dili.google.com.tr)
- 2.[http://www.ut.uz/eng/today/europe recognizes her discovery.mgr](http://www.ut.uz/eng/today/europe%20recognizes%20her%20discovery.mgr)
3. <http://www.schneid9.de/sprache/linguistik/ling11.pdf>
- 4.<http://www.uni-leipzig.de/~fsger/materialien/Texte/Lexikologie.pdf>
- 5.[www.dersimiz.com](http://www.dersimiz.com)
- 6.[www.altinmiras.com](http://www.altinmiras.com)
- 7.[www.thinsan.com](http://www.thinsan.com)

Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi muhim xususiyatlari

Reja:

1. Lahjaning qisqacha tarixi va tarqalishi.
2. Lahjaning fonetik xususiyatlari.
3. Lahjaning morfologik xususiyatlari.
4. Lahja leksikasidan namunalalar.

Tayanch tushunchalar: Chigil, xalaj, yag'mo, uyg'ur, qarluq [chigil, khalag, jagma, ujugur, karluk] – qadimgi turkiy qabilalar, lahjaning tarixi, lahjaning fonetik xususiyatlari, lahja leksikasi materiallari, lahjaning muhim xususiyatlari.

O'zbek tilining qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi shahar shevalarini va ularga yondosh bo'lgan shahar tipidagi qishloq shevalarini o'z ichiga oladi.

Mazkur dialekt birligining shakllanishi XI asrdagi Qoraxoniylar harakati bilan bog'langan.

Tarixiy jihatdan qarluq-chigil-uyg'ur birligiga Namangan, Toshkent, Andijon va O'zbekistonning boshqa joylaridagi yirik punktlar aholisining shevalari taalluqlidir.

Bu lahjaning shevalari O'zbekiston territoriyasidan tashqarida ham ko'p tarqalgan. Masalan Qozog'iston territoriyasidagi Chimkent, Qoramurt, Sayram, Qorabuloq, Iqon, Mankent; Qirg'izistonning O'sh, jalolobod, O'zgan shaharlari shular jumlasidandir. Bu lahjaga oid sheva vakillarini Afg'onistonda ham uchratamiz. Ma'lumki, 1630-yillarda o'zbek urug'lardan qatag'anlarning bir qismi Shashdan (Toshkent vohasidan) Afg'onistonga ko'chib ketganlar. O'zbek shevalarini klassifikatsiya qilgan tadqiqotchilar bu lahja shevalarini turli gruppalarga kiritganlar. Holbuki, mazkur shevalar o'rtasidagi genetik va til jihatdan yaqinlik faqat tarixiy plandagina emas, balki hozirgi paytdagi holatida ham –fonetikada ham, leksikada ham, ba'zi grammatik shakllarda ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Uyg'ur tiliga xos bir qator tipik xususiyatlarning, qisman "umlaut"ning mavjudligiga qarab xarakterlanadigan shevalar territoriyasi o'tmishda, albatta, kengroq va ko'proq bo'lgan.

Namangan shevalariga asos bo'lgan turkiy til birligini e'tiborga olmasdan turib, Andijon, O'sh kabi shevalar genezisini aniqlash mumkin emas. Shuningdek, Toshkent shevasining yuqorida ko'rsatilgan shevalarga genetik jihatdan aloqadorligini hisobga olmay turib, Toshkent shevasidagi ba'zi fonetik xususiyatlarning va morfologik formalarning kelib chiqishini tushuntirish mumkin emas. Modomiki shunday ekan, yagona territoriyada va yagona bir til kollektivi sostavida bir-biriga bog'lanmagan holda vujudga kelgan til hodisalari yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Toshkent va Jizzax shevalarining yaqinligini tasodifiy bir hol deb bo'lmaydi, shuningdek Qarshi, Toshkent va Namangan shevalari o'rtasidagi o'xshash fonetik hodisalarning mavjudligini faqat til taraqqiyotining umumiyliги bilangina izohlash mumkin. Iqon-Qorabuloq, ayniqsa, Chimkent-Sayram tipidagi shevalar ham shu umumyo'ldan chetda qolgan emas. Chunki bu shevalar eski o'zbek yozuv tili bilan, shuningdek Toshkent va Namangan tipidagi shevalar bilan mustahkam aloqadordir. Faqat mazkur shevalarning ayrimlarigina o'g'uz tili elementlarini ma'lum darajada saqlaganligi bilan Toshkent, Namangan tipidagi shevalardan farqlanadi, xolos. Samarqand-Buxoro-Xo'jand gruppasi shevalarining turkiy zaminini ham qarluq-chig'il-uyg'ur til birligi tashkil etadi, lekin bu shevalarning tarkibiy qismida tojik tili qatlamining minimal ustunligi va ikki tillilik saqlangan. Shu sababli mazkur shevalar bilingizm protsessini, principal bir-biridan farqlanadigan til sistemalarining o'zaro ta'sir protsessini o'rganish nuqtai nazaridan juda qiziqarlidir. Mazkur lahjaga oid shevalar (Toshkent, Jizzax, Qarshi, Andijon, Namangan, O'sh, Qorabuloq, Chimkent va

boshqalar) tarixiy jihatdan bitta dialekt kompleksini tashkil etadi. Umumplanda bu lahjani tubandagi gruppalariga bo'lish mumkin:

#### I. Farg'ona gruppasi.

1. Namangan dialekti. Bu dialektga Namangan shahar shevasi va shahar tipidagi Namangan atrofidagi shevalar (masalan, Uychi va boshqalar) talluqlidir (Namangan atrofidagi qipchoq shevalari, tabiiyki, bu dialektga kirmaydi). Mazkur dialektga oid shevalar uyg'ur tiliga maksimal darajada yaqinligi bilan xarakterlanadi.

2. Andijon-Shahrixon dialekti. Bu dialektga Andijon shahr shevasi, Shahrixon shevasi va Andijon viloyatidagi boshqa bir qator shevalar kiradi.

3. O'sh-O'zgan dialekti. Bunga O'sh, O'zgan, Jalolobod va shu tipdagi boshqa shevalar taalluqli bo'lib, ular uchun janubiy qirg'iz shevalari bilan bo'lgan metisatsiya xarakterlidir.

4. Marg'ilon-Qo'qon dialekti. Bu dialektga Marg'ilon, Farg'ona, Vodil, Qo'qon va boshqa shu tipdagi shevalar kiradi.

#### II. Toshkent gruppasi

Toshkent dialekti. Bunga Toshkent shahar shevasi, Toshkent viloyatidagi qipchoq shevalaridan boshqa shahar tipidagi shevalar, masalan, Piskent, Parkent, Qoraxitoy va boshqalar taalluqlidir.

#### III Qarshi gruppasi

1. Qarshi dialekti. Bu dialektga Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog' va (qipchoq shevalaridan tashqari) Qashqadaryodagi shu tipdagi shevalar kiradi.

2. Samarqand-Buxoro dialekti. Bunga Samarqand, Buxoro, Xo'jand, Farg'ona vodiysidagi Chust, Qashqadaryodagi Koson va shu tipdagi boshqa shevalar kiradi (o'g'iz va qipchoq lahjasiga taluqli shevalar bu dialektga kirmaydi).

#### IV Shimoliy o'zbek gruppasi.

1. Iqon-Qorabuloq dialekti. Bunga Iqon, Qorabuloq, Mankent, Qoramurt va boshqa ba'zi shevalar taalluqli bo'lib, ular o'zining tarkib topish jarayoniga avvalo o'g'uz, keyinchalik esa qipchoq tili elementlari bilan aralashgan.

2. Turkiston-Chimkent dialekti. Bu dialektga Turkiston Chimkent, Sayram va shu tipdagi boshqa shevalar kiradi. Mazkur dialekt o'g'uz til elementlarining kam bo'lishi, biroq Janubiy Qozog'iston shevalari bilan metisatsiyaga kirganligi sababli qipchoq til elementlarining ko'proq bo'lishiga qarab Iqon-Qorabuloq dialektidan farq qiladi.

Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasiga kiruvchi shevalar lingvistik jihatdan o'zlariga xos bir qator xususiyatlarga egaki, bulardan eng muhimlari tubandagilaridir:

Fonetik xususiyatlar: a) ch/sh undoshlarining almashinishi: Toshkent, Marg'ilon, Andijon, Namangan tʃsh//chʃsh (tish); Toshkent ch(ʃ)shlʌ//uyg' (Qashg'.) ch(ʃ)shlʌ (tishla); Toshk. tyshtʌ//chyshtʌ//uyg'. Chyshtʌ (tushdi);

b) o'zak va affikslarda q-k//g'-g undoshlarining saqlanishi. Masalan, uyg'. tær̄g'//tær̄q (tariq), sær̄q (sariq), och̄q (ochiq), yr̄g'; Toshk. kæt̄tg' (qattiq), tær̄og' (tarog), ortog' (o'rtoq), q̄shlog'f̄q//q̄shlog'f̄g'//q̄shlo:f̄g' (qishloqlik); Namang. yod̄/yog' (yo'q), bæl̄g (bo'lak, boshqa), b̄r kyll̄g (bir kunlik), bæl̄g' (baliq). Olmoshlarda: uyg'. Toshk., qandog'//qandaq (qanday, qandoq), andog'//andaq, shyndog', shyndaq, byndog'//byndaq (andaq, shunday//shundoq, bunday//bundoq).

So'z oxirida g' undoshining saqlanishini qadimgi turkiy yozma yodnomalarda – orxun yozuvlarida, "Qutadg'u bilig" da, Mahmud Qoshg'ariy "Devon" da uchramiz. Bu xil pozitsiyadagi g' undoshining jarangsizlanib q undoshiga o'tishi haqida aytilgan ayrim fikrlardan birida bu fonetik xususiyat (ya'ni g'>q) jonli shevalardan ba'zilarining shakllanishida ta'sir ko'rsatgan eski dialektlardan biriga (ehtimol, qarluqlarga) xos belgidir deb hisoblanishi xarakterlidir;

v) turli holatlarda q//x undoshlarining almashinishi: uyg'. Toshk., Namang., toqta//toxta, toqsan//toqsan, baqtyq//baxtyq

g) l//n undoshlarining almashinishi: uyg'. кәйнәк//кәйләк//Toshk. койнәк\койләк\койнәй;

d) to'liq progressiv assimilyatsiya, masalan, tushum kelishigida: Toshk. tyzz̄<tuzni; oshsh̄<\_oshni; tem̄rḡ<temirni; Namang. qyshsh̄<qushni; gæpp̄<\_gæpp̄, toshsh̄<\_toshn̄;

e) uyg'ur tilining asosiy fonetik xususiyatlaridan biri "umlaut" bo'lib, birinchi bo'g'inda kelgan quy'i ko'tarilish a//ə unililarining ikkinchi bo'g'inda kelgan quyori ko'tarilishdagi ʻʻ unlisi ta'sirida ə unlisiga o'tishidan iborat: at̄>æt̄ kabi. Bu spetsifik xususiyat Namangan shevasida uchrasada, Toshkent, Marg'ilon shevalarida uchramaydi;

j) Namangan shevasi (xuddi uyg'ur tilidagi kabi) tovushlarning tushishi va tor unililarning qisqaligi bilan xarakterlansa, bu xususiyat, qisman bo'lsada, Toshkent shevasida ham mavjud, masalan, qiyos qiling: Toshk. Namang. əd̄ml̄ keld̄l̄, b̄za>bz̄, s̄la>sl̄; Toshk. Boryvd̄m.

Morfologik xususiyatlar: a) Toshkent, Namangan, Andijon, Marg'ilon, Qo'qon shevalarining barchasida ham ot turlovchi qo'shimchalardan –n̄ affiksi (fonetik variantlari bilan) ham qaratqich, ham tushum kelishigini ifoda etadi. Qaratqich-tushum kelishigi affiksining fonetik variantlariga ko'ra bu shevalarni ikki gruppaga ajratish mumkin:

A. –n̄ affiksi undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shilib kelganda, uning birinchi tovushi to'liq progressive assimilyatsiyaga uchrovchi shevalar (unli bilan tugagan so'zlarga bu affiks qo'shilganda –n̄ saqlanadi). Bunga Toshkent, Namangan hamda o'z fonetik xususiyatlari jihatidan shahar shevalariga yaqin turuvchi ba'zi qishloq shevalari kiradi. Misollar: Toshk. tyzz̄<tuzni, tomm̄<tomni, gæpp̄<gæpp̄; Namang. ott̄ (otni); qaratqich kelishigi: ott̄ (boshi).

B. Tushurn-qaratqich affiksidagi –n̄//d̄//t̄ tovushlarining almashinishi bilan xarakterlanadigan shevalarga Andijon, Marg'ilon, Qo'qon gruppasi shevalari kiradi. Mana shu xususiyatlariga ko'ra mazkur shevalar o'zbek tilining qipchoq

shevalariga yaqinlashadi. Qiyos qiling: And., Marg', Qo'qon. Otasъnъ kordъ, oshtъ mазasъ, oldъ kestъ;

Mazkur shevalar gruppasi hozirgi zamon davom fe'lini ifodalovchi ikki morfologik belgiga ega:

1) –vot va uning fonetik variantlari: –vat, –vat, yt; Toshkent va unga yaqin bo'lgan qishloq shevalarida, masalan, Parkentda –vot; Qiyos qiling: Uychi. –vot, Namang. –yt.

Bu formalaming genetik jihatdan birligi, ya'ni bir manbadan kelib chiqqanligi aniq ko'rinib turibdi. Toshkent va Namangan formalari *q-blwatmsn* formasining keyingi fonetik rivojdirki, buni Toshkent va Namangan shevalarida uchraydigan oraliq variantlar ham isbotlay oladi. Masalan, Toshkent oblastining Parkent shevasida *q-blvzttbm* va *qfbh/Ottbman* kabi bir ma'noda qo'llaniladigan formalami uchratamiz.

Namangan formasi –yt fonetik qonuniyatlar asosida o'zgartgan bo'lib, u aslida –vat affiksiga borib taqaladi. Bu formaning evolyutsiyasi quyidagicha bo'lgan: –vat>–vot>–ot>–yt. Namangan shevasida *qbfyttb* formasi bilan baravar qo'llanadigan *qblottb* formasi (*qbfyttb* fumasining oraliq fonetik varianti)ning mavjudligi fikrimizntag dalildir.–vat affiksining rivoji Namangan shevasidagidek –vat>–vat» –at>–ut yoki Toshkent shevasidagidek –vat>–vot>–v3t yo'li bilan jna emas, balki Uychi shevasidagidek (umlaut hodisasi bilan izohlanadigan) –vat>–vat shaklida ham yuz bergan;

2) –ttap formanti Farg'ona vodiysidagi, barcha shahar (Andijon, Marg'ilon, Qo'qon va boshqa) hamda o'sha shaharlarga yaqin bo'lgan qishloq shevalariga xosdir.

Samarqand shevasida qayd etilgan O paffiksidagi ochiq o fonemasi o'zining turg'unligi bilan xarakterlanadi. Biroq Toshkent shevasidagi –vot qo'shimchasida uchraydigan affiksali unli o va Farg'ona varianti –itap dagi a unlisi o 'zbek shevalarida turli ko'rinishlarga ega. Masalan, –vot affiksidadagi o unlisi oldingi qator unli bo'lishi ham mumkin (qiyos qiling: Uychi. –vot); –yap (Farg'ona) affiksidadagi oldingi qator a unlisi orqqa qator a unlisi orasida tebranib turadi (bu holat ayniqsa boshlang'ich formada yaqqol seziladi); *kelayapti~keteyapti~kelayoti*. Bunday holat qipchoq shevalarida ham mavjud: *kelayapti~kebayati,~kebayotir*. –op affiksidadagi o fonemasining Samarqand shevalarida turg'un bo'lishi unda tojik tili elementining mavjudligi bilan izohlanadi. Boshqa o'zbek shevalaridagi s < a > o holatining sababi esa boshqachadir. Qarluq–chigil–uyg'ur lahjasidagi shevalarning morfologik xususiyatlari juda ko'p bo'lib, ularni yana davom qildirish va har bir shevaga xos dialektal farqli xususiyatlarni ko'plab keltirish mumkin. Darhaqiqat, bu shevalarning har biri, genetik jihatdan umumiy xususiyatlarga ega bo'lish bilan birga, o'ziga xos tor dialektal ko'rsatkichlarga ham ega. Bularni o'rganish esa mazkur shevalarning tashkil topishi va rivojlanish tarixini aniqlashga yordam beradi. Shu narsani ko'rsatib o'tish o'rini, Toshkent shevasida qo'llanuvchi o'tgan zamon (1 shaxsdagi) –ch>m–bz/–dymyz (ad. orf. –dik o'rnidagi) forma bir qator yozma yodgorliklarda ham qayd qilingan. Toshk. *oldtm* (ad. orf. *oldik*), *berdmiz* (bordik), *ishtimiz* (ichdik), qiyos qiling: Toshkent shevasida tubandagi variantlar ham mavjud: *keldy*., *oldy*., *tshity* : (so'z

oxirida ikkinchi darajali cho'ziq unli mavjud) yoki *keldyza*, *ldyza*, *berdyza*. Etimologik jihatdan Toshkent formasi –*dimiz* hozirgi o'zbek adabiy tilidagi –dik (–dik) formasiga nisbatan birmuncha qadimiydir. Chunki bu formani Kul–Tegin sharafiga yozilgan yodgorlikda [*sezshstumuz* (biz) –

so'zlashdik, *burtumuz* (biz) - berdik *utdumuz*-(biz) etdik (qildik)], Mahmud Koshg'ariy "Devon"da, Ibn-Muxannada, Muhammad Solihning "Shayboniyoma"sida ham uchramiz. Bu formaning boshlanishini, shubhasiz, Qoraxoniylar davridagi til traditsiyasidan izlamoq kerak. O'zbek tili dialektal sofigini, qardosh va qardosh bo'lmagan qo'shni tilar bilan aloqadorligini, umumiy tarzda, grafik shakl orqali tubandagicha ko'rsatish mumkin:

Uyg'ur tili -----▶	I qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi	..... Tojik tili	
qozoq va	II Qipchoq lahjasi	III O'g'uz lahjasi	*---- Turkman tili
qoraqalpoq tillari			

Sxemada I, II, III raqamlari bilan ko'rsatilgan (nuqtali chiziqlar orqali ajratilgan) uchta lahja o'zbek tilini tashkil etadi. Darvoqe, o'zbek tili shu qayd etilgan uchta turkiy komponentning birlashuvi natijasida tashkil topgan: 1) qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi hozirgi qardosh uyg'ur tiliga yaqin bo'lib, tojik tili bilan ham etno-lingvistik aloqada bo'lgan; 2) qipchoq lahjasi qardosh qozoq va qoraqalpoq tillari bilan yaqin; 3) o'g'uz lahjasi qardosh turkman tili bilan yaqin.

Savollar:

1. Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining muhim xususiyatlarini ayting.
2. Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi tarixah qaysi lanjalar bilan aloqador?
3. Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi hozir qaysi tip dialektlarga aloqador?
4. Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi qaysi olimlar tomonidan o'rganilgan?

## 2) GLOSSARIY

Chigil – qadimgi turkiy qabilalar

Xalaj – qadimgi turkiy qabilalar

Yag'mo – qadimgi turkiy qabilalar

Uyg'ur – qadimgi turkiy qabilalar

Qarluq – qadimgi turkiy qabilalar

Lahjaning tarixi – lahjaning kelib chiqishini oʻrganish

Lahjaning fonetik xususiyatlari – unli va undosh tovushlarni organish

lahjaning morfologik xususiyatlari – soʻz turkumlari va ularning oʻziga xos xususiyatlari

lahjaning leksikasi – lahjaning soʻz boʻyli

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. Oʻzbek dialektologiyasi. – Toshkent: NAVROʻZ, 2016.
2. Rajabov N. Oʻzbek shevashunosligi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1996 .
3. Ashirboyev S. Oʻzbek dialektologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2011, 2013.
4. Toʻychiboyev B., Hasanov B. Oʻzbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2004. – B. 112.1.
5. Enazarov T., Karimjonova V. A., Ernazarova M.S., Mahmadiyev Sh. S., Rixsiyeva K. Gʻ.
6. Oʻzbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.
7. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent. Fan, 1997.
8. Fayzullayev B., Toʻychiyev A., Haydarov Sh., Xidirov O. Oʻzbek shevashunosligidan oʻquv amaliyoti. (oʻquv-uslubiy qoʻllanma) Jizzax. 2010.

Internet saytlari

1. [www.turk.dili.google.com.tr](http://www.turk.dili.google.com.tr)
2. [http://www.ut.uz/eng/today/europe\\_recognizes\\_her\\_discovery.mgr](http://www.ut.uz/eng/today/europe_recognizes_her_discovery.mgr)
3. <http://www.schneid9.de/sprache/linguistik/ling11.pdf>
4. <http://www.uni-leipzig.de/~fsger/materialien/Texte/Lexikologie.pdf>
5. [www.dersimiz.com](http://www.dersimiz.com)
6. [www.altinmiras.com](http://www.altinmiras.com)

Test

№1

I.I.Zarubin tasnifida shevalarimiz necha guruhga boʻlingan?

Xiva, Fargʻona, Toshkent, Samarqand-Buxoro.

Xiva, Qarshi, Nukus, Andijon.

Xiva, Urganch, Oqqoʻrgʻon, Samarqand.

Xiva, Toshkent, Namangan, Denov.

№2

Fozi Olim shevalarni qanday lahjalarga bo'lgan?

Xiva-Urganch, O'zbek-qipchoq, Turk-barlos lahjalari.

O'zbek-qipchoq lahjasi.

Turk-barlos lahjasi.

Xiva-Urganch lahjasi.

№3

A.K.Borovkovo'zbekshevalarininechaguruhabo'lgan?

Ye. A vaD javoblar.

O-lovchi shevalar.

Y-lovchi shevalar.

A-lovchi shevalar

№4

Shevalarni o'rganish qaysi fanlarga ma'lumot larberadi?

Umumiy tilshunoslik uchun ham, tildirini uchun ham boy va qimmatli materiallar beradi.

Qiyosiy tilshunoslik uchun ham, xalq tarixi uchun ham boy va qimmatli materiallar beradi.

Til tarixi uchun ham, xalq tarixi uchun ham boy va qimmatli materiallar beradi.

Til tarixi uchun ham, geografiya fani uchun ham boy va qimmatli materiallar beradi.

№ 5

Lahja deb nimaga aytiladi?

Leksik, fonetik, va Grammatik xususiyatlarni o'zida birlashtiruvchi shevalar yig'indisi.

Fonetik, morfologik xususiyatlarni o'zidabirlashtiruvchi shevalar yig'indisi.



Etimologik, Grammatik xususiyatlarni o'zida birlashtiruvchi shevalar yig'indisi.

Leksik, punktuatsion xususiyatlarni o'zida birlashtiruvchi shevalar yig'ind

Qipchoq va o'guz lahjalarining asosiy xususiyatlari

Reja:

1. Qipchoq lahjasi . Uning eski o'zbek va hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati.
2. Qipchoq lahjasining unililar tizimi, uning eski o'zbek va hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati.
3. Qipchoq lahjasining undoshlar tizimi, uning eski o'zbek va hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati.
4. Fonetik jarayonlar.
5. Ohangdoshlik.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Qipchoq lahjasi, adabiy til, hozirgi o'zbek adabiy til, eski o'zbek adabiy tili, tovush va harf, unililar, undoshlar, ohangdoshlik.

Dunyodagi ko'p tillar va ularning lahjalari munosabatini daraxt va butoqlariga menglash mumkin bo'lsa, o'zbek tili va uning lahjalari o'rtasidagi munosabatii tizma tog'larga o'xshatish mumkin. O'zbek tili turli mustaqil lahjalarning tadrijiy birkuvi natijasida paydo bo'lgan. Dunyo tillari orasida ko'p lahjaligi bilan ajralib turuvchi o'zbek tili hamda uning shevalari o'rtasidagi munosabatlar haqida turkiy tilar grammatikasining bilimdoni prof. Y. D. Polivanov o'z vaqtida shunday yozgan edi: O'zbek tili (o'zbek dialektlarining bir butun yig'indisi sifatida) yagona sistemaning hech qachon amalda bo'lmagan o'zbek dialektologik parchalanishi yoli bilan emas, balki til sistemalarining birlashuvi yo'li bilan paydo bo'lgan. Darhaqiqat shevashunoslarimizning ko'p yillik tadqiqotlari o'zbek umumxalq tili uch yirik mustaqil lahjaning birkuvidan tashkil topganini tasdiqlaydi:

1. Qorluq-chigil-uyg'ur yoki o'rta o'zbek lahjasi.
2. Qipchoq yoki sof o'zbek (Y. D. Polivanov atamasi) lahjasi.

3. O'guz

lahjasi.

Ko'pgina tarixiy manbalarda, Turon zaminining kechmishini tasvirolovchi qadimiy qo'lyozmalarda Dashti Qipchoq fuqarolari o'zbeklap deb atalganligi bugungi tarixchilarimiz tomonidan ham ta'kidlanmoqda. Ayni paytda, bir qator olimlarning tasavvufning Turondagi asoschilaridan bo'lmish Xo'ja Ahmad Yassaviy asarlarini va badiiy so'z jozibasining go'zal namunasi bo'lmish "Muhabbatnoma" dostonini qipchoq lahjasiga nisbat berib izohlaydilarki, bunday ma'lumotlar, bir jihatdan, qipchoq lahjasining juda qadimiy va keng hududga tarqalganligini ko'rsatsa, ikkinchidan, uning o'zbek umumxalq tilini shakillantirishdagi haqiqiy o'rnini belgilashga ham yordam beradi. 13-14 asrlarda o'zbek tili taraqqiyotiga qipchoq lahjasining katta ta'siri borligi maxsus lug'atlarda ham o'z aksini topgan. Ma'nosi o'sha qadimiy lug'atlarda ham izohlangan

qinir-egri, iyak-chakak, tamaksov-ochko'z, sangrov-kar singari ko'plab so'zlarning hozirgacha qipchoq lahjasida qo'llanishi ham bu lahjaning juda qadimiy, yashovchan va ifoda imkoniyati keng ekanligini ko'rsataadi. Lutfiy, Navoiy, Bobur, Muhammad Solih singagi alloma adiblar tilida qipchoq tili unsurlarining bot-bot uchrab turishini ham qo'shadigan bo'lsak, umuman bu guruh lahjalarining eski o'zbek adabiy tili taraqqiyotida benihoya katta o'rin tutganligini guvohi bo'lamiz. Aslida, amaldagi o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida ham qipchoq lahjasining ta'siri biz tasavvur qilganimizdan bir necha bor kuchliroqdir. Zero har qanday mahalliy lahja tilning quyi shakli bo'lib, u adabiy tilning boyishi uchun boy asos, tuganmas manbadir. Afsuski, bizning tilshunosligimizda tilning taraqqiyotini su'niy tarzda tezlashtirishga intilish, xuddi mulkni umumlashtirishga shoshilganimiz singari umumiy tilga ega bolishga shoshilish tendensiyasining uzoq vaqt hukmron bo'lib kelishi natijasida adabiy til mahalliy shevalaridan-lahjalaridan ajralib qoldi. Aksar hollarda adabiy til lahjalarga, ayrim mahalliy lahjalar bir-birlariga qarshi qo'yildi. Bu hol, o'z navbatida, adabiy tilni har jihatdan kambag'allashtiradi, lahjalarni esa, o'z qiyofasidan mahrum bo'lish, kishilik xotirasidan unut bo'lishiga sabab bo'ldi. 20-asrning 20-90-yillarida o'zbek tili, asosan, tashqi omillarga tayanib rivojlandi. Tilimizga rus tili va u orqali Evropa tillaridan ko'plab so'zlar kirib keldi. Shevadagi minglab ifodalar, o'zimizning asrlar mobaynida yaratgan milliy boyligimiz chetga surib qo'yildi. Mana shu nosog'lom vaziyatni bartaraf qilish kerak bo'lgan fursat etib keldi. Mamlakatimizdagi barcha lahjalarni, jumladan, qipchoq lahjasini g'oyat sinchiklab o'rganib chiqish va ulardan ko'plab so'zlarni ideomatik iboralarni adabiy til xazinasiga tushirish tilshunoslarimiz oldida turgan eng zarur vazifalardan biridir. Chunki qipchoq lahjalari xususiyatlari ta'kidlanganidek, avvalo eski o'zbek tilida, o'sha davrda yaratilgan manbalarda berishi qo'yildi. Bu hol, o'z navbatida, adabiy tilni har jihatdan kambag'allashtiradi, lahjalarni esa, o'z qiyofasidan mahrum bo'lish, kishilik xotirasidan unut bo'lishiga sabab bo'ldi. XX asrning 20-90- yillarida o'zbek tili, asosan, tashqi omillarga tayanib rivojlandi. Tilimizga rus tili va u orqali Yevropa tillaridan juda ko'plab so'zlar kirib keldi. Shevadagi minglab ifodalar, o'zimizning asrlar mobaynida yaratgan milliy boyligimizni chetga surib qo'yildi. Man shu nosog'lom vaziyatni bartaraf qilish kerak bo'lgan fursat yetib keldi. Jumhuriyat hududidagi barcha lahjalarni, jumladan qipchoq lahjasini g'oyat sinchiklab o'rganib chiqish va ulardagi ko'plab so'zlarni, ideomatik iboralarni adabiy til xazinasiga qo'shish tilshunoslarimiz oldida turgan eng zarur vazifalardan biridir. Chunki qipchoq lahjalari xususiyatlari ta'kidlanganidek, avvalo eski o'zbek tilida, o'sha davrda yaratilgan manbalarda berilgan.

Qipchoq lahjasining barchasida to'qqiz unillik tizimi amal qilgan. Bu jihatdan qipchoq lahjasi qipchoq guruhidagi

(qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz kabi) boshqa turkiy tillar bilan umumiylik kasb etadi. Qipchoq lahjasidagi to'qqiz unillik tizimi uning eski turkiy va eski o'zbek tilida ham to'qqiz unillik tizimi bo'lgan.

Bular: i,li,e,a,e,u,o,u,u.

E unlisi til oldi, keng, lablanmagan tovush:

Ozge, kem, eke, kette, kel, ena, emme kabi. Eski turkiy (edgu-yaxshi, eb-uy, sekiz-sakkiz), eski o'zbek (eylese,ozgeler (Navoiy), shermende liktin, ketmese, kokte ene (Lutfiy) tillarda ham

bu tovush faol bo'lgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida keng qo'llanilmoqda. A unlisi til orqa, keng lablanmagan unli : al, bar kal, baba, taga, tak, chak, ayt. Eski turkiy (adag'//ayag' (devon), kagan (devon)), eski o'zbek (shaftolu, kashu, jan, almaga (Lutfiy)) tillarda ham faol bo'lgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ham so'zning barcha o'rnida qatnashadi.

A unlisi mustaqil tovush sifatida eski turkiy til davridan boshlab shakllangan bo'lib, uning yuzaga kelishida keng, til oldi, lablanmagan a tovushining nisbatan torayishi, hamda tor, lablanmagan I unlisining kengayishi muhim ahamiyat kasb etgan. E tovushi asosida e ning shakllanganini hozirgi turkiy tilning barchasi, xususan o'zbek tilining o'g'uz lahjasi to'liq isbotlaydi. Agar hozirgi o'zbek tilidagi men, sen kishilik olmoshlaridagi so'z o'rtasida keluvchi o'rta keng e unlisining tarixan tor I tovushi bo'lganligiga e'tibor bersak, ayrim holatda e ning shakllanishida I tovushining ham asos bo'lganligini sezamiz.

Eski o'zbek tili davrida e unlisi mustaqil fonema sifatida ishlatilib, aksariyat asl turkiy so'zlarning birinchi bo'g'inida qo'llanadi.

Mani men istagan kishi o'z suhbatiga arjumand etmas, mani istar kishining, suhbatin, ko'nglum pisend etmas. (Navoiy).

Hozirgi o'zbek adabiy tilida va o'zbek xalq shevalarining aksiyatida bu tovush ishlatiladi. Biroq bu tovushning talaffuzida hozir shevalararo ma'lum darajada farq bor. Chunonchi, shahar va shahar tilidagi shevalarda biroz yopiqroq. Qipchoq lahjasida esa ochiqroqdir.

## LINGVISTIK GEOGRAFIYA

### Reja

1. Lingvistik geografiya.
2. Lingvistik geografiya usuli va uning ahamiyati.
3. Lingvistik geografiyaga oid terminlar

Tayanch so'z va tushunchalar: Lingvistik geografiya usuli. Lingvistik geografiya.

Lingvistik geografiyaga oid terminlar. O'zbek dialektologik atlas. Geografik lingvistika. Izomorfema. Izoleksema. Izofonema. Fokus nuqta. Struktur va zonal tuzilish. Fokus nuqtaning qurshovi. O'zbek tilini dialektal zonalashtirish kontsepsiyasi. Sheva vakillari nutqi. Dialekt zonasi va azonal hududlar. Dialekt zonasidagi orol hodisalar. Dialekt zonasidagi zona periferiyasi. So'zlashuv nutqi. Adabiy nutq.

Qadim davrlardan boshlab to hozirgacha, bir tilda so'zlashuvchilar bir joyda yashashmaydi, balki turli hudud (tuman, viloyat, voha, qishloq) va geografik kengliklarda yashashadi. Har bir hudud o'ziga xos geografik bo'linishga ega bo'lgani kabi alohida-alohida tarzda yashovchi, ammo bir tilda so'zlashuvchi kishilar borligini e'tiborga olish shart. Lingvistik geografiya til hodisalarining tarqalish o'rinlarini, ularda tarixiy taraqqiyot jarayonida yuz bergan o'zgarishlarni o'rganish uchun xizmat qiladi. Masalan, turkiy tillar lingvistik geografiyasi haqida so'z ketganda, til egalarining tarix taqozosi bilan muayyan o'zgarishlarni o'z boshlaridan kechirishlari, turli joylarga ko'chib yurishlari va hozirgi vaqtda o'troqlashib qolish sabablarini o'rganish tushuniladi.

Lingvistik geografiya lahja va shevalarni o'rganishda ham ahamiyatlidir. Chunki ularning tarixiy taraqqiyot yo'llarini belgilashda, fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarini o'rganishda xalq tarixi va til tarixi bilan ularning tarqalish joylari bilan uzviy bog'liq holda olib tekshiriladi. Masalan, o'zaro umumiy xususiyatga ega bo'lgan Toshkent, Parkent, Piskent, Qarnob kabi shevalarning yoki janubiy Xorazm, shimoliy Buxoro, Forish-Bog'don, shimoliy o'zbek shevalari vakillarining turli joylarda o'troqlashib qolish sabablari, ulardagi umumiy til xususiyatlarining tarixini hisobga olish va o'ziga xos tomonlarini asos qilib olib, ularning xaritalarini chizib berish hamda lingvistik atlasini yaratish muhim-dir. Bunday ishlarining amalga oshirilishi ko'rgazmali tavsifiy qurol vositasini o'taydi.

Alohida hududlarda yashovchilar bir tilning turli shevalarida gaplashadigan kishilardir. Ular tilning lingvistik imkoniyatlari bilan birga tilga bog'liq bo'lmagan ekstralingvistik imkoniyatlar ta'sirida bo'ladi. Demak, lingvistik geografiya deganda aslida bir tilda gapirib, turli hududlarda yashovchi kishilarning shevalarini ilmiy asoslarga tayanib tadqiqotlar olib borish tushuniladi. Bu bilan tilning aniq bir hududdagi taraqqiyotini, ya'ni aniq bir dialekt (sheva, lahja)ning taraqqiyot yo'lini, uning milliy tilga bo'lgan munosabatini o'rgatadi, shuningdek, lingvistik geografiya dialekt(sheva, lahja)larning tabiatini, umumiy manzarasini, uning chegarasini aniqlash, shevalarni guruhlash yo'llari kabi muhim masalalarni aniqlashga yordam beradi. Ma'lum bir shevani ikkinchi sheva bilan farqlash jarayonida ham lingvistik geografiya usulining yordami benihoya kattadir. Lingvistik geografiya til tarixi va xalq tarixi uchun qimmatli bo'lgan ma'lumotlarni topib, dalillar vositasida ochib ham beradi.

Bu bahsli muammo haqida XX asrning 60-yillarida D.I.Edelmanning tadqiqotlarini bu sohadagi birinchi ishlar sifatida e'tirof etish mumkin. O'zbek olimlaridan A. Shermatov (Shermatov A. Lingvistik geografiya nima? T., Fan, 1980), A. Jo'rayev (Djuraev A. B. Teoreticheskie osnovi arealnogo issledovaniya uzbekoyazichnogo massiva. ADD. M.,1991. 38 s.) shu sohaga oid tadqiqotlarni amalga oshirishgan. Albatta, shevalarga geografik muhit bilan bog'liq holda lingvistik va ekstralingvistik shart-sharoitlar ham ta'siri sezilib turadi. Sababi, har bir sheva alohida geografik hududda yashagani kabi bir umumiy tilning, shu jumladan, o'zbek tilining shu hudud odamlari nutqiga xos fonetik, leksik, grammatik o'zgaliklarni ham ifodalaydi. Mana shunday o'zgaliklarga ega bo'lishgani uchun ham ular o'zbek tilining shevalari sanaladi. Masalan, tog'lik hududlardagi o'zbek shevalari tekisliklardagi o'zbek shevalaridan qisman bo'lsa hamki farqlanib turgani kabi bu holni tumanlararo farqlanib turuvchi shevalar misolida ko'rish mumkin. Shuning uchun ham Shahrisabz shevasi bilan Yakkabog' shevasi, Kitob shevasi bilan

Shahrisabz shevasi, G'allaorol shevasi bilan Forish shevasining, qarluq lahjasining qipchoq va o'g'uz lahjalaridan fonetik, grammatik va leksik farqlari aniq bilinish turadi.

Ammo ular lingvo-geografik usulda xaritalarga tushirilmagan. Ba'zi bir olimlar, jumladan, V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, A.Aliyev, A. Shermatov, B.Jo'rayevlar tomonidan yaratilgan xaritalar borligi ilmiy manbalarda bir necha o'rinlarda aytilgan, ammo ular ommalashmagan, ya'ni bir butun monografik kitob holidagi o'zbek shevalarining lingvistik atlasi (aniqrog'i xaritalari) haligacha yaratilmaganligi bor haqiqat ekanligini e'tirof etish vaqti keldi. Biroq rus va evropa tilshunosligida lingvistik geografiya usuli bilan ishlangan tadqiqotlar XIX asrning 50-yillaridan boshlangan bo'lib, bugungi kunda ham amalga oshirilmoqda. Natijada, o'rganilgan shevalarning lingvo-geografik xaritalari tuzilganligi va nashr etilganligini e'lon qilingan monografik tadqiqotlarda ko'rish mumkin. Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili lingvistik geografiyasi ma'lumotlari Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy, G'ozil Ollim Yunusov, A. K. Borovkov, Ulug' Tursunov, V. V Reshetov, Sobirjon Ibrohimov, Shonazar Shoabdurahmonov, Bolta Jo'rayev, Abdug'ani Aliyev, Hisom G'ulomov, Xudoyberdi Doniyorov, A'zam Shermatov, Nazar Rajabov, Aziz Jo'rayev, M. Mirzaev, Karim Nazarov, Yo.G'ulomov singari zukko olimlarning nomlari bilan bog'langan.

Shu bilan birga lingvistik geografiya davrga ko'ra ikki turga ajratiladi: 1) sinxron plandagi lingvistik geografiya; 2) diaxron plandagi lingvistik geografiya.

Ulardan biri hozirgi kundagi sheva, mahalliy dialekt, lahjalarning hududiy tarqalishini amaliy talqin, ilmiy tadqiq etib, shevashunoslikka oid bo'lgan *leksema*, *morfema*, *fonemalarni izomorfema*, *izoleksema*, *izofonema*, *fokus nuqta*, *lingvistik geografiya*, *o'zbek dialektologik atlas*, *struktur va zonal tuzilish*, *o'zbek tilini dialekt zonalashtirish kontseptsiyasi*, *dialekt zonasi va azonal hududlar*, *fokus nuqtaning qurshovi*, *dialekt zonasidagi orol hodisalar*, *dialekt zonasidagi zona periferiyasi* terminlari asosida o'rganib, sheva(lar)imizning lingvogeografik xaritasining shakllanishiga zamin yaratadi. Ikkinchisi esa ularning til tarixidagi tarqalishiga oid xarakterli holatlarni shevalarga oid tarixiy yozma manbalarning materiallari asosida tahlil etib, izomorfema, izoleksema, izofonema terminlari asosida fikr yuritadi. Ilmiy adabiyotlarning matnlarida areal usul va lingvistik geografiya usuli degan terminlar ham uchraydi. Bu usulda turli hududdagi shevalarni qiyosiy o'rganishga imkoniyat yaratiladi. Yuqorida aytib o'tilganlardan shunday xulosaga kelish mumkin:

Lingvistik geografiya termini sheva va areal terminlari bilan ma'lum ma'noda sinonimik xususiyatga ega bo'lgan terminlardan biri sanaladi. Areal termini rus tilidan o'zlashtirilgan termin bo'lib, lingvistik geografiya terminining ma'nosini ifodalaydi.

Sheva termini asosida esa tilning kichik bir qismi tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganilsa, lingvistik geografiyada mana shu sheva ham lingvistik, ham geografik jihatdan tavsiflanib, sheva elementlarini o'zida jamlovchi lingvogeografik xarita(lar), shevalarning tasnifini o'zida aks ettiruvchi lingvistik atlaslar tuzish masalasini ilgari suradi. Ushbu masala hozirgacha bir necha o'zbek olimlari tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, mukammal holatga keltirilmagan holda o'zbek shevashunosligida o'lda-jo'lda qolib ketmoqda. Bunga sabab shevashunoslar bilan birga geograflarning o'zaro jiddiy hamkorligi bugungi kungacha amalda bo'lmaganligidir. Ayni vaqtda shevashunoslik sohasida lingvist shevashunoslar bilan geograflarning doimiy hamkorlikka asoslanadigan faoliyatiga zarurat sezilmoqda.

Kelajakda lingvistlar hamda geograflarning hamkorligini tiklab, o'zbek shevalarining lingvo-geografik xususiyatlarini o'zida birlashtirgan lingvistik atlaslar yaratilishi davr talablaridan biri hisoblanadi. Albatta, o'zbek tilshunoslari bilan geograflarning yuqorida aytib o'tilgan sohadagi ilmiy, amaliy hamkorligini kuchaytirish kerak. Shu yo'l bilangina shevalarimizning atlas(lar)i, ya'ni lingvo-geografik xaritalarini tuzish o'rinli holatlardan biridir.

Lingvistik geografiya usuli turli o'zbek shevalarini bir-biri bilan solishtirib, qiyoslab o'rganish jarayonini anglatadi. Bunda izoglassa, izamorfema, izoleksema, izofonema degan terminlar faol ishlatiladi. Buning natijasida o'zbek shevalarini XX asrdan keyingi mukammal tasniflash uchun zarur bo'lgan materiallar jamlanadi. Yuqoridagilardan anglashilib turibdiki, lingvistika bilan geografiyaning o'zaro munosabati doimiy jarayonligini o'zbek shevalari materiallari asoslab turibdi. Shu bilan birgalikda lingvistik geografiya, lingvistik geografiya usuli, sheva va lahjalar bir-birini taqozo qiladigan terminlar sanaladi. Sheva materiallari lingvistik geografiya usulida o'rganilsa, ularning ishonchliligi ancha ortadi. So'zsiz, lingvistik geografiya, areal, lingvistik geografiya usuli va sheva terminlari zaminidagi ma'noni o'zida bir butun tarzda ifodalaydigan ilmiy tadqiqotlar asosida o'zbek shevalari yangicha tarzda mukammal o'rganish ishlari boshlanib, o'zbek shevalarining XXI asrdagi mukammal tasnifini ham yaratishga imkoniyat tug'iladi. Buning uchun sheva materiallarini yig'ish lozim.

Hozirgi vaqtda o'zbek dialektologiya fani sohasida lingvistik geografiya (lingvogeografiya)ga parallel ravishda yangi ilmiy yo'nalish bo'lgan geografik lingvistika ham yuzaga kelmoqda. Bu yangi sohaga tegishli fikrlar keyingi ishlarda beriladi.

#### Savollar.

1. Lingvistik geografiya nimani o'rganadi?
2. Lingvistik geografiya usulida nima qilinadi?
3. Lingvistik geografiya bilan kimlar shug'ullangan?
4. Lingvistik geografiya usuli bilan shevalarni o'rganishdan maqsad nima?
5. Lingvistik geografiyaga oid qanday terminlar faol qo'llanadi?

#### Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Shermatov A. Qashqadaryo oblastidagi o'zbek xalq shevalari atlasi. T., Fan, 1979.
2. Shermatov A. Lingvistik geografiya nima? T., Fan, 1980.
3. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari. T., 1962.
4. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek tilining dialektologik atlas. O'TA, 3.T., 1969.
5. Авенесов Р.И. Лингвистическая география и история русского языка // Вопросы языкознания. №6. М., 1952.
6. Эделман Д.И. Основные вопросы лингвистической географии. М., Наука, 1968. с.112.

8. Мухамеджанов К. Ареальное исследование узбекских говоров южного Казахстана. АДД. Т.,1988. 44 с.
9. Джураев А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. АДД. М.,1991. 38 с.
10. Ishayev A. O'zbek dialektal leksikografiyasi.T.,Fan, 1990. 140 b.
11. Murodova N. O'zbek adabiy tili va shevalar leksikasining qiyosiy tadqiqi. T.,Fan, 2005.
12. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi.T.,O'qituvchi,1996.
13. Saparov M.Xorazm vohasidagi turkiy tillarning o'zaro munosati.T.,Fan, 1988. 120 bet.
14. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek tilining dialektologik atlası // O'TA, 3.T., 1969.
15. G'ulomov Yo. O'zbek xalq shevalarini lingvogeografik tekshirish // O'zbek tilshunosligining aktual masalalari.T.,1987.20-25-betlar.

Internet saytlari

- 1.[www.turk.dili.google.com.tr](http://www.turk.dili.google.com.tr)
- 2.<http://www.ut.uz/eng/today/europe recognizes her discovery.mgr>
3. <http://www.schneid9.de/sprache/linguistik/ling11.pdf>
- 4.<http://www.uni-leipzig.de/~fsger/materialien/Texte/Lexikologie.pdf>
- 5.[www.dersimiz.com](http://www.dersimiz.com)
- 6.[www.altinmiras.com](http://www.altinmiras.com)
- 7.[www.thinsan.com](http://www.thinsan.com)

Adabiy til va dialekt munosabati

Reja:

1. Adabiy tilning ta'rifi.
2. Adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari.
3. Adabiy til va tayanch dialekt.
4. Badiiy adabiyot va dialektizm.

Har bir adabiy til milliy (xalq yoki elat) tilning yuqori bosqichi bo'lib, u me'yorlashgan yoki me'yorlashtirilgan til hisoblanadi.

*Adabiy til leksik jihatdan nisbatan barqaror, fonetik-fonematik va grammatik jihatdan muayyan qolipga tushgan, yagona orfografik va orfoepik normalarga amal qiladigan, so'z ustalari tomonidan saqqal berilgan mtlliy tilning yuqori bosqichidir.*

O'zbek adabiy tili ham shu qoidaga amal qiladi.

O'zbek adabiy tili ikki shaklda bo'ladi: og'zaki va yozma. Og'zaki adabiy til orfoepik me'yorlarga bo'ysundiriladi. Og'zaki adabiy til davlat ahamiyatiga ega bo'lgan barcha sathdagi rasmiy majlislar, o'qish — o'qitish ishlari, ommaviy majlislarda qo'llanadi. Yozma adabiy til esa orfografik qoidalar asosida shakllantiriladi va orfografiya qoidalari joriy o'zbek alifbosiga asoslanadi. Unda bir necha tamoyillardan foydalaniladi:

fonetik, fonematik, morfologik, grafik, tarixiy-an'anaviy, ramziy va boshqalar.

Har bir adabiy til o'zining tayanch dialektiga ega bo'ladi. To'g'ri, o'zbek adabiy tilining shakllanishida shevalarning barchasi u yoki bu darajada ishtirok etadi, lekin ma'lum shevalar adabiy til uchun asos, tayanch (baza) vazifasini bajaradi, ya'ni o'zbek adabiy tili muayyan sheva va shevalardan leksik, fonetik, grammatik xususiyatlarni adabiy til fakti sifatida oladi hamda o'sha sheva va shevalar guruhi taraqqiy etishi bilan birga taraqqiy etadi, chunki sheva jonli til bo'lib, u doimo rivojlanishda, o'zgarishda bo'ladi, shu tufayli ham adabiy til shu sheva yoki shevalar guruhi rivojlanishi bilan bog'liq ravishda taraqqiy etib boradi, aksincha, adabiy til o'zining tayanch dialektiga ega bo'lmasa, u bora-bora muomaladan chiqib ketadi. Muomaladan chiqqan til fanda «o'lik til» degan termin bilan yuritiladi. Tillar tarixida «o'lik tillar» mayjudligi haqida ma'lumotlar ko'p.

O'zbek adabiy tili shartli ravishda fonetik jihatdan Toshkent shahar dialektiga, morfologik jihatdan esa Farg'ona dialektiga tayanadi. Ma'lumki, Toshkent shevalari 6 ta unli (u, o, a, e, i, o) dialektdir. Farg'ona dialektidagi so'z shakllari, xususan, fe'l shakllari asosan o'zbek adabiy tiliga norma sifatida qabul qilingan. Aslida adabiy tilni bir yoki ikki sheva yoki dialekt bilan boglab qo'yish juda ham to'g'ri emas, balki o'zbek adabiy tili shevalar hisobiga boyib, mukammallashib boradi.

Shu ma'noda shevalar adabiy tilning boyish manbai bo'lib qoladi.

Garchand, adabiy tilda qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining unsurlari ko'p uchrasada, unda qipchoq va o'g'uz lahjalarining xususiyatlari ham norma sifatida ishtirok etgan o'rinlar mavjud.

Masalan, adabiy tildagi *jun, jo'natmoq, joni, jo'naiish* so'zlari qipchoq lahjasiga xosdir.

Badiiy adabiyotda shevaga oid fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarning aks etishi dialektizm deyiladi. Bunda shevadagi qaysi yarusning aks ettirilishiga qarab dialektizmlar ham *fonetik dialektizm, morfologik dialektizm va leksik dialektizm* turariga ega.

*Fonetik dialektizm* badiiy asarda muayyan shevaga oid fonetik xususiyatlarining aks etishidir.

Masalan, *on akkb/fikki* (Marg'ilon), *galdi/keldi* (Xorazm).

*Morfologik dialektizm* badiiy asarda shevaga xos morfologik elementlarning qollanishidir.

Masalan, *Shotto* - shu yerda "Qora ko'zlar". ) *gech galdi>ngiz* ("Xorazm").

*Leksik dialektizm* shevaga oid so'zlarning badiiy asarlarda qollanishidir. Masalan,

darponmanlar ("Xorazm") - bezovtalanmanglar, Badiiy adabiyot tili xalq (miliat) tili bo'yliklarining qayta ishlangan ko'rinishidir. Shu jarayonda badiiy so'z ustalarining voqea yoki qahramon sarguzashtlari o'tadigan shevaga murojaat qilishlari e'tirof etilgan.

Adabiyotda mahalliy koinorit degan tushuncha bor. Bu esa adiblarga mahalliy kechinmalarni ifodalashda sheva xususiyatlaridan keng foydalanishga imkoniyat yaratadi.

Badiiy adabiyotda adib dialektizmlardan ikki o'rinda foydalanadi, ya'ni dialogik nutqda qahramonning muayyan sheva vakili ekanligini ko'rsatish, mahalliy koloritni berish maqsadida hamda adabiy tilde sinonimi bo'lmagan so'zlarni majburan qo'llaydi. Hatto butun boshli badiiy asarda mahalliy sharoit, mahalliy mentalitetni, ruhiyatni ifodalashda

to'lig'icha sheva xususiyatlaridan foydalangan holda tasvirlaydi. Bunga J.Sharipovning "Xorazm", Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asarlarini keltirish mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki, dialektlar adabiy tilning boyishi uchun tabiiy manbalardan biri bo'lib qoladi. Dialektizmlarning adabiy tilga singib ketish jarayoni dastlab qiyin kechadi, lekin badiiy adabiyotning ta'sirchan kuchi orqali bir asarda qo'llangan dialektizm keyingi asarlarga o'tadi va shu tariqa umumxalq mulkiga aylanadi va adabiy tilda o'zlashib ketishi mumkin.

O'zbek shevashunosligida mavjud bo'lgan ilmiy adabiyotlarda sheva, lahja va dialekt atamaları



turlicha manolarda qo'llanilib kelmoqda. Mazkur atamalarning ma'nosi ham bir-biridan unchalik uzoq emas. *Sheva* – forscha so'z bo'lib, asl ma'nosi *ovoz, til, so'zlashish, odat, yo'sin, ravish* kabi ma'nolarni anglatadi. Ammo tilshunoslikka oid atama sifatida qo'llanilganda "o'ziga xos fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarga ega bo'lgan, muayyan hudud bilan chegaralangan o'zbek tilining bir tarmog'i sheva deyiladi". Shevalar hatto kichik bir hudud bilan ham chegaralanishi mumkin. Masalan, Toshkent shevasi, Andijon shevasi va boshqalar.

Keyingi yillarda sheva atamasi bilan bir qatorda – dialekt atamasi ham ishlatilmoqda. Dialekt so'zi lotincha bo'lib, adabiy tildan o'zining ba'zi bir (fonetik, grammatik, leksik) farqlanadigan umummilliy tilning yirikroq bo'lagi dialekt deb yuritiladi.

Kichik shevalar yig'ilsa, lahjani yuzaga keltiradi. Shu bois, "bir-biriga yaqin shevalar yig'indisi lahja deb yuritiladi". *Lahja* – so'zi arab tiliga xos bo'lib, *ifoda, so'z, sheva, ovoz* kabi ma'nolarni o'zida mujassamlashtiradi. Lahja atamasi keng va tor ma'nolarda qo'llanilib kelinadi. O'zbek tilshunosligida shevalardagi asosiy xususiyatlarni o'zida birlashtiruvchi shevalar yig'indisi ma'nosida qo'llanilishi uning keng ma'noda qo'llanilayotganini bildiradi. Ba'zan esa, dialekt (sheva) atamali bilan ham mos kelib qoladi. Bunda u tor ma'noda qo'llanilayotgan bo'ladi.

*Milliy til* tushunchasi barcha sheva hamda lahjalarni o'z ichiga qamrab oladi. Milliy tilimiz chegaralangan va chegaralanmagan leksika, yangi va eski so'zlar, kasb-hunarga oid so'zlar, tabu va evferizmilar, varvarizm, jargon va argolar, xullas tilimizning barcha leksik qatlamlarini qamrab oladi.

O'zbek adabiy tili esa, ana shu lisoniy vositalarda saylab olinib, sayqallanib, tartibga solinib shakllantirilgan, O'zbekistonda yashayotgan barcha sheva vakillari uchun tushunarli bo'lgan til hisoblanadi. O'zbek adabiy tili ana shu sheva va lahjalardan oziqlanadi.

Dialektal xato va ularni bartaraf etish yo'llari. Mamlakatimizning turli hududlarida istiqomat qilayotgan sheva vakillari o'zbek adabiy tilidan foydalanishda bir qancha o'rinlarda dialektal xatoliklarga yo'l qo'yadilar. Bunday dialektal xatoliklar har bir lahja vakillari uchun xususiy shakllarda namoyon bo'ladi.

Masalan, qarluq lahjasi vakillari nutqida qaratqich kelishigi(-ning) o'rnida tushum kelishigi (-ni)ni qo'llash holatlari keng kuzatildi. Misol qilib: *mani kitobim* (mening kitobim), *sani uying* (sening uying) kabi. Bu holatni o'zbek tilining deyarli barcha sheva va lahjalari vakillari nutqida kuzatish mumkin.

Yoki, o'g'uz lahjasi vakillari nutqida jo'nalish kelishigi (-ga) o'rnida (-a) shaklining qo'llanishi: *bozora* (bozorga), *uy:a* (uyga) kabi. Samarqand, Buxoro regionlarida yashaydigan turkiyzabon kishilar nutqida jo'nalish kelishigi qo'shimchasi (-ga) o'rin-payt kelishigi o'rnida qo'llanilishiga guvoh bo'lamiz. Masalan, mashinada keldi//*mashinaga keldi*; shu yerda//*shu yerga* va boshqalar.

Bu kabi dialektal xatoliklarni tuzatish uchun ko'proq adabiy til me'yorlarini o'rganish va ularga rioya qilish zarur bo'ladi. Buning uchun mashhur diktorlar, radio va televideniening taniqli suxandonlari nutqini tinglab borish zarur bo'ladi.

Ma'lum bir territoriyada istiqomat qiladigan, muayyan millatga xos tillar bugungi kunda mavjud chegaralar bil cheklanib qolmaydi. Masalan, o'zbek tilining tarqalish areali O'zbekiston

davlati chegaralaridan ancha yiroqdagi o'lkalarni ham qamrab oladi. Jumladan, qo'shni Afg'oniston hududida bir necha million o'zbek tilida gaplashuvchi aholi yashaydi. Yoki Sharqiy Turkiston deb hisoblanayotgan Xitoyning janubiy-g'arbiy hududlarida, Tojikistonda, Qozog'iston va Qirg'izistonning bir qancha viloyatlarida o'zbek tilida gaplashuvchi aholi istiqomat qiladi.

Ana shu hududlardagi o'zbek tili va shevalari ham bizning milliy tilimiz tarkibiga aloqador hisoblanadi. Bu hududlardagi o'zbek shevalari ham ko'pchilik olimlarimiz tomonidan o'rganilgan, tahlil va tadqiq qilingan.

Bugungi globallashtirish zamonida dunyoning turli o'lkalariga o'zbek millatiga mansub kishilar borib ishlab, yashab faoliyat olib bormoqda. Jumladan, Amerika, Germaniya, Rossiya va boshqa dunyoning ko'plab davlatlari hududida o'zbek tilida gaplashadigan kishilar mavjud, ularning til xususiyatlarini o'rganish, o'sha yerdagi o'zbekcha nutqning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish ham o'zbek tilshunosligi, xususan, shevashunosligi sohasining vazifalari sirasiga kiradi.

**Mavzuga oid savollar:**

1. Adabiy til deb nimaga ataladi?
2. Adabiy tilning yozma va og'zaki shakllariga qanday izoh berasiz?
3. Tayanch dialekt tushunchasiga izoh bering.
4. Dialektizm deb nimaga aytiladi?
5. Sheva, milliy til va adabiy til tushunchalarining farqi nimada?

**6. Lahja nima?**

**7. Shevalar adabiy tilni boyitish manbasi bo'la oladimi?**

**8. Adabiy tilning o'ziga xos xususiyatlari nimada?**

